

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
(Barcha sirtqi agrar ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qullanma)

“Lesson Press”
TOSHKENT-2023

UO’K: 958.7(075.8)

KBK: 63.3(5Y36)

Ushbu o’quv qo’llanma O’zbekistonning eng yangi tarixi fanidan bakalavr sirtqi agrar ta’lim yo’nalishlari talabalari uchun tayyorlangan. T. “Lesson Press” MCHJ nashriyoti. 2023 y. 120 b

Tuzuvchi: O.Ostonov, t.f.n., dosent

O’quv qullanmada O’zbekistonning eng yangi tarixi biz uchun, avvalo, mamlakatimizning 1991-yildan keyin bosib o’tgan tarixiy yo’li mohiyati va mazmunini anglab yetish muhimdir. Bu jarayon qanday borganligini, mamlakatimiz mustaqillik arafasida va uning dastlabki yillarida qanday muammolarga duch kelganini tushunib yetish muhim. O’zbekistonning eng yangi tarixini o’rganishda jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy isloh qilishdagi o’zbek modelining konseptual asoslarini idrok etish, davlatimizning global va mintaqaviy integratsiya jarayonlarida ishtiroki bilan bog’liq masalalarning to’g’ri va haqqoniy tahlilini xalqimiz va kelajak avlodga yetkazishning nazariy va amaliy jihatlarini va uni tashkil qilishning xususiyatlari yoritilgan. Mazkur o’quv qullanmada Mustaqillik yillarida O’zbekistonda tarix fani sobiq mustabid tuzum mafkurasidan voz kechish, yangi yondashuvlar bilan bog’liq o’zgarishlarga yuz tutdi. Fan taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish O’zbekiston tarixchilari zimmasiga jahon amaliyoti yutuqlaridan kelib chiqib, tarix fanini yanada yuqori ilmiy-nazariy darajaga olib chiqish hamda yangi ilmiy yo’nalishlarni o’zlashtirish kabi ma’lumotlarni o’z ichiga olgan.

Taqrizchilar: O. Nosirov., t.f.n., dosent

X. Xushvaqtov., t.f.n., dosent

Mazkur o’quv qo’llanma O’zbekiston Respublikasi Oliy va o’rta maxsus ta’lim vazirligining 2022 yil 9 sentabrdagi № 302-sonli buyryg’i bilan nashrga tavsifiya etilgan.

ISBN: 978-9943-8475-3-8

© “Lesson Press” MCHJ nashriyoti, 2023-y.

1-mavzu: Kirish. “ O‘zbekistonning eng yangi tarixi” o‘quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari. Mustaqillikka erishish arafasida O‘zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.

Reja:

1. O‘zbekistonning eng yangi tarixi fanining predmeti, maqsadi, vazifalari, nazariy-metodologik asoslari va ahamiyati
2. XX asr 80-yillari o‘rtalarida respublika ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va ma’naviy hayotidagi inqirozli holat.
3. Milliy manfaatlar ustuvorligining o‘tib borishi. Sovet davlatining tanazzulga yuz tutishi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida davlat boshqaruv tizimi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy sohalarda katta o‘zgarishlar amalga oshirildi. Shuningdek, ta’lim sohasida ham bir qator islohotlar o‘tkazilib, barkamol avlodni voyaga etkazishga yo‘naltirilgan islohotlar amalga oshirilmoqda. Bugun jahonda yuz berayotgan voqea va hodisalar, mafkuraviy qarama-qarshiliklarning mazmun-mohiyatini tahlil etish, turli xil yot g‘oyalardan yoshlarni himoya qilish uchun tarixiy tafakkurni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, oliy o‘quv yurtlarida talabalarning O‘zbekistonning eng yangi davri tarixini chuqur o‘rganishlari bo‘lajak yosh mutaxassislarning bugungi davr hayoti mohiyatini to‘g‘ri anglab olishlari va o‘zlarining shu jarayon ishtirokchisi ekanligini to‘g‘ri va to‘liq anglagan holda mamlakatimizning jahon hamjamiyatidagi mavqeini oshirishga va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishlarida muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston mustaqil taraqqiyot yo‘liga o‘tgandan keyin to‘plangan an’anaviy va tarixiy tajribalar natijasida, Vatanimizning tarixiy, ilmiy va madaniy merosini o‘rganish va tiklash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekiston Respublikasining taraqqiyot yo‘llari mamlakatimiz fuqarolari uchun bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini qurish, o‘zlariga munosib turmush sharoiti va erkinliklar yaratib berishga qaratildi. Shuning bilan bir qatorda, xalqimizning milliy o‘zligini anglashi, o‘zbek davlatchiligining vujudga kelishi va taraqqiyot bosqichlari, xalqimizning etnik shakllanishi jarayonlari, ajdodlarmiz tomonidan amalga oshirilgan ulkan bunyodkorlik ishlarini o‘rganishning zaruriyati oshib, Vatan tarixini o‘rganish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. «Kim bo‘lishidan qat’iy nazar,-deb ta’kidlagan edi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.Karimov,-jamiyatning har bir a’zosi o‘z o‘tmishini yaxshi bilsa, bunday odamlarni yo‘ldan urish, har xil aqidalar ta’siriga olish mumkin emas. Tarix saboqlari insonni xushyorlikka o‘rgatadi, irodasini mustahkamlaydi»¹. Tarixni harakatga keltiruvchi sabablarning mohiyatini bilish orqali, uning rivojlanishi mohiyatini anglab olish mumkin. Insonlarning uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonlarini o‘rganishlari natijasida olgan saboqlari, ularni ruhan chiniqtirib milliy, hududiy va ma’naviy jipslashishlarga

¹ Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. –Тошкент: “Шарқ”, 1998. 9-бет.

yordam beradi. Bu o'z vatanini sevgan har bir insonni uzoq o'tmishini o'rganish orqali kelajagini bilishga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Tarix—bu ajdodlarimiz tomonidan bizga qoldirilgan muqaddas xotiradir. Xotirasiz kishi to'laqonli bo'lmaganidek, o'z tarixini bilmagan xalqning kelajagi ham bo'lmaydi. Tarixdagi har bir ijtimoiy yuksalish, avvalo, jamiyatning o'z merosiga, o'tmishiga bo'lgan munosabatini isloh qilishdan boshlangan. O'tmishga murojaat qilishda unga bo'lgan munosabatni to'g'ri va haqqoniy belgilab olish lozim. Aks holda tarixni xolisona yaratish ham, o'rganish ham mumkin emas. Dunyoning ko'pchilik xalqlari kabi, xalqimizning boy tarixini atroflicha o'rganish barchamiz uchun muhim ahamiyatga egadir. Vatan tarixini o'rganishning zaruriyati haqida Mahmudxo'ja Behbudiy shunday yozgan edi: «Mingbaat-taassufki, ba'zi o'ylamay so'ylaguvchilar, tarix va jug'rofiya o'qimoqni bid'at va gunoh deb bechora avomni yo'ldan ozduradurlar. Bizni Turkistonda ba'zi eng muhtaram muborak kishilar tarixdan bilkulli bexabardurlar. Hattoki bexabarliklaridan xabarsizdurlar, ki bu bexabarsizliklaridan ba'zan uyatga qolib, hatto ish sharmandachilikka etar.

O'tkan ulamolar rahmatulloh musaffir, muhaddis, mujtahid va musannif bo'laturgon kishiga bir necha shartlar qo'yubdurlar, ki alarning biri ilmi tarixni bilmoqdur. ...Ilmi tarixni bayon etguvchi bir muarrix deyurki, Qur'oni karimning qariyb to'rtidan biri tarix va axborni muhtavidir. Dunyoga yashamoq uchun, diroyatlik bo'lmoq uchun, komil va odil bo'lmoq uchun tarix o'qimoq kerak. Podshoh, vazir, hukumat odamlari va siyosiy kishilar uchun tarix o'qumoq kerak. Dini islomning asli hazrati payg'ambar va sahobalarning islomiyat va ummat uchun chekkan jafo va mehnatlarini bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak. ... Musulmonlik qanday ko'paydi va taraqqiy etdi, va al-on na uchun musulmonlar muntazil etildilar? Muni bilmoq uchun tarix o'qumoq kerak»². Bu kabi mulohazalarning o'zigina ilmga qiziqqan, o'z dunyoqarashlarini kengaytirishga intilgan barcha kishilarning o'z vatanlari tarixini o'rganishlari naqadar muhim ekanligini ko'rsatadi.

Hozirgi paytda yoshlarimizni o'z vatani va xalqiga nisbatan hurmat va g'urur ruhida tarbiyalash uchun ajdodlarimiz tomonidan vatan ravnaqi uchun qilgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ilm-fan sohasida qo'lga kiritgan olamshumul yutuqlari, o'z eli, vatanini himoya qilish uchun ko'rsatgan qahramonliklarini ularning qalbiga singdirish dolzarb masalaga aylandi. Yosh avlodning o'z vatani va ajdodlari tarixini chuqur o'rganish orqali eliga, yurtiga, milliy o'zligini anglashi va e'tiqodini mustahkamlanishida Vatan tarixi alohida o'rin tutadi. Shuning bilan bir qatorda, mamlakatimizda fan, madaniyat, adabiyot va san'atga hamda xorijiy mamlakatlar va sivilizatsiyalar tarixini o'rganish va ular bilan hamkorlik qilish uchun zarur sharoit yaratilishi tufayli bu sohalarga ham qiziqish ortmoqda.

Vatanimizning eng yangi tarixi yoshlarimizning siyosiy, g'oyaviy, madaniy-ma'rifiy dunyoqarashlarini kengaytirish, barkamol avlodni voyaga etkazishda quyidagi nazariy-ilmiy hamda uslubiy asoslarga tayanadi:

² “Ойина” (1914-1915). –Т.: “Академия”, 2001. 26-27-бетлар.

Birinchidan, tarixiy jarayonlar ilmiylik, xolislik, tarixiylik va haqqoniylik prinsipi asosida xolisona o'rganilishi lozim;

Ikkinchidan, Vatan tarixini o'rganish yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik, ma'naviy barkamollik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi;

Uchinchidan, Vatan tarixi yoshlarga millat erki va ozodligini qadrlashni keng targ'ib qilish bilan birga mustaqillikni mustahkamlashga xizmat qiladi, davr bilan hamnafas bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, tarix milliy o'zlikni anglash, xalqning ma'naviyatini yanada boyitish, yoshlar ongiga insonparvarlik va vatanparvarlik ruhlarini chuqur singdirish bilan bir qatorda, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni ham xolisona baholashga yordam beradi. "Tarix, -deb yozgan edi Abdurauf Fitrat, -millatlarning o'tmishi, taraqqiyoti hamda tanazzulining sabablarini o'rganaturg'on ilmdir."

Mazkur o'quv qo'llanma mamlakatimiz o'tmishida sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy jarayonlarni manbalar asosida xolisona o'rganishga yordam beradi.

O'zbekistonning eng yangi tarixini davrlashtirish, mamlakatimizda 1980 yillarning oxirida sodir bo'lgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tahlil qilish va 1991 yildan keyin mamlakatimiz bosib o'tgan murakkab tarixini o'rganish, mamlakatimiz mustaqillikka erishgunga qadar va mustaqillikning dastlabki yillarida boshdan kechirgan murakkab tarixiy jarayonlarning mazmun va mohiyatini to'g'ri anglab olishlarida muhim o'ri tutadi.

Ushbu dasturda O'zbekistonning eng yangi tarixi, ya'ni O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi arafasida yuzaga kelgan murakkab vaziyat, respublika mustaqilligining e'lon qilinishi, mustaqillik yillarida mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalaridagi islohotlar va ularning bosqichlarini, O'zbekistonning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini, xalqaro munosabatlar, xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, tinchliksevar tashqi siyosat kabi masalalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib beriladi.

O'zbekistonning eng yangi tarixi fani (kursi) ijtimoiy-gumanitar fanlar (falsafa, sotsiologiya, san'atshunoslik, dinshunoslik, iqtisod, psixologiya va boshqalar) tizimining tarkibiy qismi bo'lib, u jamiyat hayotida sodir bo'lgan voqea-hodisalar va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni yaxlit tarzda o'rganadi. Taniqli fransuz tarixchisi M.Blok ta'kidlaganidek, "tarix-bu inson, jamiyat va vaqt haqidagi fandir". Hozirgi paytda jahon hamjamiyati boshidan kechirayotgan o'zgarishlar va demokratik tajribalarga tayangan holda mamlakatimiz davlatchiligi tarixi va uning taraqqiyot bosqichlarini o'rganish dolzarb masalaga aylandi.

Bugungi kunda yangi tarixi fani oldida jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlariga asoslangan holda, taraqqiyot jarayonining muhim jihatlarini tahlil qilish orqali insoniyatning jamoatchilik asosida siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy rivojlanishi bosqichlarini o'rganish vazifasi turibdi.

Jahon hamjamiyati tarixining ajralmas qismi bo'lgan O'zbekistonning yangi tarixi fanining predmetini ham mazkur fanni o'rganishga doir asosiy vazifalar tashkil qiladi. O'zbekistonning eng yangi tarixi kursini o'rganishda muhim hisoblangan masalalar quyidagilardan iboratdir:

- O'zbekistonning mustaqillikka erishish arafasidagi ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni tahlil qilish, Respublika hukumati tomonidan amalga oshirilgan ishlarning mazmun-mohiyatini talabalar ongiga etkazish;

- Mustaqillik yillarida mamlakatimizda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida amalga oshirilgan ishlar, bu sohada erishilgan yutuqlarni ko'rsatish;

- O'zbekistonda fuqarolik jamiyati asoslarining yaratilishi, kuchli davlatdan kuchli jamiyat sari konsepsiyasining mazmun -mohiyatini yoritish;

- O'zbekistonda iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi, bozor munosabatlarining shakllanishi;

- respublikada ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar, yutuqlar va muammolar;

- mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi;

- yangilanayotgan O'zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari;

- O'zbekistonning jahon hamjamiyati bilan hamkorligi, bu borasida amalga oshirilgan ishlar, yutuqlar va muammolarni talabalarga etkazish;

Har bir fan o'zining tadqiqot uslubiga egadir. Jumladan O'zbekiston tarixini o'rganishda ham ikkita asosiy metodologik prinsip bo'lib, ular tarixiylik va ijtimoiy yondashuv prinsiplaridan iborat. Tarixiylik prinsipining mohiyati shundaki, unga ko'ra har bir tarixiy voqea-hodisa va tarixiy faktlar quyidagicha tahlil qilishni taqozo qiladi:

- birinchidan, uzoq o'tmishdan hozirgacha taraqqiyot bosqichlarini o'rganish kelajak haqidagi tasavvurlarimizni oydinlashtiradi. Har bir tarixiy voqea-hodisaning o'sha davrga xos tugal mohiyatini o'rganilishi taqozo qilinadi;

- ikkinchidan, hozirgi davrda insoniyat jamiyati tizimli bo'lganligi tufayli dunyoning qator davlatlari va regionlarida kechayotgan jarayonlar o'zaro aloqadorlikda tahlil qilinadi. Jahon sahnasida sodir bo'layotgan o'zgarishlar barcha mamlakatlarda aks-sado beradi (ayniqsa hozirgi sharoitda) va har bir mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga o'zgartirishlar kiritishni talab qiladi;

- uchinchidan, tarixiy materiallarni o'rganish jarayonida to'plangan bilimlar asosida ma'lum tajribaga ega bo'lgandan keyingina tarixiy hodisalarni tahlil qilish va to'g'ri xulosa chiqarish imkoni oshadi.

Jamiyat taraqqiyotiga ijtimoiy yondashuv prinsipi tarixiy bilimlarga gumanistik ta'sirni kuchaytirib, voqea-hodisalarga umuminsoniy manfaatlar nuqtai-nazaridan yondashuvni taqozo qiladi.

O'zbekiston tarixi kursini o'rganishning muhim nazariy-metodologik asoslaridan biri tarixiy hodisa va faktlarga haqqoniy baho berishni ko'zda tutadi. To'plangan tajribalarni davr nuqtai-nazaridan o'rganish va tahlil qilish quyidagi masalalarni inobatga olishni taqozo qiladi:

- masalaga gumanistik nuqtai-nazaridan yondashuv insonning shaxs sifatida qadri va mavqeini oshiradi.

-Tarixiy voqea-hodisalarga sivilizatsion yondashuv o'rganilayotgan tarixiy jarayonlarning xronologik doirasini kengaytirib, tarixiy taraqqiyotning qonuniyligini asoslash imkoniyatini kengaytiradi.

Shu bilan bir qatorda ta'kidlash joizki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan yondashuvlar mukammallik va to'la tugallanganlikka da'vogarlik qilish uchun etarli emas. Ular bir birlarini to'ldirib turishini inobatga olib, ulardan zaruriyat tug'ilganda foydalanish mumkin. Bu yondashuvlarni qarama-qarshi qo'ymasdan va ularning turli-tumanligini yoddan chiqarmagan holda umumlashtirish lozim.

Hozirgi paytda mamlakatimizning uzoq o'tmishi davrida sodir bo'lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy jarayonlarni metodologik ("metodos" yunoncha-tadqiqot usuli, nazariyasi va "logos" -fan) asosda o'rganishga e'tibor kuchaydi. Tarixni metodologik asosda o'rganish, bu fanga taalluqli manbalarga chuqur ilmiy va nazariy yondashishni taqozo qiladi. Tarixiy jarayonlarni ilmiy faktlar, ma'lumotlarga tayangan holda nazariy jihatdan chuqur va haqqoniy yoritish fanga bo'lgan hurmatni va qiziqishni muntazam oshirib boradi.

Kishilik jamiyatida tarixiy voqea, hodisalarni o'rganishning muhim nazariy-metodologik asoslaridan biri, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyoti qonunlarini ochib beruvchi dialektik jarayon bo'lib, u asosan quyidagilardan iborat:

- tarixiy jarayonlarga ob'ektiv yondashish;
- milliy mentalitetni hisobga olgan holda boshqa xalqlar tarixiga hurmat bilan qarash;
- tarixiy jarayonlarning evolyusion yo'l bilan rivojlanishi jarayonlariga alohida e'tibor berish;
- tarixiy voqea-hodisalar, tabiat, jamiyat va insonlar o'rtasida munosabatlarning dialektika va sinergetika (bir yo'nalishda harakat qilish) qonuniyatlari asosida takomillashishga e'tibor qilishdan iborat.

Tarix fani yuqorida bayon etilgan dialektik jarayonlar bilan bir qatorda, quyidagi ilmiy va uslubiy tamoyillarni ham nazarda tutadi:

- voqea-hodisalarni yoritishga xronologik izchillik asosida yondashish;
- qiyoslash, taqqoslash va umumlashtirish orqali mantiqiy jihatdan asoslangan xulosalar chiqarishdan iborat.

Yuqorida keltirilgan ilmiy va uslubiy yo'nalishlar tarixiy jarayonlarni xolisona, haqqoniy o'rganishga yordam beradi.

Mamlakatimizning mustaqilligi davri tarixi bor-yo'g'i 30 yilni qamrab olayotgan bo'lsada, u siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va ma'rifiy taraqqiyoti jihatidan boy va murakkabdir. Bu davrini o'rganishga yordam beruvchi manbalar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

- mamlakatimizning mustaqilligi davrida yaratilgan adabiyotlar, arxiv manbalari va matbuot materiallari hamda ilmiy tadqiqot ishlari;
- xorijiy tadqiqotchilarlar tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida qo'lga kiritilgan ma'lumotlar;

Ma'lumki, vatanimiz tarixi boy va murakkab bo'lib, asrlar mobaynida buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklarni

o'rganish va yoshlar ongiga singdirib, ularning qalbida o'tmish va yaratilgan noyob boyliklarga nisbatan hurmat uyg'otish hamda ularni asrab avaylashga tuyg'usini singdirish dolzarb vazifaligicha qolmoqda.

Vatanimizning uzoq va boy tarixi, uning tabiati, bebaho boyliklari, buyuk ajdodlarimizning yaratuvchanlik qobiliyati, xalqimizning mehnatsevarligi hamisha hurmat bilan tilga olinadi. Hozirgi paytda Muhammad Muso Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi allomalarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissalarini xalqaro miqyosda muntazam ta'kidlanib turiladi. Tadqiqotchi olimlarning fikricha, Sharq, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasi IX-XII va XIV-XV asrlarda otilib chiqqan ikki qudratli ilmiy-madaniy yuksalishning manbai hisoblanib, jahonning boshqa mintaqalaridagi Renessans jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatgan Sharq uyg'onish davri-Sharq Renessansi sifatida dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan haqli ravishda e'tirof etilgan.

Darhaqiqat, O'zbekiston tarixi avvalo O'rta Osiyo mamlakatlari tarixi bilan, qolaversa insoniyat tarixi bilan chambarchas bog'langan. Qadim zamonlardan buyon O'rta Osiyo xalqlari mintaqadagi ko'pgina xalqlar (afg'onlar, forslar, arablar, hindlar, xitoylar va boshqalar) bilan umumiy iqtisodiy va madaniy makonda yashab kelgan. Bu katta hududda yashovchi urug', qabila, qavm, elatlar uzoq etnik jarayonlar (assimiliatsiya-dissimiliatsiya)ni boshdan kechirganlar. Ularning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayotlari bir-birlari bilan uzviy hamkorlikda kechgan. Shu boisdan Vatanimiz tarixini qo'shni xalqlar tarixi bilan bog'liq holda o'rganish taqozo etiladi. Qo'shni va qardosh xalqlar tarixining haqqoniy yoritilishi, Vatanimiz tarixini yanada mukammal o'rganishga yordam beradi.

Oliy o'quv yurtlarida O'zbekiston tarixi fanini o'qitilishi uni o'rta maktablarda o'qitilishi tizmidan jiddiy farq qiladi. Maktab o'quvchilari Vatanimiz tarixida sodir bo'lgan voqea-hodisalarni tarixiy xotira kechimida o'rganishadi. Oliy ta'lim tizimi talabalari esa, maktablarda olgan bilimlariga tayangan holda tarixiy jarayonlarni mushohada qilishga ham o'tadilar. Bu vazifalarni echishda talabalar ma'ruza va seminar darslarida olgan bilimlari yordamida mantiqiylik nuqtai-nazaridan tadqiq qilingan tarixiy materiallar tizimidagi bog'liqlikni hamda faktik materiallarni tahlil qilish asosida to'g'ri xulosalar chiqarishni o'rganadilar. Tarixiy materialga zamonaviy metodologiya nuqtai-nazaridan yondashuv asosida o'qituvchi ma'ruza darsida talabalarda O'zbekiston tarixi kursini to'g'ri o'zlashtirib olishlarini shakllantiradi. Seminar darslarida esa mazkur darslar amaliy jihatdan mustahkamlanadi. Shu bilan bir qatorda, talabalarning o'zlari mustaqil ishlashlari uchun mustaqil ta'lim darslariga ham alohida e'tibor berilib, ularda talabalar darsliklardan tashqari, ilmiy va ilmiy-ommabop adabiyotlardan foydalanishni ham o'rganadilar.

1970 yillaridagi turg'unlik davrida boshlangan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy inqirozlar dunyoning eng qudratli davlatlaridan biri hisoblangan SSSRning

parchalanishini tezlashtirdi. Turg'unlik yillarida rahbar xodimlar, xavfsizlik xizmati va ichki ishlar xizmati xodimlari o'rtasida manfaatparastlik, aqidaparastlik, davlat xazinasiga qo'l urish, xizmat lavozimlarini suiste'mol qilish, poraxo'rlik va boshqa salbiy holatlar kuchaydi. O'zlarini yangi bir qatlam sifatida his qilgan mansabdor shaxslar el-yurt sha'niga dog' tushira boshladilar. Bu hol, ayniqsa, davlat va jamoat arbobi, yozuvchi, 1959-1983 yillarda O'zbekiston KP MQning birinchi kotibi bo'lgan Sharof Rashidovning vafoti (1983 yil 6 oktyabr) dan so'ng siyosiy hokimiyatni egallagan I.Usmonxo'jaev ma'muriyati davrida yaqqol namoyon bo'ldi. Respublikaning yangi rahbariyati, asosan, Markazning "ko'rsatmasi" bilan ish tutib, uning topshiriqlarini so'zsiz bajarish bilan mashg'ul bo'ldi. Bu davrda namoz o'qish, islom farzlariga rioya qilish, "Qurbon" va "Ro'za" hayitlari, "Navro'z" bayramlari "eskilik qoldiqlari" sifatida qoralandi. Biroq kommunistik partiya o'z g'oyalarini singdirish uchun barcha usul va vositalardan foydalanishiga qaramasdan, ular xalqimizning qalbidan joy ololmadi. Qaytaga ommaning partiya va hukumatga ishonchi so'na boshladi.

O'zbekiston KP MK ning XVI plenumida (1984 yil) respublikaning yangi rahbarlari butun aybni boshqalarga (jumladan, marhumlarga ham) ag'darishdan toymadilar. Ular markazga qayta-qayta murojaat qilishib, respublikada qattiq tartib o'rnatish uchun kadrlar yuborishni iltimos qildilar. Bu rahbarlar egallab turgan lavozimlarini va jonlarini asrab qolish uchun qo'yilgan ayblarni Sh.R. Rashidovga va o'z xalqiga ag'darishdan ham toymadilar.

Markaz mamlakat miqyosida sodir bo'layotgan tushkunlik holatidan xalqni chalg'itish maqsadida o'z siyosatini "oqartirib", "bo'yab" ko'rsatishga urindi. Shunday vaziyatda, "paxta ishi" degan uydirmalar o'ylab topildi. 1983 yilda Markaz tomonidan shunday uydirmalar asosida O'zbekistonda paxtani yig'ib olish va qayta ishlashning moliyaviy jarayonlarini tekshirish va tergov qilish bilan markaziy prokuratura va ichki ishlar organlari maxsus shug'ullandi. SSSR prokuraturasi va Xavfsizlik xizmati komiteti tashabbusi bilan tergov guruhlarini tuzildi. 1983-1989 yillarda T.Gdlyan va Ivanovlar rahbarligidagi tergov guruhlarini respublika huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda O'zbekistonda paxta etishtirishda "o'g'irlik", "qo'shib yozish" bilan bog'liq 800 dan oshiq tergov ishlari olib borilishi jarayonida qonunsizlik, yashirin qatag'onlik harakatlari kuchaydi.

Maxsus buyurtma asosida olib borilgan tergov ishlari haqiqatni yuzaga chiqarishdan ko'ra, tezda respublika sha'niga dog' tushirishga qaratilganligi ayon bo'la boshladi. Qisqa vaqt ichida yuqori lavozimlardagi bir qancha shaxslar qamoqqa olindi. Jamoa xo'jaliklari raislari va sovxozlar direktorlarining 60 %dan ko'prog'i, qishloq xo'jaligi etakchi mutaxassis-larining qariyb 45 %, har uchta paxtachilik brigadasi boshlig'idan biri vazifasidan olinib jinoiy javobgarlikka tortildi. Ularning aksariyati tergov izolyatorlarida bo'lishgan (jami 40 mingga yaqin fuqaro tergov qilingan). Shu ishlar bo'yicha 5 ming kishi qamoqqa olingan, ularning 600 dan oshig'i rahbar xodimlar, 10 tasi sotsialistik mehnat qahramonlari edilar. "Aybdorlar"dan 100 mln. so'mdan oshiq pul yig'ib olindi. Qamoqqa

olinganlardan ko'pchiligining fuqarolik huquqlari poymol qilinib, ular qonunga xilof ravishda sudsiz, tergovsiz qamoqxonalarda ushlab turildi.

Albatta boshqa respublikalarda ham katta "jinoyatlar" ochildi. Biroq "paxta ishi" katta shov-shuvlar bilan eng "katta jinoyat" sifatida butun ittifoqqa yoyildi. Bir qator Rossiya gazetalarining zo'r berishi tufayli "paxta ishi" "o'zbeklar ishi" ga aylantirildi. O'zbekiston aholisining misli ko'rilmagan tarzda "boyib" ketganligi haqida afsonalar to'qildi. Markaziy matbuot organlari o'zbek xalqi sha'niga har xil bo'htonlar yog'dirishdan toymadilar. "Paxta ishi"ni umumiy qoralashning salbiy ruhi butun o'zbek xalqiga nisbatan qo'llanilishi katta nohaqlik edi. O'z-o'zidan ma'lum ediki, sobiq ittifoq miqyosida ishlab chiqarishda qo'shib yozishlar, hisobotlarda belgilangan topshiriqlarni muddatidan oldin bajarish va shunga da'vat etish odatlari sotsialistik tizimning afzalligini "ko'z-ko'z" qilishga qaratilgan edi. Biroq sobiq ittifoqdosh respublikalarda ommaviy tus olgan bu jarayonni faqat O'zbekiston misolida bo'rttirib ko'rsatilishi o'zbek xalqiga nisbatan adolatsizlik bo'lib, bu jamoatchilikni sovetlar tizimiga nisbatan munosabatini o'zgartirib, nafratini oshirdi. Bu o'z navbatida, o'zbek xalqining mavjud tuzumga ishonchini so'ndirib, markazning rahbarlari va huquq-tartibot organlariga nisbatan noroziligini kuchaytirdi.

O'zbekiston xalqi va yangi siyosiy rahbariyati "paxta ishi", "o'zbeklar ishi"ga oid bo'htonlarga barham berilishi hamda nohaq jazolanganlarni qamoqdan ozod qilishni so'rab, Markazga murojaat qildi. Biroq murojaatlar e'tiborsiz qoldirildi. Bu hol Markaz bilan O'zbekiston o'rtasidagi ziddiyatlarni yanada keskinlashtirdi. Vaziyat respublikaning mustaqillikka erishishi zarurligini jiddiy taqozo qila boshladi.

Mamlakatda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tanglik holati kuchaygan bir vaziyatda KPSS MK Bosh kotibi M.S.Gorbachyov «qayta qurish» siyosatini ilgari surdi. Bu siyosat vaqt e'tibori bilan 1953-56, 1964-65, 1982-83 yillardagi islohotlardan jiddiy farq qilib, 1985 yildan sovetlar jamiyatida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni kompleks tarzda yangilashni nazarda tutgan edi. SHu maqsadda boshlangan qayta qurishning birinchi bosqichi (1985-87 yillar)da ilmiy-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga keng tadbiiq etish va jamiyatda inson omilini faollashtirishga asoslanib, iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga erishishni ko'zda tutgan.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987-90 yillar) jamiyatning barcha sohalarini isloh qilishni ko'zda tutgan. Xususan, oshkoralik asosida jamiyatni to'la demokratlashtirishga erishish nazarda tutilgan.

Qayta qurish borasidagi tajribalarning ko'rsatishicha, mamlakat siyosiy rahbariyati birinchi kunlardan oq «qayta qurish» konsepsiyasida qo'yilgan ziddiyatli masalalar (jumladan, qayta qurish va ayni paytda jadallashtirish siyosati) ni hal qila olmadi. Ilmiy jihatdan asoslanma-gan bu konsepsiya jamiyatning ijtimoiy-siyosiy talablariga javob bera olmay tanazzulga uchradi. Unda ittifoqdosh respublikalarning manfaatlari va muammolari chuqur tahlil qilinmagan edi. O'sha davrda sovetlar tuzumining iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlari yuqoriligi ta'kidlanib, tarixiy istiqbol sotsializm tomonida deb qaraldi.

Sotsializmga sun'iy ravishda demokratik qiyofa berilib, mustabid tuzumning mavjud illatlariga «tasodifiy hol», «ularni boshqaruv tizimidan olib tashlashning o'zi kifoya» deb qaraldi. Sovet davlatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muammolar tobora ko'payib bordi. Ayni paytda, bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida rivojlanib borayotgan dunyoning etakchi mamlakatlari bilan qiyoslanganda, jamiyatning sotsialistik ishlab chiqarish usuli talabga javob bermayotganligi oydinlashdi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov qayta qurish siyosati davrida ro'y bergan buzilishlarni quyidagicha ta'riflaydi: «Inqiroz sabablari va omillarini to'liq tasavvur etmagan, o'zgartirishlarning aniq-ravshan dasturiga ega bo'lmagan butun iqtisodiy siyosat empirik xarakterda bo'lib, avantyuradan iborat eksperimentlardan, har tomonga og'ishlardan boshqa narsa emas edi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor munosabatlariga o'tishning turlicha yondoshuvlarga asoslangan dasturlari loyihalarining ko'pchiligi islohotlarning aniq maqsadi yo'qligidan, ularni ro'yobga chiqarish muddatlari- «besh yuz kun» deb belgilab qo'yilishi esa zarur o'zgartirishlarning tub mohiyati va nihoyatda murakkabligi to'la anglab etilmaganligidan dalolat berar edi».

Ziddiyatli «qayta qurish» siyosati oqibatida respublika iqtisodiyotida tanglik holati chuqurlashib, avvalo ishlab chiqarish va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari keskin pasaydi, fondlar hisobidan keladigan foyda kamaydi. Respublika iqtisodiyoti, jumladan, sanoat ishlab chiqarishining barqarorligi muttasil ekstensiv omillar, uyushtirilgan qiyin-qistovlar hisobiga saqlab turildi. Bu aholining turmush darajasiga ham sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, ishchilar va xizmatchilarning ish haqi O'zbekistonda umumittifoq bo'yicha 1975-yildagi 93,7% dan 1987 yilda 81,3% ga tushib qoldi, aholi jon boshiga iste'mol fondi hajmi tegishli ravishda 66% dan 58% ga kamaydi. Natijada davlat tomonidan qilinayotgan o'zgarishlarga munosabati o'zgarib, unga nisbatan ishonchi yo'qola bordi. 1970- yillarda boshlangan turg'unlik holati mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni murakkablashtirdi. Bularning hammasi ittifoq hukumatini 1988 yilda «turg'unlik»ning haqiqiy sabablarini oydinlashtirishga, yangilanish «konsepsiyasi»ni yanada chuqurroq ishlab chiqishga undadi. «Qayta qurish» natijasida vujudga kelgan oshkoralik tufayli sovet jamiyatidagi haqiqiy ahvolni tahlil qilish va mamlakatda yo'l qo'yilgan xatolarga ochiqchasiga baho berish zaruriyati vujudga keldi. Respublikalarda oshkoralik orqali haqiqatni bilishga intilishining kuchayishi kommunistik mafkura ta'siriga putur etkazdi.

KPSS MK respublikalarning Markazdan chetlashishga qaratilgan harakatlarini to'xtatishga, ular ustidan ilgarigidek o'z hukmronligini saqlab qolishga urindi. Biroq, ittifoqdosh respublikalar xalqlarining ijtimoiy ongi va kayfiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar ma'muriy-buyruqbozlik muhiti ostida yashashdan ustun keldi. Sovetlar davrida ommaviy axborot vositalari tomonidan hamisha ham xolisona yoritilmagan voqea-hodisalarning mohiyatini xolisona yoritish davr talabiga aylandi. Mamlakatimiz ziyolilari va siyosiy kuchlari ham shu tahlikali kunlarda milliy manfaatlar asosida siyosiy jarayonlarning asl

sabablarini ochib tashlash, o'z xalqining g'ururi va qadr-qimmatini himoya qilish kabi keskin muammolarni oshkora muhokamaga qo'ya boshladilar.

Shunday qilib, "Qayta qurish" sovetlar davrida jamiyatning asosini tashkil etgan sotsialistik tuzum ijtimoiy-iqtisodiy hayotni ob'ektiv rivojlantirishga qodir emasligini ko'rsatdi. Ko'pgina mamlakatlarning tajribasi hozirgi davr jamiyati markscha klassik nazariyaga sig'ishmaydigan ijtimoiy prinsiplar elementlarining chatishib ketishidan iborat bo'lishi mumkinligini namoyon qildi. Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan xalqlar ongida ro'y berayotgan o'zgarishlar Markazni jiddiy tashvishga sola boshladi. Yillar davomida qilingan mehnatga yarasha haq olmaslik, milliy g'urur, iftixor tuyg'usining poymol qilinishi, boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi qalbida ham og'ir asoratlar qoldirdi. Ayniqsa, Osiyoning bir qator mamlakatlari (Janubiy Koreya, Indoneziya, Singapur, Tayvan, Gonkong va boshqalar)da sodir bo'layotgan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar sovetlar tuzumiga ishonchsizlikni kuchaytira boshladi. Bundan tashqari, Afg'oniston xalqining o'z erkini saqlab qolin uchun boshlagan urush harakatlari, Eronda xalq revolyusiyasining g'alabasi O'rta Osiyo xalqlari ma'naviyatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ularning qalblarida mustaqillikka intilish kayfiyatlari tobora kuchayib bordi.

O'zbekistonda sun'iy sug'orish tizimiga e'tibor kuchaytirilishi natijasida 1985 yilda respublikada 900 ta sug'orish tizimi, 92 ta gidrotexnika inshooti ishlab turgan. 23 ta sun'iy dengiz – suv ombori kamsuvlikka mustahkam to'siq bo'lib, ularda erlarni sug'orish uchun qariyb 10 mlrd. kub metr suv jamlangan. Bu vaqtga kelib juda katta er massivlari qishloq xo'jalik oborotiga kiritildi. Masalan, agar 1946-1965 yillarda 600 ming ga er o'zlashtirilgan bo'lsa, 1966-1985 yillarda 1,6 mln. ga er o'zlashtirildi. Bu tadbirlar natijasida respublikada paxta etishtirish muttasil oshirib borildi. Masalan, O'zbekiston 1946-1950 yillarda jami 7 mln. 729 ming tonna paxta bergan bo'lsa, 1981-1985 yillarda esa bu ko'rsatkich 28 mln. 617,6 ming tonnaga etdi. Qishloq xo'jaligining ekstensiv rivojlantirishi oqibatida daromadga nisbatan xarajat tobora oshib bordi.

Paxta ekiladigan maydonlarining yildan yilga kengayib borishi respublikada paxta yakkahokimligini vujudga keltirdi. Agar 1940 yilda 923,5 ming ga erga chigit ekilgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1987 yilda 2107,7 ming gektaga teng bo'ldi. Demak, paxta ekiladigan maydonlar 1987 yilda 1940 yildagiga nisbatan 1 mln. 184,2 ming ga yoki ikki barobardan ziyodroq ko'paydi. Buning hisobiga bog'lar, poliz ekinlari, yaylovlar keskin kamayib, aholini go'sht, sut, meva-chevaga bo'lgan ehtiyojini keskin oshirib yubordi. Aholi ehtiyojini ma'lum darajada qondirish maqsadida 6,9 mln. ga erdagi yaylovlarga suv chiqarildi. Kanal va suv omborlarining ishga tushirilishi iqtisodiy samara berishdan tashqari atrof – muhitga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi: er osti suvlari ko'tarilib, erlarning sho'rlanishi kuchaydi, bog'lar quriy boshladi. 1946 - 65 yillarda qariyb 600 ming ga, 1966 - 85 yillarda 1800 ming ga yangi erlar o'zlashtirildi. Bularning oqibatida Orol dengizi quriy boshladi. 80-yillar o'rtalariga kelib Orol dengizining sathi 13,8 metrga pasaydi, suv hajmi 390 mln. kub metrga kamaydi, maydoni 40 ming kv. metrqa qisqardi, suvning minerallashuvi bir metr hisobiga 21 grammga etdi. Amudaryo va

Sirdaryoning quyi oqimida daryo suvlari nihoyatda kamayib, mavjud oqava suvlar iste'molga yaroqsiz holga kelib qoldi. Natijada, turli yuqumli kasalliklarning ko'payishiga sharoit yaratildi.

70-80-yillarda O'zbekiston paxtachilikka ixtisoslashish natijasida Umumittifoq fondiga jami etishtirilgan paxtaning 2/3 qismini etkazib bergan. Faqat, 1976-1985-yillarda davlatga respublikadan 15345 ming tonnadan ortiq paxta tolasi olib ketilgan. Shu yillarda Bolgariya va Vengriya to'qimachilik korxonalarining 80%, Polsha to'qimachilik korxonalarining 70%, boshqa "sotsializm mamlakatlari"ning ham ko'pchiligi o'zbek paxtasi hisobiga ishladi. Biroq, o'zbek dehqonlarining ijtimoiy ahvolidan deyarli o'zgarish bo'lmadi.

O'zbekistonda qishloq xo'jaligini chuqur ilmiy asoslanmasdan ekstensiv rivojlantirishga qaratilgan siyosat iqtisodiy samaradorlikning pasayishiga, sarflanayotgan mablag'ning samarasiz ketishiga olib keldi. Jumladan, 1971-1985-yillarda respublika agrar sektorini rivojlantirishga 32,2 mlrd. so'mdan ortiq mablag' ajratilgan bo'lsa, shundan 2063 mln. so'mi erlarni meliorativ holatini yaxshilashga sarflandi. Shunga qaramasdan, har 100 ga er maydonidan Ukrainaga nisbatan 3 barobar, Belorussiyaga nisbatan 4 barobar kam hosil olingan. Aniqrog'i, bir tonna paxta etishtirishga 340 ishchi-soati sarflangani holda, bir tonna g'allaga bor-yug'i 12 ishchi-soati sarflangan. Ko'rinib turibdiki, xarajatlardagi farq qariyb 30 baravarni tashkil etgan. Lekin mahsulotlarni sotishdan olinadigan daromad o'rtasidagi farq bor-yo'g'i 4-5 baravardan oshmagan.

O'zbekiston qishloq xo'jaligini rivojlantirishga bunday yondashuv natijasida vaziyat fojiaviy tus ola boshladi. 80-yillarda ekologik tanglik yanada kuchaydi. Bu davrda bir ga. paxta maydoniga 24,5 kg zaharli kimyoviy moddalar to'g'ri keldi, xolbuki iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda bu 0,5 kg dan oshmagan. Agar dunyo miqyosida bir ga erga 300 g pestitsid ishlatilgan bo'lsa, O'zbekistonda faqat g'o'zaning o'ziga 54 kg dan ortiq, ya'ni normadan deyarli 51 marta ko'p zaharli moddalar ishlatilgan.

Zaharli kimyoviy moddalarning ko'p miqdorda to'planishi xavfli kasalliklarni tarqalishini kuchaytirdi. Qishloqda keskin epidemiologik sharoit vujudga kelib, virusli gepatit, boshqa xavfli kasalliklar- ichburug', sil, ich terlama, ayollar va bolalar orasida endokrin kasalliklar, kamqonlik (anemiya) keskin ko'paydi. Jumladan, 80-yillarning o'rtalarida Xorazm, Buxoro va QQASSRda katta yoshdagilarning 70% dan ortig'i, bolalarning 80 % dan ko'prog'i bir yoki bir nechta kasalliklar bilan og'rgan. Xususan, 1980-1985 yillarda har 10 ming kishi hisobiga zararli o'simtalar bilan og'rgan bemorlar soni 204 kishidan 242 kishiga etdi.

1980-1989-yillarda respublika qishloqlarida sil kasali bilan og'rganlar 6,6 ming kishini tashkil etdi. Respublika bo'yicha bu ko'rsatkich har 100 ming kishiga 45,6 dan 50,4 nafarga ko'paydi. Shuningdek, onalik va bolalikni muhofaza qilish jiddiy muammoga aylandi. Bu davrda har ming ayoldan 254 nafari kamqonlik kasali bilan og'rgan. Vaholanki, sobiq ittifoq bo'yicha bu ko'rsatkich 84 nafarni tashkil etgan, xolos. Kasallikdan vafot etgan homilador, tuqqan va yosh bolali ayollar soni har 1000 ta bola hisobiga 48,6 nafarga etgan. Bu ko'rsatkich

Gruziyada-22,5, Litvada-22,4, Belorussiyada-17,0 nafarni tashkil etgan. Respublikada sog'liqni saqlash sohasi xizmati aholi ehtiyojlari talablariga javob bermay qolgan.

1946 - 85 yillarda respublikada turar joy fondi 4 baravardan ziyod ko'paydi. 1966 yilgi Toshkent zilzilasidan keyin yirik mikrorayonlar barpo etildi. Biroq, hasharga kelganlarning ko'pchiligi qurgan binolariga o'zlari joylashib oldilar, uy-joy masalasi esa dolzarbligicha qolaverdi.

Sovetlar tuzumi va kommunistik partiyaning 70 yildan oshiq davom etgan ma'muriy buyruqbozlik siyosati, respublikalar xom ashyo resurslaridan o'zboshimchalik bilan foydalanish tabbiy muvozanatni izdan chiqarib, ekologik muammolarni vujudga keltirdi. Ayniqsa, Orol va Orolbo'yi muammosi kuchaydi. Birgina O'zbekistonda ekin maydonlarinig 60 %, Turkmanistonda ekin maydonlarining 80 % sho'rlandi. Paxta hosildorli-gini oshirish maqsadida ishlatilgan gerbitsid va pestitsidlar aholi salomatligiga katta zarar keltirdi. Shuni ham ta'kidlash kerakki, 80-yillarda o'zbek paxtasining xarid narxi jahon narxlaridan 5 baravar kamroq qilib belgilangan edi. Buning hisobiga har yili ittifoq byudjetidan 1,5-2 mlrd. so'm dotatsiya sifatida qaytarilgan. Oqibatda, O'zbekiston ishlab chiqarish rentabelligi ta'minlanmagan "boqimanda" respublikalar qatoriga qo'shib qo'yildi.

Vaholanki, XX asrning 80-yillarida O'zbekistonda etishtirilgan paxta xom ashyosining 93-94 foizi, oltinning barchasi Markazga olib ketilgan. Respublika aholisining iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji asosan sobiq Ittifoqning boshqa mintaqalaridan keltirilgan don, go'sht, qand, sut va boshqa mahsulotlar hisobiga qondirilgan. Paxta yakkahokimligi tufayli uylarning ostonasigacha chigit ekilgan. Buning natijasida xalqimizning qadimdan shakllanib kelgan dehqonchilik va chorvachilik madaniyati izdan chiqdi. I. Karimov respublika iqtisodiyotiga biryoqlama munosabatning achinarli oqibatlari haqida to'xtalib: «Tang qoladigan eri shundaki, qishloqlardagi har besh xonadonning birida birorta ham chorva moli, 37 foizida sigir, yarmisida qo'y boqilmayapti. Andijon, Namangan va Toshkent viloyatlarida esa ahvol yana ham mushkul»¹, - deb ta'kidlab o'tgan edi.

Respublikada iqtisodiyotning xom ashyo ishlab chiqarishga yo'naltirilganligi, ish kuchi qiymati va xarid narxlarining pastligi aholining moddiy ahvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, paxtakorlar mehnati etarli qadrlanmadi. Masalan, O'zbekistonda kolxozchi bir ish kuniga 80-yillarda 5 so'm 88 tiyin olgani holda, RSFSR kolxozchisi 8 so'm 03 tiyin, Estoniya kolxozchisi 14 so'm 04 tiyin olgan. Respublikadagi og'ir ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat aholining o'z haq-huquqlari va ijtimoiy adolat uchun kurashning zarur pallasiga chiqarib qo'ydi. Xalqimizda milliy o'zligini anglash hissiyoti kuchayib bordi.

Sovetlar davrida xo'jalikni boshqarish tizimiga o'rnashib olgan bunday illatlar O'zbekiston iqtisodiyotiga yanada ko'proq zarar keltirdi. Yo'l qo'yilgan jiddiy xatolar, xo'jalikda madaniy ish yuritish prinsiplarining qo'pol buzilishi natijasida iqtisodiyotning muhim yo'nalishlari barbod bo'la boshladi. Oqibatda, 80-yillarning o'rtalarida asosiy ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatgichlar bo'yicha respublika ittifoqda

¹ «Совет Ўзбекистони» газетаси, 1989 йил 23 август.

oxirgi o'rinlarga tushib qoldi. "O'zbekiston aholisi,-deb ta'kidlagan edi O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov,-o'rta hisobda go'sht mahsulotlarini, sut va sut mahsulotlarini, tuxumni, umuman mamlakat aholisiga nisbatan ikki barobar kam iste'mol qilmoqda. Oyiga o'rta hisobda 75 so'mdan kamroq yalpi daromad oladigan aholining ulushi mamlakatda 12 foizdan ko'proq bo'lsa, bizning respublikamizda 45 foizga boradi. Bir millionga yaqin kishi ijtimoiy ishlab chiqarishda o'zining qo'lidan keladigan ishni topa olmayapti"². Respublikaning infrastruktura tarmoqlari: sog'liqni saqlash, xalq ta'limi, maktabgacha bolalar muassasalari ham qiyin ahvolga tushib qolgan edi.

Respublikaning yangi rahbariyati tomonidan O'zbekistonning siyosiy suverenitetini ta'minlashga qaratilgan qat'iy pozitsiya qo'yildi. Jumladan, I.Karimov KPSS MKning 1989 yil 20 sentyabrida Moskvada bo'lib o'tgan Plenumida: "Biz ittifoq va respublikalarning vazifalarini, burchlarini va o'zaro majburiyatlarini aniq-ravshan belgilab qo'yish, respublikalar mustaqilligini har jihatdan mustahkamlash tarafdorimiz",-deb ta'kidladi.

Mamlakatda siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va milliy munosabatlarning tobora izdan chiqayotganligidan xavotirga tushgan SSSR rahbariyati millatlar o'rtasidagi munosabatlarda ziddiyatlarni kuchaytirish, qo'shni xalqlarni bir-biriga qarshi qo'yish orqali milliy ziddiyatlarni kuchaytirib, ularning e'tiborini tobora kuchayib borayotgan muammolardan chetga burishga harakat qildi. Keyingi voqealar tahlili millatlararo munosabatlar to'g'ri hal etilmaganligi oqibatida sodir bo'lgan fojialarning tub ildizlari ancha chuqur va murakkab ekanligini ko'rsatdi. Natijada, 1989 yil may-iyun oylarida Farg'ona, Toshkent viloyatlarida va Andijon shahrida millatlararo mojarolar ro'y berib, ular siyosiy vaziyatni keskinlashtirdi. Bunday ommaviy chiqishlarga "moslashmagan" rahbariyat muammolarni kelishuv yo'li bilan hal qilishga ojizlik qilib, noroziliklarni bartaraf etish uchun namoyishlarga qarshi harbiy kuchlarni tashladi. 1989 yil 8 iyunda Qo'qonda tinch namoyishchilar shunday harbiy qism askarlari tomonidan o'qqa tutildi, natijada 50 dan ziyod kishi halok bo'ldi, 200 dan ortiq kishi yarador qilindi. Umuman 3-12 iyun kunlari Farg'ona viloyatida bo'lgan millatlararo to'qnashuvlar harbiylar tomonidan o'qqa tutilishi oqibatida 103 kishi halok bo'lgan, 1009 kishi jarohatlangan va 650 xonadonga o't qo'yilib, vayron qilindi. Farg'onada sodir bo'lgan mudhish voqealar Sumgait, Boku, Tog'li Qorabog', O'sh-O'zgan va boshqa mintaqalarda iyushtirilgan ig'vogarliklar bilan bir qatorda turar edi.

1990 yil iyun oyida O'sh va O'zganda qirg'izlar bilan o'zbeklar kelib chiqqan etnik mojarolar oqibatida yuzlab gunohsiz o'zbeklar halok bo'ldi. Shunday murakkab vaziyatda Markaz ziddiyatlarni oldini olish o'rniga mojarolardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishga harakat qildi. Asrlar mobaynidan qon-qardoshlik udumlari asosida yashab kelgan ikki xalq bir-biriga qarshi qo'yildi. O'zbekiston hukumati va xalqi sabr-toqat bilan bag'rikenglik, mintaqada tinchlikni saqlab qolishga muvaffaq bo'ldi. Respublikada millatlararo munosabatlar va milliy masalaga oid maxsus dastur ishlab chiqildi.

² Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: "Ўзбекистон", 2011. 5-6-бетлар.

1989 yil 23-iyunda I.A.Karimov O'zbekiston KP Markaziy Komitetining 1-kotibi etib saylandi. 25-iyun kunda I.Karimov janjal-to'polonlar keskin tus olgan Farg'onaga borib, u erda sodir bo'lgan fojia sabablarini aniqladi va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqdi. "O'zbek xalqining vijdoni pok,-deb ta'kidlaydi I.Karimov,- Farg'ona voqealari o'zbek xalqining irodasi bilan sodir bo'lmadi. Bu voqealarga tuturuqsiz va g'arazli maqsadlarni ko'zlab, kim qanday bo'yoq bermasin, tarix albatta, o'zining adolatli hukmini chiqaradi. Baynalmilalchilik, mehmondo'stlik, yaxshilik, qalb sahovati hamisha o'zbek xalqiga xos fazilat bo'lib keldi. Xalqimiz hech qachon boshqa xalqlarga nisbatan dushmanlik kayfiyatida bo'lmagan. Bu qadimiy va hozirgi tariximizdan olingan ko'pgina misollar bilan isbot qilingan"¹. Mamlakatda sodir bo'layotgan siyosiy beqarorlikni bartaraf qilishdan o'ziga bo'lgan Markaz qaltis vaziyatni to'g'ri baholay olmasdan unga millatchilik yorlig'ini yopishtirishga urindi

Shunday vaziyatda respublika rahbariyati aholining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini yaxshilash, ularning ertangi kunga bo'lgan ishonchini oshirishga alohida e'tibor berdi. Jumladan, 1989 yil 17 avgustda respublika hukumatining kengaytirilgan yig'ilishida aholiga tomorqa va shaxsiy uchastkalar ajratish masalasi ko'rib, unda "Qishloqda yashovchi har bir oilani tomorqa bilan ta'minlash, ularga yakka tartibda uy-joy qurish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratib berish haqida" qaror qabul qilindi. "Ushbu tarixiy hujjatda qishloqda yashovchi har bir kishiga o'rtacha 25 sotixdan er ajratib berish va tomorqaga beriladigan erlarni qariyb 4,5 barobar ko'paytirish ko'zda tutilgan edi. Bu boradagi amaliy ishlar natijasida 1989-1990 yillarda bir yarim milliondan ko'proq oilaga qo'shimcha erlar ajratildi, 700 ming oilaga yangi tomorqa erlari berildi.

Bundan tashqari, yuz minglab gektar sug'oriladigan er texnik ekinlar ekiladigan erlar oborotidan chiqarildi, paxta etishtirish plani 700 ming tonnaga kamaytirildi. Bu-paxta yakkahokimligini bartaraf etish yo'lidagi dastlabki, ammo o'ta muhim amaliy qadam edi¹.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1990 yili O'zbekistonga 454,8 ming tonna un, 183,9 ming tonna kartoshka, 1401 ming tonna sut va shu kabi boshqa mahsulotlarini qo'shni respublikalardan olib kelingan. Buning evaziga O'zbekistondan asosan paxta etkazib berish talab qilingan. Bir tomonlama olib borilgan bunday siyosat mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy xavf tug'dirdi. Shunday murakkab vaziyatda respublika hukumatining asosiy e'tibori mamlakatimiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishga qaratildi.

1989-yilning ikkinchi yarmidan e'tiboran O'zbekistonda Markazdan mustaqil ravishda aholini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, milliy-madaniy hayotini davr talabi darajasiga ko'tarishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqishga kirishildi. Respublikada kuchayib borayotgan demokratik jarayonlar natijasida 1989 yil 21 oktyabrda respublika Oliy Kengashi "O'zbekiston SSRning davlat tili to'g'risida" qonun qabul qilib, siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning barcha

¹ Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. –Т.: "Ўзбекистон", 2011. 9-10-бетлар.

¹ Ўша ерда. 12-13-бетлар.

sohalarida ish yuritish o'zbek tilida olib borilishini qonunlashtirdi. Bu qonunning qabul qilinishi mamlakatimizning mustaqillik sari tashlagan birinchi qadami bo'ldi. Ish yuritish asta-sekin o'zbek tiliga o'tkazila boshlandi. Boshqa xalqlar uchun o'zbek tilini o'rganishni yaxshilash uchun zarur choralar belgilandi. Bu qonunning qabul qilinishi o'zbek xalqining milliy o'zligini anglashi va respublikada millatlararo hamjihatlikning saqlab qolishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ayni paytda shu yo'l bilan Markazdan kelgan layoqatsiz kadrlar to'dasini tugatish sari zarur qadam qo'yildi.

O'zbekistonda saylov tizimini demokratiyalashtirish maqsadida 1990 yil fevral-aprel oylarida respublika Oliy Sovetiga ko'p mandatli okruglar bo'yicha eksperiment sifatida saylov o'tkazildi. Biroq, yakkapartiyalilik sharoitidagi saylovlar Oliy Sovet tarkibini demokratiyalashtirishga yo'l bermadi. Aksincha, davlat hokimiyati oliy organlari asosan kompartiya a'zolaridan iborat bo'lib qoldi.

Bu vaqtga kelib, Markaz bilan ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi munosabatlar keskinlashib, Markazning mamlakatda siyosiy, iqtisodiy va xo'jalik hayotini boshqarishi yanada qiyinlashdi. Ayni paytda, Sharqiy Evropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar boshqaruv tizimi inqirozga uchrab, xalqlar o'rtasida demokratik boshqaruvga intilish kuchaydi. SSSR tarkibidagi xalqlar ham endilikda eskicha buyruqbozlik tizimiga bo'ysunib yashashni istamay qoldilar. SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va hukumati ham inqirozni bartaraf etish chora-tadbirlarini topishga ojizlik qildi. Natijada, ishlab chiqarish jarayonlari izdan chiqib, jamiyatni boshqarish tartibi va mehnat intizomi buzildi. Hayotning o'zi endi respublikalar suvereniteti va inson huquqlari poymol qilingan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi umrini yashab bo'lganligini ko'rsatdi.

O'zbekistonda milliy, huquqiy va demokratik davlatga zamin yaratilgan muhim qadam O'zSSR Oliy Sovetining 12-chaqiriq birinchi sessiyasida (1990 yil 24-mart) ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvini ta'sis etish to'g'risida qarori bo'ldi. Deputatlar I. Karimovni O'zSSRning Birinchi Prezidenti qilib sayladilar. 1990 yili 20-iyunda O'zSSR Oliy Sovetining 12-chaqiriq 2-sessiyasida "Mustaqillik deklaratsiyasi" qabul qilindi. Bu deklaratsiya O'zbekistonning mustaqillik uchun tashlagan muhim va zurur qadami bo'ldi. "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning kirish qismida "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat maqsadi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi",-deb yozib qo'yildi. Mazkur hujjat O'zSSR qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustuvorligini ta'minladi. Ayni paytda, O'zbekiston Konstitutsiyasini tayyorlash maqsadida 64 kishidan iborat komissiya tuzildi. Komissiya oldiga bir qator vazifalar qo'yildi. 1991 yil 15 fevralida O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" qabul qilgan maxsus qarorida shunday deyilgan:

“Mustaqillik to‘g‘risidagi Deklaratsiyaga amal qilib, O‘zbekiston SSR Oliy Kengashi qaror qiladi:

1. O‘n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengash II sessiyasida tuzilgan O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning yangi loyihasini tayyorlovchi komissiyasiga O‘zbekiston SSRning Yangi Davlat bayrog‘i, Gerbi va Madhiyasiga doir takliflar hamda ular to‘g‘risida Nizomlar tayyorlash topshirilsin. Komissiya respublika jamoatchiligi va deputatlarining fikrlariga tayanib ish ko‘rsin.

2. Bu borada takliflar matbuotda e‘lon qilinib, umumxalq muhokamasi uyushtirilsin”.

Ko‘p millatli O‘zbekistonda fuqarolar o‘rtasida tinchlik va millatlar o‘rtasida totuvlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor berildi. Jumladan, qoraqalpoq xalqi ham o‘zbek xalqi yordamida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohada katta yutuqlarga erishdi. 1990 yil 14-dekabrda QQASSR Oliy Soveti 4-sessiyasida “O‘zbekiston SSR tarkibida Qoraqalpog‘iston ASSR suvereniteti to‘g‘risidagi Deklaratsiya” qabul qilindi.

1990 yili O‘zbekistonning asta-sekin bozor iqtisodiyotiga o‘tishi jarayonida aholining kam ta‘minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish mezonlarini belgilash chora-tadbirlarini ko‘zda tutgan hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish, shaxsiy tomorqalar uchun er uchastkalari ajratish, aholi turar-joylarini gazlashtirishga oid farmonlar xalqimizning ijtimoiy ahvolini ma‘lum darajada engillashtirishga qaratilgan edi. Shunday vaziyatda, mamlakatimiz xalq xo‘jaligini bozor iqtisodiyotiga o‘tkazishning o‘ziga xos yo‘lini belgilab olishga kirishildi. Shu asosda, “O‘zbekiston xalq xo‘jaligini sog‘lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy prinsiplari” ishlab chiqilib, u 1990 yil 17 oktyabrda umumxalq muhokama-siga qo‘yildi. Ayni vaqtda, Markazning respublikada iloji boricha o‘z ta‘sirini saqlab qolishga bo‘lgan urinishi va tazyiqi ostida 1991 yil 17 martda Ittifoqni saqlab qolish haqida referendum o‘tkazildi. Referendumda “O‘zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli respublika bo‘lib qolishiga rozimisiz?” degan savol kiritilgan ikkinchi byulleten kiritildi.

Bu vaqtga kelib O‘zbekistonda o‘zining iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid masalalar mustaqil tarzda hal qilina boshladi. Masalan, 1991 yil 22 iyulida O‘zSSR Oliy Kengashi Prezidiumi O‘zSSR hududida joylashgan bo‘lsada, Markazga bo‘ysunuvchi davlat korxonalari va tashkilotlarini “O‘zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o‘tkazish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qarorda “O‘zbekiston SSRning “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ga amal qilib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish va ularning xo‘jalik mustaqilligini ta‘minlash maqsadida respublika hududida joylashgan ittifoqqa bo‘ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O‘zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o‘tadi”, -deb qayd qilindi.

Ayni paytda, O‘zbekiston rahbariyati ham markazdan berilayotgan va respublika manfaatlariga zid ko‘rsatmalarni bajarishdan voz kechdi. 20-avgustda

respublika rahbariyatining bo'lib o'tgan qo'shma majlisida O'zbekistonning mustaqillikka erishish yo'li o'zgarasligi haqida Bayonot qabul qilindi.

Mamlakatda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy tanglik holati kuchaygan bir vaziyatda KPSS MK Bosh kotibi M.S.Gorbachyov «qayta qurish» siyosatini ilgari surdi. Bu siyosat vaqt e'tibori bilan 1953-56, 1964-65, 1982-83 yillardagi islohotlardan jiddiy farq qilib, 1985 yildan sovetlar jamiyatida kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni kompleks tarzda yangilashni nazarda tutgan edi. Shu maqsadda boshlangan qayta qurishning birinchi bosqichi (1985-87 yillar)da ilmiy-texnika yutuqlarini ishlab chiqarishga keng tadbiiq etish va jamiyatda inson omilini faollashtirishga asoslanib, iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga erishishni ko'zda tutgan.

Qayta qurishning ikkinchi bosqichi (1987-90 yillar) jamiyatning barcha sohalarini isloh qilishni ko'zda tutgan. Xususan, oshkoralik asosida jamiyatni to'la demokratlashtirishga erishish nazarda tutilgan.

Qayta qurish borasidagi tajribalarning ko'rsatishicha, mamlakat siyosiy rahbariyati birinchi kunlardan oq «qayta qurish» konsepsiyasida qo'yilgan ziddiyatli masalalar (jumladan, qayta qurish va ayni paytda jadallashtirish siyosati) ni hal qila olmadi. Ilmiy jihatdan asoslanma-gan bu konsepsiya jamiyatning ijtimoiy-siyosiy talablariga javob bera olmay tanazzulga uchradi. Unda ittifoqdosh respublikalarning manfaatlari va muammolari chuqur tahlil qilinmagan edi. O'sha davrda sovetlar tuzumining iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlari yuqoriligi ta'kidlanib, tarixiy istiqbol sotsializm tomonida deb qaraldi. Sotsializmga sun'iy ravishda demokratik qiyofa berilib, mustabid tuzumning mavjud illatla-riga «tasodifiy hol», «ularni boshqaruv tizimidan olib tashlashning o'zi kifoya» deb qaraldi. Sovet davlatining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muammolar tobora ko'payib bordi. Ayni paytda, bozor iqtisodiyoti munosabatlari asosida rivojlanib borayotgan dunyoning etakchi mamlakatlari bilan qiyoslanganda, jamiyatning sotsialistik ishlab chiqarish usuli talabga javob bermayotganligi oydinlashdi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi prezidenti I.A.Karimov qayta qurish siyosati davrida ro'y bergan buzilishlarni quyidagicha ta'riflaydi: «Inqiroz sabablari va omillarini to'liq tasavvur etmagan, o'zgartirishlarning aniq-ravshan dasturiga ega bo'lmagan butun iqtisodiy siyosat empirik xarakterda bo'lib, avantyuradan iborat eksperimentlardan, har tomonga og'ishlardan boshqa narsa emas edi. Iqtisodiyotni barqarorlashtirish va bozor munosabatlariga o'tishning turlicha yondoshuvlarga asoslangan dasturlari loyihalarining ko'pchiligi islohotlarning aniq maqsadi yo'qligidan, ularni ro'yobga chiqarish muddatlari-«besh yuz kun» deb belgilab qo'yilishi esa zarur o'zgartirishlarning tub mohiyati va nihoyatda murakkabligi to'la anglab etilmaganligidan dalolat berar edi».

Ziddiyatli «qayta qurish» siyosati oqibatida respublika iqtisodiyotida tanglik holati chuqurlashib, avvalo ishlab chiqarish va mehnat unumdorligi ko'rsatkichlari keskin pasaydi, fondlar hisobidan keladigan foyda kamaydi. Respublika iqtisodiyoti, jumladan, sanoat ishlab chiqarishining barqarorligi muttasil ekstensiv omillar, uyushtirilgan qiyin-qistovlar hisobiga saqlab turildi. Bu

aholining turmush darajasiga ham sezilarli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Masalan, ishchilar va xizmatchilarning ish haqi O'zbekistonda umumittifoq bo'yicha 1975-yildagi 93,7% dan 1987 yilda 81,3% ga tushib qoldi, aholi jon boshiga iste'mol fondi hajmi tegishli ravishda 66% dan 58% ga kamaydi. Natijada davlat tomonidan qilinayotgan o'zgarishlarga munosabati o'zgarib, unga nisbatan ishonchi yo'qola bordi. 1970- yillarda boshlangan turg'unlik holati mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatni murakkablashtirdi. Bularning hammasi ittifoq hukumatini 1988 yilda «turg'unlik»ning haqiqiy sabablarini oydinlashtirishga, yangilanish «konsepsiyasi»ni yanada chuqurroq ishlab chiqishga undadi. “Qayta qurish” natijasida vujudga kelgan oshkoralik tufayli sovet jamiyatidagi haqiqiy ahvolni tahlil qilish va mamlakatda yo'l qo'yilgan xatolarga ochiqchasiga baho berish zaruriyati vujudga keldi. Respublikalarda oshkoralik orqali haqiqatni bilishga intilishining kuchayishi kommunistik mafkura ta'siriga putur etkazdi.

KPSS MK respublikalarning Markazdan chetlashishga qaratilgan harakatlarini to'xtatishga, ular ustidan ilgarigidek o'z hukmronligini saqlab qolishga urindi. Biroq, ittifoqdosh respublikalar xalqlarining ijtimoiy ongi va kayfiyatida sodir bo'layotgan o'zgarishlar ma'muriy-buyruqbozlik muhiti ostida yashashdan ustun keldi. Sovetlar davrida ommaviy axborot vositalari tomonidan hamisha ham xolisona yoritilmagan voqea-hodisalarning mohiyatini xolisona yoritish davr talabiga aylandi. Mamlakatimiz ziyolilari va siyosiy kuchlari ham shu tahlikali kunlarda milliy manfaatlar asosida siyosiy jarayonlarning asl sabablarini ochib tashlash, o'z xalqining g'ururi va qadr-qimmatini himoya qilish kabi keskin muammolarni oshkora muhokamaga qo'ya boshladilar.

Shunday qilib, “Qayta qurish” sovetlar davrida jamiyatning asosini tashkil etgan sotsialistik tuzum ijtimoiy-iqtisodiy hayotni ob'ektiv rivojlantirishga qodir emasligini ko'rsatdi. Ko'pgina mamlakatlarning tajribasi hozirgi davr jamiyati markscha klassik nazariyaga sig'ishmaydigan ijtimoiy prinsiplar elementlarining chatishib ketishidan iborat bo'lishi mumkinligini namoyon qildi. Sobiq ittifoq tarkibiga kirgan xalqlar ongida ro'y berayotgan o'zgarishlar Markazni jiddiy tashvishga sola boshladi. Yillar davomida qilingan mehnatga yarasha haq olmaslik, milliy g'urur, iftixor tuyg'usining poymol qilinishi, boshqa xalqlar qatori o'zbek xalqi qalbida ham og'ir asoratlar qoldirdi. Ayniqsa, Osiyoning bir qator mamlakatlari (Janubiy Koreya, Indoneziya, Singapur, Tayvan, Gonkong va boshqalar)da sodir bo'layotgan siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar sovetlar tuzumiga ishonchsizlikni kuchaytira boshladi. Bundan tashqari, Afg'oniston xalqining o'z erkini saqlab qolin uchun boshlagan urush harakatlari, Eronda xalq revolyusiyasining g'alabasi O'rta Osiyo xalqlari ma'naviyatiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Ularning qalblarida mustaqillikka intilish kayfiyatlari tobora kuchayib bordi.

Mustahkamlash uchun savollar.

1. Vatan tarixini o'rganishning zaruriyati va ahamiyati nimada?
2. Vatan tarixini o'rganishda tarixiylik metodologiyasining ahamiyati nimada?
3. 80-yillarning oxirlarida milliy ziddiyatlar nima sababdan kuchaydi?
4. “Qayta qurish” va “oshkoralik” jamiyatga qanday qanday saboqlar berdi?

2-mavzu: Mustaqil O'zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati. O'zbekistonning o'ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo'li.

Reja:

1. O'zbekistonning mustaqilligi arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar.
2. O'zbekiston mustaqilligining e'lon qilinishi va uning tarixiy ahamiyati.
3. O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiya asoslari.

1990-yil o'rtalarida Markaz bilan ittifoqdosh respublikalar o'rtasidagi munosabatlar yanada keskinlashdi. Markazning respublikalar siyosiy, iqtisodiy va xo'jalik hayotini nazorat qilishi va boshqarishi yanada qiyinlashdi. Bu davrda Sharqiy Evropa mamlakatlarida qariyb yarim asr hukm surgan totalitar boshqaruv tizimi inqirozga uchrab, xalqlar o'rtasida demokratik boshqaruvga intilish kuchaydi. SSSR tarkibidagi xalqlar ham endilikda eskicha buyruqbozlik tizimiga bo'ysunib yashashga qarshi bo'ldilar. SSSR Oliy Soveti ham, SSSR Prezidenti va hukumati ham inqirozni bartaraf etish chora-tadbirlarini topishga ojizlik qildilar. Natijada, ishlab chiqarish jarayonlari izdan chiqib, jamiyatni boshqarish tartibi va mehnat intizomi buzildi. Hayotning o'zi endi respublikalar suvereniteti va inson huquqlari poymol qilingan ma'muriy-buyruqbozlik tizimi umrini yashab bo'lganligini ko'rsatdi.

O'zbekistonda milliy, huquqiy va demokratik davlatga zamin yaratilgan muhim qadam O'zSSR Oliy Sovetining 12-chaqiriq birinchi sessiyasida (1990 yil 24-mart) ittifoqdosh respublikalar orasida birinchi bo'lib O'zbekistonda prezidentlik boshqaruvini ta'sis etish to'g'risida qarori bo'ldi. Deputatlar I.Karimovni O'zSSRning Birinchi Prezidenti qilib sayladilar. 1990 yili 20-iyunda O'zSSR Oliy Sovetining 12-chaqiriq 2-sessiyasida "Mustaqillik deklaratsiyasi" qabul qilindi. Bu deklaratsiya O'zbekistonning mustaqillik uchun tashlagan muhim va zurur qadami bo'ldi. "Mustaqillik deklaratsiyasi"ning kirish qismida "O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Oliy Kengashi o'zbek xalqining davlat qurilishidagi tarixiy tajribasi va tarkib topgan boy an'analari, har bir millatning o'z taqdirini o'zi belgilash huquqini ta'minlashdan iborat maqsadi, O'zbekistonning kelajagi uchun tarixiy mas'uliyatni chuqur his etgan holda xalqaro huquq qoidalariga va demokratiya prinsiplariga asoslanib, O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qiladi",-deb yozib qo'yildi. Mazkur hujjat O'zSSR qonunlarining Ittifoq qonunlaridan ustuvorligini ta'minladi. Ayni paytda, O'zbekiston Konstitutsiyasini tayyorlash maqsadida 64 kishidan iborat komissiya tuzildi. Komissiya oldiga bir qator vazifalar qo'yildi. 1991 yil 15 fevralida O'zbekiston Oliy Kengashi "O'zbekistonning davlat ramzlari to'g'risida" qabul qilgan maxsus qarorida shunday deyilgan:

"Mustaqillik to'g'risidagi Deklaratsiyaga amal qilib, O'zbekiston SSR Oliy Kengashi qaror qiladi:

1. O'n ikkinchi chaqiriq Oliy Kengash II sessiyasida tuzilgan O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ning yangi loyihasini tayyorlovchi

komissiyasiga O‘zbekiston SSRning Yangi Davlat bayrog‘i, Gerbi va Madhiyasiga doir takliflar hamda ular to‘g‘risida Nizomlar tayyorlash topshirilsin. Komissiya respublika jamoatchiligi va deputatlarining fikrlariga tayanib ish ko‘rsin.

2. Bu borada takliflar matbuotda e‘lon qilinib, umumxalq muhokamasi uyushtirilsin”.

Ko‘p millatli O‘zbekistonda fuqarolar o‘rtasida tinchlik va millatlar o‘rtasida totuvlikni ta‘minlashga alohida e‘tibor berildi. Jumladan, qoraqalpoq xalqi ham o‘zbek xalqi yordamida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy sohada katta yutuqlarga erishdi. 1990 yil 14-dekabrda QQASSR Oliy Soveti 4-sessiyasida “O‘zbekiston SSR tarkibida Qoraqalpog‘iston ASSR suvereniteti to‘g‘risidagi Deklaratsiya” qabul qilindi.

1990 yili O‘zbekistonning asta-sekin bozor iqtisodiyotiga o‘tishi jarayonida aholining kam ta‘minlangan qismini ijtimoiy himoya qilish mezonlarini belgilash chora-tadbirlarini ko‘zda tutgan hujjatlar ishlab chiqildi. Jumladan, fuqarolarga yakka tartibda uy-joy qurish, shaxsiy tomorqalar uchun er uchastkalari ajratish, aholi turar-joylarini gazlashtirishga oid farmonlar xalqimizning ijtimoiy ahvolini ma‘lum darajada engillashtirishga qaratilgan edi. Shunday vaziyatda, mamlakatimiz xalq xo‘jaligini bozor iqtisodiyotiga o‘tkazishning o‘ziga xos yo‘lini belgilab olishga kirishildi. Shu asosda, “O‘zbekiston xalq xo‘jaligini sog‘lomlashtirish va bozor iqtisodiyotiga o‘tishning asosiy prinsiplari” ishlab chiqilib, u 1990 yil 17 oktyabrda umumxalq muhokama-siga qo‘yildi. Ayni vaqtda, Markazning respublikada iloji boricha o‘z ta‘sirini saqlab qolishga bo‘lgan urinishi va tazyiqi ostida 1991 yil 17 martda Ittifoqni saqlab qolish haqida referendum o‘tkazildi. Referendumda “O‘zbekiston yangilanayotgan Ittifoq (Federatsiya) tarkibida mustaqil, teng huquqli respublika bo‘lib qolishiga rozimisiz?” degan savol kiritilgan ikkinchi byulleten kiritildi.

Bu vaqtga kelib O‘zbekistonda o‘zining iqtisodiy va siyosiy hayotiga oid masalalar mustaqil tarzda hal qilina boshladi. Masalan, 1991 yil 22 iyulida O‘zSSR Oliy Kengashi Prezidiumi O‘zSSR hududida joylashgan bo‘lsada, Markazga bo‘ysunuvchi davlat korxonalari va tashkilotlarini “O‘zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o‘tkazish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Bu qarorda “O‘zbekiston SSRning “Mustaqillik Deklaratsiyasi”ga amal qilib, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida mehnat jamoalari manfaatlarini himoya qilish va ularning xo‘jalik mustaqilligini ta‘minlash maqsadida respublika hududida joylashgan ittifoqqa bo‘ysunuvchi davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlari O‘zbekiston SSRning huquqiy tobeligiga o‘tadi”, -deb qayd qilindi.

Ayni paytda, O‘zbekiston rahbariyati ham markazdan berilayotgan va respublika manfaatlariga zid ko‘rsatmalarni bajarishdan voz kechdi. 20-avgustda respublika rahbariyatining bo‘lib o‘tgan qo‘shma majlisida O‘zbekistonning mustaqillikka erishish yo‘li o‘zgarmasligi haqida Bayonot qabul qilindi.

1991 yil 19-21 avgust kunlari Moskvada yuz bergan voqealar, SSSR Prezidenti M.Gorbachevni hokimiyatdan chetlashtirish maqsadida G.Yanaev boshchiligida Favqulodda holat Davlat Komiteti (GKCHP) tuzilishi vaziyatni yanada

chigallashtirdi. Biroq, RSFSR Prezidenti B.Elsin boshliq demokratik kuchlar tomonidan GKCHPni bartaraf etilishi SSSRning umri tugab qolganligini ko'rsatdi.

O'zbekiston Oliy Kengashining 1991 yil 31 avgustda bo'lib o'tgan navbatdan tashqari 6-sessiyasida "O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida" Qonun qabul qilindi. 17 moddadan iborat bu qonun suveren O'zbekiston Respublikasining quyidagi asosiy belgilarini ko'rsatib berdi:

1-moddada O'R o'z tarkibidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi bilan birga mustaqil demokratik davlat deb e'lon qilinishi ko'rsatib o'tildi.

2-moddada O'Rning xalqi suveren ekanligi va u respublika davlat hokimiyatining birdan-bir sohibi ekanligi ta'kidlandi.

3-moddada O'R to'la davlat hokimiyatiga ega, o'zining milliy davlat va ma'muriy-hududiy tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv idoralari tizimini mustaqil belgilashi qonunlashtirildi.

5-moddada O'Rda Konstitutsiya, uning qonunlari ustun ekanligi va davlat idoralarining tizimi, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijroiya va sud hokimiyatiga ajratilganligi ko'rsatib o'tildi.

8, 12, 14-moddalarda O'zbekiston mustaqilligining iqtisodiy asoslari belgilab berildi.

13, 14-moddalarda O'zbekistonning tashqi siyosiy aloqalarda mustaqilligi sharhlangan.

15-moddada O'R hududida inson huquqlari umumiy deklaratsiyasiga muvofiq holda respublika fuqaroligi joriy etilishi, unda fuqarolar millati, elati, ijtimoiy kelib chiqishi, qaysi dinga mansubligidan qat'iy nazar, bir xil huquqlarga egaligi va ular respublika Konstitutsiyasi qonunlari himoyasida bo'lishlari ta'kidlandi.

16-moddada davlat ramzi bo'lgan bayroq, gerb va madhiya hamda davlat tili ko'rsatilgan.

17-moddada O'zbekiston Qoraqalpog'istonning hududiy yaxlitligini tan olishi bayon etilgan. Bu Qonunning qabul qilinishi siyosiy, huquqiy, iqtisodiy va ma'naviy-axloqiy munosabatlarni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Sessiyada O'zbekiston Respublikasining Davlat mustaqilligi to'g'risidagi qabul qilingan Qonun asosida "O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida Oliy Kengash Bayonoti" qabul qilindi. Unda ozod va suveren davlat - O'zbekiston Respublikasi tashkil etilganligi e'lon qilindi. O'zSSRning nomi O'zbekiston Respublikasi deb o'zgartirildi. 1-sentyabr O'zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni – umumxalq bayrami deb e'lon qilindi.

O'zbekistonning davlat mustaqilligiga erishishi tarixiy ahamiyatga molik muhim voqea bo'ldi. Respublika xalqi va rahbariyatining say-harakatlari natijasida davlat mustaqilligi tinch yo'l bilan demokratik asosda (parlament roziligi bilan) qo'lga kiritildi. Mamlakatda to's-to'polonlar, urush-janjallar va qon to'kishlarsiz, tinch yo'l bilan mustaqillikning qo'lga kiritilishi xalqimizning asriy orzulari bilan bog'liq ob'ektiv va qonuniy jarayon edi.

SSSR tarqalib ketgach, 1991 yil 6-dekabr kuni M.S.Gorbachev SSSR prezidenti lavozimidan iste'foga chiqishga majbur bo'ldi. 8 dekabrda Belaya Veja pushchasi (Belorussiya)da Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari (B.Elsin,

L.Kravchuk, S.Shushkevich) o'zaro bitim imzolashib, SSSR tugatilganligini va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) tuzilganligini e'lon qilishdi. 1991 yil 25 dekabrda SSSR xalqaro huquq sub'ekti sifatida tugatildi.

O'zbekiston mustaqilligiga erishgandan keyin o'zining Davlat ramzlarini joriy qilish to'g'risida amaliy choralarni ko'rdi. Oliy Kengashining VIII sessiyasi (1991 yil 18 noyabr)da Davlat bayrog'i to'g'risida, Oliy Kengashning X sessiyasi (1992 yil 2 iyul)da Davlat gerbi to'g'risida, Oliy Kengashining XI sessiyasi (1992 yil 10 dekabr)da Davlat madhiyasi to'g'risidagi qonunlar qabul qilindi.

1990 yili 20-iyunda O'zSSR Oliy Sovetining 12-chaqiriq 2-sessiyasida qabul qilingan "Mustaqillik deklaratsiyasi"da O'R yangi Konstitutsiyasini yaratish bo'yicha 64 kishidan iborat tuzilgan edi. Komissiya AQSh, Fransiya, Kanada, Germaniya, Shvetsiya, Yaponiya, Italiya, Ispaniya, Gretsiya, Turkiya, Eron, Hindiston, Pokiston, Misr, Vengriya, Bolgariya, Litva davlatlarining konstitutsiyalarini o'rganib chiqdi va qiyosiy tahlil qildi. MDH davlatlarining Asosiy qonunlari va konstitutsiya loyihalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, buyuk ajdodlarimizning davlatchilikni mustahkamlash yo'lidagi g'oya va fikrlari Asosiy Qonunda o'z ifodasini topdi. Jumladan, Amir Temurning "tuzuklari"da davlatni idora qilishga oid "kuch adolatda", "rostdurusti" kabi mulohazalariga ham e'tibor qaratilgan. Xususan, Amir Temur umrining so'nggi yillarida qilgan vasiyatlari orasida quyidagi fikrlar ham bor: "Millatning dardlariga darmon bo'lmoq vazifangizdir. Zaiflarni ko'ring, yo'qsullarni boylar zulmiga tashlamang, adolat va ozodlik dasturingiz, rahbaringiz o'lsun...". Konstitutsiyamizda ham adolat va ozodlik g'oyasi asosiy mezon qilib olindi.

Mazkur tajribalar asosida 1991 yil oktyabr oyidan 1992 yil sentyabr oyigacha Konstitutsiyaning 3-loyihasi yaratildi va u 1992 yil 26 sentyabrda matbuotda umumxalq muhokamasiga qo'yildi. Konstitutsiya Oliy Kengashning XI sessiyasi (1992 yil 8 dekabr)da qabul qilindi. U 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo'ldi.

Davlat hokimiyati va boshqaruvni yanada demokratlashtirish maqsadida ikki palatali parlament joriy etildi, Prezidentga tegishli ayrim vakolatlar Senat va Bosh vazir zimmasiga o'tkazildi. 2007 yilda O'R Konstitutsiyasidan mamlakat prezidenti bir vaqtning o'zida ijro etuvchi hokimiyat boshlig'i ekanligini belgilovchi norma bekor qilindi.

O'zbekiston Respublikasining 2011 yil 18 aprelda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi. 2011 yil 12 dekabrda qabul qilingan Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 90-moddasining ikkinchi qismiga tuzatish kiritildi. Unda O'R Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylash huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanishi ko'rsatib o'tilgan. 98-moddada O'R Bosh vaziri va O'R Oliy majlisining Qonunchilik palatasi o'rtasida ziddiyatlar doimiy tus olgan holda deputatlar umumiy sonining kamida uchdan bir qismi tomonidan O'R Prezidenti nomiga rasman kiritilgan taklif bo'yicha O'R

Oliy Majlisi palatalarining qo'shma majlisi muhokamasida Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi masala kiritilgan.

Parlament davlatning oliy vakillik organi hisoblanadi va qonun chiqaruvchi hokimiyatni amalga oshiradi. Parlament fransuzcha "parle" ("gapiraman") so'zidan olingan bo'lib, rasmiy so'zlashish joyi ma'nosini anglatadi. Parlament qonun bo'yicha belgilangan sondagi deputatlardan iborat bo'lib, hududiy saylov okruglari bo'yicha ko'ppartiyaviylik asosida belgilangan yoshga to'lgan fuqarolardan saylanadi. Parlamentarizm tajribasi shuni ko'rsatadiki, parlament bir palatali va ikki palatali bo'lishi mumkin.

1990-1994 yillarda O'zbekiston parlamenti Oliy Kengash nomi bilan atalib, bir palatali, 150 deputatdan iborat edi. 1995-2004 yillarda parlament Oliy Majlis nomi bilan atalib, bir palatali va uning 250 deputati mavjud edi. 2005 yil 27 yanvarda O'R Oliy Majlisi ikki palatali parlament qilib shakllantirildi. Uning quyi Qonunchilik palatasi 120 deputat, Senat (yuqori palatasi) esa 100 senatordan tashkil topib, jami parlamentda 220 ta a'zo faoliyat yuritdi.

O'zbekistonning eng yangi tarixida mamlakatning aniq va puxta rivojlanish strategiyasi mustaqillikka erishilganidan so'ng ishlab chiqildi va izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, istiqloлга erishilganidan so'ng avvalgi tuzum davrida shakllangan ziddiyatlardan tashqari, ko'plab yangi, o'tish davri bilan bog'liq muammolar ham yuzaga qalqib chiqdi. Bu, albatta, ijtimoiy-iqtisodiy sohada qator dolzarb muammolarni hal qilish masalasini kun tartibiga qo'ydi. Bozor munosabatlariga mos infratuzilmani shakllantirish, iqtisodiyotda chuqur tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishni talab qilar edi.

Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan erkin bozormunosabatlariga asoslangan modeliga o'tish jarayonini ehtiyotkorlik va sekin-astalik bilan amalga oshirish kerak edi.

Ushbu modelning asosiy tamoyillari, amalga oshirish yo'llari, bosqichlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi va u ilmiy asoslangan mashhur besh tamoyilda o'z aksini topdi. Bu tamoyillar umumlashgan holda 1993 yilda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston: bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" asarida e'lon qilindi.

Birinchi tamoyil – iqtisodiyotning siyosatga nisbatan ustuvorligini ta'minlash. Bu qoida iqtisodiy faoliyat ijtimoiy hayotning barcha sohaları uchun poydevor vazifasini o'tashini, ya'ni O'zbekistonda iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo'lishini anglatadi. Tamoyilda iqtisodiyotning o'ziga xos ob'ektiv qonunlari mavjudligi, ularni e'tiborga olmasdan ish yuritish mumkin emasligi aks etgan. Iqtisodiy qonunlarning ob'ektivligini tan olib, xo'jalik faoliyatini ular talabiga mos holda yuritish – o'tish davri uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Iqtisodiyot o'z qonunlariga ega bo'lgani sababli uni siyosiy kurashlar, turli mafkuralar qurboniga aylantirish mumkin emas. Iqtisodiyot mafkuraviy tazyiqlarsiz o'ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi lozim. Biroq, bu iqtisodiyotga siyosat ta'siridan tamomila holi deb qarashni bildirmaydi.

O'zbekistondagi taraqqiyot zaruratidan kelib chiqqan siyosat iqtisodiyotga faol ta'sir qilishi lozim bo'ladi.

Ikkinchi tamoyil – davlat bosh islohotchi bo'lishi lozim. Davlat islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berishi, ularni amalga oshirish yo'lini ishlab chiqishi va unga izchillik bilan rioya etishi, eskilik tarafdorlari qarshiligini bartaraf etishi shart. Bu qoida madaniy bozor iqtisodiyoti konsepsiyasiga tayanadi. O'zbekiston mustabid-rejali, ma'muriy-buyruqbozlik uslubida boshqarilgan iqtisodiyotdan erkin demokratik iqtisodiyot tomon borar ekan, G'arb mamlakatlari asrlar davomida boshidan kechirgan tarixiy jarayonni o'tashi shart emas. G'arbda "beayov va tartibsiz" bozor iqtisodiyoti "yovvoyi kapitalizm" nomini olgan va uzoq davr amalda bo'lgan.

O'zbekistonda esa madaniy bozor iqtisodiyotiga tartibli ravishda o'tish madaniy raqobatni shakllantirishi, sheriklik aloqalari, iqtisodiy barqarorlikning ustun bo'lishi, ommaviy farovonlik kabi belgilarga xos bo'lishi kerakki, ularni davlatning ishtirokisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ikkinchi tamoyil davlat iqtisodiyotga minimal darajada aralashib, uni o'z holiga qo'yishi zarur, degan g'oyalarni inkor etadi va davlatning bu borada faolligini bildiradi. Jahonda davlatning iqtisodiy sohadagi funksiyasiga oid to'plangan tajriba demokratik jamiyatda davlatdan o'zga umummilliy manfaatni ifodalovchi siyosiy institut bo'lmasligini ko'rsatdi.

Uchinchi tamoyil – qonunlarning va ularga rioya qilishning ustuvorligini ta'minlash. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarini hech qanday istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga so'zsiz rioya qilishi lozim. Bu tamoyilga ko'ra, qonunlar siyosiy hokimiyatni ta'minlovchi kuch, ularga jamiyat a'zolarini yuridik qonunlarga bo'ysundiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Qonunlar va qonun osti hujjatlar barchaning faoliyatiga tegishli, ammo ular ham eskiradi, ularni hayot taqozosiga ko'ra yangi qonunlar bilan almashtirish zarur, ya'ni qonunchilikka ijodiy yondoshuv talab qilinadi. Iqtisodiy hayotga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik yuridik qonunlarni ham o'zgartirib borishni talab qiladi. Uchinchi tamoyil talablari yangicha qonunchilikni yaratishni taqozo etadiki, bu birinchidan, O'zbekistonning milliy mustaqilligini, ikkinchidan, bozor islohotlarini amalga oshirish uchun huquqiy baza yaratadi. Uchinchi tamoyil siyosiy tizimning bozor iqtisodiyoti talablariga monand tarzda demokratlashuvini bildiradi. Bu tizim sharoitida inson huquqlari, erki, farovonligini ta'minlash bosh vazifaga aylanadi.

To'rtinchi tamoyil – faol ijtimoiy siyosat o'tkazish. O'zbekistonda bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholining demografik holatini hisobga olgan holda, uni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rish lozim bo'ladi. Bu tamoyil iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarning dialektik aloqadorligiga tayangan holda sotsial siyosat yuritish zarurligini asoslaydi. O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti ijtimoiy sohaning moddiy bazasini mustahkamlashi, ijtimoiy sohaning rivojlanishi esa inson omilini faollashtirib, iqtisodiyotga kuchli ta'sir ko'rsatishi zarur. Ikki sohaning dialektik aloqadorligi ishlab chiqarishning moddiy va insoniy omillari yaxlitligidan kelib chiqadi. O'z-

bekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli bozor iqtisodiyotidagi ijtimoiy yo'naltirilgan, xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan bozor xo'jaligi bo'lishini anglatadi. SHu maqsad yo'lida yuritiladigan ijtimoiy siyosatning kuchliligi ijtimoiy adolatni ta'minlashi, kishilarda boqimandalik kayfiyatini bartaraf etishi va ularda faollikni yuzaga keltirish bilan jamiyatdagi sotsial inoqlikni, sotsial guruhlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni bildiradi. Bu siyosat inson omilini kuchaytirib shu orqali iqtisodiy taraqqiyotga kuchli ta'sir etadi.

Beshinchi tamoyil– bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyil O'zbekiston modelining tamal toshi, uning asosiy mezonidir. Bozor iqtisodiga o'tish – bu mavjud iqtisodiy tuzumni ta'mirlab takomillashtirish emas, balki tamoman yangi bozor tizimini yaratishni bildiradi. Bu yo'l revolyusion emas, balki evolyusion yo'ldir. Bu o'tish davri bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi uzoq davr ekanini bildiradi va odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasi hisoblanadi. Mazkur tamoyilga binoan islohotlar tadrijiy yo'l bilan, ular mustabid-rejali iqtisoddan sekin-asta bozor tizimiga o'tishini, ammo bu talofatsiz, larzalarsiz bo'lishini bildiradi. Shoshma-shosharlik bilan bozor qoidalarini hayotga joriy etib bo'lmaydi. Buning uchun tayyorgarlik va muayyan vaqt talab qilinadi. Bozor munosabatlari shakllanib ulgurmagan sharoitda mavjud aloqalarni buzib yuborish iqtisodni izdan chiqarishi, aholi turmushini keskin pasaytirib, sotsial to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin.

Shu sababdan islohotlar evolyusion tarzda va sharoit hozirlanishiga qarab ketma-ket o'tkazilishi kerak. Sekin-astalik va ehtiyotkorlik qoidasi "falaj terapiyasi" tamoyilini inkor etadi. Bu O'zbekistonning yangi tuzumga, bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan milliy yo'li edi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ishlab chiqqan milliy model o'ziga xos bo'lib, unda bozor iqtisodiyotining ma'lum bir turi yoki muayyan bir davlat yo'li to'g'ridan to'g'ri ko'chirib olingani yo'q. Uni tanlashda mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy sharoiti va salohiyatidan, xalqimizning tarixi, milliy urf-odatlari, diniy e'tiqodidan kelib chiqildi. Bunda ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi mukammal o'rganildi va inobatga olindi.

Dunyo amaliyotida o'tish davri uchun mukammal modelning o'zi yo'q. Negaki, bir davlatning yo'li boshqalar uchun mutlaqo to'g'ri kelmasligi mumkin. Har bir mamlakat o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, geopolitik va tabiiy-geografik sharoitga ega. Shu ma'noda har bir davlat o'z iqtisodiy rivojlanish modeliga ega bo'lishi kerak.

Amalda "O'zbek modeli" atamasi O'zbekistonning Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanayotgan davlatlardan biriga aylanishi bilan bog'liq tarzda paydo bo'ldi. Mutaxassislar tomonidan ushbu atama 1993 yildan qo'llanila boshlandi, chunki bu davrdan boshlab O'zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar o'zida iqtisodiy o'sish bilan hamohang tarzda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mujassamlashtirgan edi. Albatta, har qanday progressiv g'oyaning evolyusiyasi bo'lgani kabi, O'zbekiston rahbari tomonidan taklif etilgan rivojlanish konsepsiyasi, islohotlarning ko'лами yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda takomillashib, chuqurlashib bormoqda.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o'tishning nazariy asoslari, strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, muammolari va ularning hal etilish yo'llari dastlab O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov "O'zbekistonning o'z istiklol va taraqqiyot yo'li", "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat", "O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li", "O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" asarlarida o'z ifodasini topdi. Keyinchalik ushbu konsepsiya "O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda", "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari", "Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir" kabi asar hamda ma'ruzalarida takomillashtirib kelinmoqda.

Tahlillar hozirgi davrgacha o'zbek modeli o'zining rivojlanishida bir necha bosqichlarni bosib o'tganini ko'rsatmoqda.

Birinchi bosqich – 1989-1991 yillarni qamrab oladi, ya'ni bu davrda sobiq Ittifoq tarkibiga kirgan har bir respublika o'zining imkoniyati va umumittifoq taqsimotidan kelib chiqib, mintaqaviy xo'jalik hisobiga o'tmoqda edi. Bu boradagi asosiy muammo majburan joriy etilgan sotsialistik munosabatlar va O'zbekistonning real imkoniyatlari o'rtasidagi ziddiyatlarda o'z ifodasini topdi.

Ikkinchi bosqich – mustaqillikning ilk davri (1991-1993 yillar), ya'ni o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini izlashning eng murakkab va qiyin pallasi hisoblanadi. O'z taraqqiyot yo'lini topish O'zbekiston uchun yana shu bilan murakkab ediki, ko'plab Evropa davlatlaridan farqli o'laroq, xalqimiz o'ziga xos eksperiment ob'ektiga aylangan edi. Nokapitalistik munosabatlar hukmronlik qilgan davr respublika iqtisodiyotining rivojlanishida salbiy oqibatlar keltirib chiqardi, chunki buning natijasida pishib etilmagan, majruh holatdagi ishlab chiqarish munosabatlari shakllandi.

Uchinchi bosqich – 1993-1995 yillar, ya'ni o'zbek modeli amalga oshirilishining dastlabki davri. Ushbu bosqichda bozor infratuzilmasi vujudga keldi, xususan, uning normativ-huquqiy bazasi, xususiy sektor, bank-kredit mexanizmi uchun xizmat ko'rsatish sohasi, soliq siyosati shakllanib bordi. SHuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, uy-joy fondini, ijtimoiy soha tarmoqlaridagi korxonalarni (umumiy ovqatlanish, savdo, pulli xizmat ko'rsatish kabilarda) faol xususiylashtirish jarayoni boshlandi hamda yirik korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirishga tayyorgarlik ko'rildi. Eng muhimi, O'zbekiston xalqaro iqtisodiy munosabatlarning to'laqonli sub'ektiga aylandi.

To'rtinchi bosqich – 1995-1999 yillar. Bu davrda aholi tanlangan yo'lning to'g'riligini, olib borilayotgan islohotlar real yo'nalish va shaklga ega ekanligini anglab etdi. CHunki o'zbek modeli islohot o'tkazish usullari hamda dasturlarni amalga oshirish mexanizmlari talab darajasida ekanligini ko'rsatdi. SHuning uchun bo'lsa kerak, ko'plab chet el ekspertlari O'zbekiston tanlagan yo'lni Janubi-SHarqiy Osiyoning industrial mamlakatlarida olib borilgan islohotlar yo'nalishiga

o'xshata boshladilar. Yangi tovarlar va texnologik taraqqiyotga ehtiyojning o'sishi iqtisodiyotda yuqori texnologik tarmoqlar ulushining o'sishiga olib keldi. Bu davrda ayniqsa kimyo va neftkimyo, farmatsevtika sanoatining jadal sur'atlar bilan rivojlanishi ko'zga tashlandi. Qator strategik sohalarning, xususan don va energetika mustaqilligi ta'minlandi. Bozor iqtisodiyoti infratuzilmasi shakllandi.

Beshinchi bosqich – 1999 yildan boshlanib 2010 yilgacha davom etdi. Import o'rnini bosuvchi va ommaviy eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy tizimni to'la hajmda shakllantirish, nufuzli xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning faollashuvi bu davr amalga oshirilgan islohotlarning asosiy belgisi bo'ldi. Avvalgi bosqichlar doirasida mamlakat iqtisodiyotini tubdan tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya qilish, qisqa muddatda mutlaqo yangi, lokomotiv rolini bajaradigan tarmoqlarning barpo etilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash dasturlarining amalga oshirish, zamonaviy bozor infratuzilmasini shakllantirish borasida o'z vaqtida boshlangan, chuqur o'ylangan va uzoq istiqbolga mo'ljallangan ishlar o'z natijasini berdi.

Oltinchi bosqich –2010 yildan boshlandi va uning tub mohiyati va ustuvor yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 27 yanvarda bo'lib o'tgan qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish – ustuvor maqsadimizdir" ma'ruzasida o'z aksini topdi. Ushbu yondashuv rivojlanishning o'zbek modelini nazariy va amaliy jihatdan yanada boyitib, milliy iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish imkonini berdi.

Xususan, o'zbek modeli, bir tomondan, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining tahdid va xatarlariga munosib qarshi turish, uning iqtisodiyotimizga salbiy ta'sirining oldini olish amaliyoti bilan boyitilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan esa, O'zbekiston iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash, bank-moliya tizimining barqarorligini oshirish, strategik ahamiyatga molik loyihalarni hayotga tadbiq etish uchun faol investitsiya siyosatini olib borish, xalqning hayot darajasi va farovonligini yanada yuksaltirishga qaratilgan siyosat doirasidagi qator vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish borasida to'plangan tajribaga ega bo'ldi. Muhimi shundaki, O'zbekistonning jahon bozoridagi o'z o'rnini va mavqeini mustahkamlash, global iqtisodiy tizimga integratsiyalash masalalari doirasidagi islohotlar jadallashdi.

Sobiq ittifoqdosh respublikalar orasida faqat O'zbekistonda 1996 yildan boshlab izchil iqtisodiy o'sish sur'atlari ta'minlanmoqda. Agar 1996-2003 yillarda o'rtacha o'sish sur'ati 4,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2004 yildan boshlab bu jarayon yangi bosqichga ko'tarilib, yuqori darajada – yiliga o'rtacha 7,5-9 foiz o'sishni tashkil etmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan rahbariyat oziq-ovqat muammosini o'z imkoniyatlarimiz hisobidan hal qilish, ayniqsa, don mustaqilligini ta'minlash masalasini kun tartibiga qat'iy vazifa qilib qo'ydi. Puxta o'ylab yuritilgan iqtisodiy

siyosat natijasida ekin maydonlari tarkibi, qishloq xo'jaligi ekinlarini joylashtirish ichki talab va shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda, qayta ko'rib chiqildi. Mamlakatda paxta yakkahokimligiga barham berildi. Natijada oziq-ovqat xavfsizligi, g'alla mustaqilligi ta'minlandi. O'tgan yillarda g'alla etishtirish hajmi 7 barobar, hosildorlik esa 3 barobardan ko'proq oshdi. Bugungi kunda iqtisodiyotda nodavlat sektori ulushi 83 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. YAlpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning salmog'i 54 foizdan oshib ketdi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining salkam 98 foizi dehqon va fermer xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Eng muhimi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik odamlar uchun barqaror daromad manbalari yaratishning eng muhim omiliga aylandi. Hozir aholi yalpi daromadlarida kichik tadbirkorlik faoliyatidan tushayotgan daromadlarning ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil qilmoqda.

Istiqlol yillarida Buxoro neftni qayta ishlash zavodi, Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Qo'ng'iro't soda zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, Asakadagi engil avtomobillari va Samarqanddagi yuk avtomobillari va avtobuslar ishlab chiqaradigan zavodlar, yuzlab zamonaviy engil va oziq-ovqat sanoati korxonalari ishga tushirildi. Natijada mustaqillik yillarida mamlakatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3,4 barobar oshdi. Ishlab chiqarilayotgan sanoat mahsulotlarining salkam 40 foizi eksport qilinmoqda.

Eng og'ir, keskin ijtimoiy-iqtisodiy muammolar girdobida turgan o'tish davrida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish vazifasi qo'yildi. Shu bois ham, milliy modelning o'ziga xos jihatlaridan biri – taraqqiyotning barcha bosqichlarida kuchli ijtimoiy siyosat yuritilgani, aholining kam ta'minlangan qatlami ishonchli ijtimoiy himoya qilingani bo'ldi. Bu o'tish davrining eng og'ir bosqichlarida ham jamiyatimizda ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlash imkonini berdi.

Mustahkamlash uchun savollar.

- 1.O'zbekistonning mustaqilligi arafasida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar haqida nimalarni bilasiz ?
- 2.O'zbekistonning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan strategiyasi deganda nimani tushunasiz?
3. O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tishda dastlab qanday muammolarga duch keldi ?

3-mavzu: O'zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar. Iqtisodiy islohotlar, xususiyl mulkchilikning shakllanishi. O'zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.

Reja:

1. Mustaqil O'zbekistonda hokimiyatlar bo'linishi prinsipi.
2. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasining mohiyati
3. Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va undagi belgilangan vazifalar, bozor munosabatlariga o'tishning huquqiy asoslarini yaratilishi.

Demokratik tamoyil va qadriyatlarga asoslangan zamonaviy o'zbek suveren davlatchiligining qaror topishi mamlakatimizning XX asr so'nggi o'n yilligidagi buyuk tarixiy voqea bo'ldi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida dunyo sahnasiga chiqqach, mohiyat-mazmuni jihatidan tamomila yangi milliy huquqiy tizim yaratildi. Avvalo, respublikamizda mavjud barcha normativ-huquqiy aktlar Konstitutsiya asosida qayta ko'rib chiqilib, isloh qilina boshlandi. Shu bilan birga, huquqiy tizimning barcha sohalari bo'yicha yangi qonunlar yaratishga kirishildi. Jumladan, mustaqillik yillari mobaynida o'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi o'n bitta sessiya o'tkazdi. Parlament 1991 yilning avgust-dekabr oylarida – 13 ta qonun, 1992 yilda – 52 ta qonun, 1993 yilda – 53 ta qonun, 1994 yilda – 22 ta qonun qabul qildi. Jami qonunlar 145 tani tashkil etib, ulardan 98 tasi yangi qonunlar, 47 ta qonunga esa qo'shimcha va o'zgar-tirishlar kiritdi. Yangi saylangan birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995-1999 yillarda o'n beshta sessiya o'tkazib, 10 ta kodeks, 2 ta milliy dastur, 138 ta qonun, 468 ta qaror qabul qildi. Bu davrda 216 holatda amaldagi qonunchilikka qo'shimcha, to'ldirish va o'zgartirishlar kiritildi.

Shu bilan birga, respublikada prezidentlik boshqaruvi hokimiyat mexanizmining samaradorligini, mamlakatdagi barqarorlik, qonuniylik va huquq-tartibotning samaradorligini qat'iy oshirish vositasi bo'lib xizmat qoldi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, BMTga a'zo bo'lgan 193 ta davlatdan 143 tasida, ya'ni qariyb 75 foizida Prezident lavozimi ta'sis etilgan.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimini ta'sis etish hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (Asosiy Qonuni)ga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimi demokratiya jarayonlarini yanada rivojlantirish, siyosiy o'zgarishlarni chuqurlashtirish, konstitutsion tuzumni, fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va xavfsizligini mustahkamlash, O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy organlarining o'zaro aloqasini

takomillashtirish maqsadida ta'sis etildi hamda uning konstitutsiyaviy maqomi O'zbekiston Respublikasining boshlig'i etib belgilandi.

Qonunda fuqarolarning huquqlari va erkinliklariga, Konstitutsiya va qonunlarga rioya etilishiga kafil bo'lish, respublikaning suvereniteti, xavfsizligi va hududiy yaxlitligini muhofaza etish, milliy davlat tuzilishi masalalariga doir qarorlarni amalga oshirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rish, mamlakat ichkarisida va xalqaro tashkilotlarda respublika nomidan ish ko'rish, Oliy Kengashga har yili respublikadagi holat hamda ichki va xalqaro hayotning eng muhim masalalari yuzasidan haqida ma'ruzalar taqdim etish, ayrim shaxslarni lavozimga tayinlash va ozod qilish bo'yicha vakolatlar, respublika oliy hokimiyat va boshqaruv organlarining bahamjihat ishlashini ta'minlash, hukumatning qarorlari va farmoyishlari ijrosini to'xtatib qo'yish, qonunlarni imzolash, faxriy unvonlar berish, faxriy yorliqlar bilan mukofotlash, respublika fuqaroligiga va siyosiy boshpana berishga oid masalalarni hal etish, sudlar tomonidan hukm qilingan shaxslarni afv etish va boshqalar Prezident vakolatlari sifatida qayd etildi.

Ikki palatali parlament shakllanishi bilan Prezident vakolatlarining katta qismi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga o'tkazildi. O'tgan asrning 90-yillarida Prezident ko'p vazifalarni, mas'uliyat va javobgarlikni o'ziga olishga majbur edi.

Odamlarning siyosiy, huquqiy ongi va saviyasi qanchalik yuksalsa, demokratiya yo'lida qancha ko'p ijobiy o'zgarishlarga erishsak, davlat qurilishi va boshqaruvi sohasida erkinlashtirish jarayonlari ham shuncha tezlashadi. SHu asosda Prezident 90-yillardagi murakkab bir sharoitda o'z zimmasiga olishga majbur bo'lgan vakolatlarni tegishli tuzilmalarga berishi uchun imkon tug'ildi.

2003 yil 25 aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z vakolatlarini, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq, samarali amalga oshirishi uchun zarur sharoit yaratish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, shuningdek, konstitutsiyaviy vakolat muddati tugab yoki sog'lig'i holatiga ko'ra iste'foga chiqqan O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga zarur sharoitlar va kafolatlar yaratib berish maqsadida "O'zbekiston Respublikasi Prezidenti faoliyatining asosiy kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi.

2005 yilda mamlakatimizda ikki palatali parlamentning ish boshlashi, shuningdek, Prezidentning konstitutsiyaviy vazifalaridan avval Vazirlar Mahkamasining Raisi lavozimi, keyinchalik esa ijro hokimiyatining rahbari maqomi chiqarilganidan so'ng, Prezidentning huquqiy hujjatlarida ishlatib kelingan Farmon va farmoyish so'zlari qatoriga, Prezident qarori amaliyoti ham qo'shildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari, asosan, ijro hokimiyatining tashkiliy tuzilmasini, hukumatlararo xalqaro shartnomalarni, bir qator kadrlarni tasdiqlash, davlat mukofotlarini berish, harbiy xizmatga chaqirish vakolatlarini amalga oshirish uchun qabul qilina boshladi.

Mustaqillik qo'lg'a kiritilgan dastlabki kunlardayoq O'zbekistonda demokratiyani taraqqiy toptirish uchun hozirgi zamon jahon standartlariga javob bera oladigan samarali va ishchan parlamentni shakllantirish zarurati yuzaga keldi. Ammo bir ijtimoiy tizimdan ikkinchi tizimga o'tish sharoitida bu jarayon g'oyat murakkab kechishi aniq edi.

Parlamentarizmning rivojlanishi bosqichma-bosqichlilik tamoyili asosida olib borildi. Aks holda ijtimoiy-siyosiy beqarorlik va hokimiyatlar muvozanati yo'q paytda endigina faoliyatini boshlayotgan yosh parlament demokratik institut doirasidan chiqib ketib, siyosiy inqiroz keltirib chiqaruvchi vositaga aylanishi mumkin edi. Bunday sharoitda qonunchilik ikkinchi darajali vazifaga aylanadi, u faqat siyosiy kurashni davom ettirish yoxud lobbilar faoliyati uchungina ishlatiladigan qo'g'irchoqqa o'xshab qoladi. Bunday parlamentdan elning, xalqning kor-holiga yaraydigan, milliy manfaatlarga javob beradigan, etti o'lchab bir kesilgan, chuqur o'ylangan qonun va qarorlar kutish qiyin bo'lib qoladi. Shunga ko'ra, parlament hokimiyatlarni taqsimlash tizimida to'laqonli ish yuritishi uchun shunday sharoit yaratish zarur ediki, bir tomondan, u hokimiyatning barcha tarmoqlariga ma'lum darajada ta'sir o'tkazsin, ikkinchi tomondan, davlat tizimi ichida ham, davlat bilan fuqarolik jamiyati o'rtasida ham, ochiq va har qanday qarama-qarshilikni engib o'ta oladigan siyosiy mahkamaga aylansin. Eng muhimi – mamlakatga ishchan, qobiliyatli, qonunchilik va vakillik vazifalarini to'liq ado eta oladigan, jamiyatni ajratib tashlaydigan emas, balki bunyodkorlik yo'lida odamlarni, fuqarolarni jipslashtira oladigan parlament kerak edi. Zero, mamlakat oldida ulkan bir vazifa – yangi demokratik davlatchilikni yaratishdek ulkan vazifa turardi.

O'zbek parlamentarizmi tarixiga nazar solsak, 1990-1994 yillarda mamlakatimiz parlamenti Oliy Kengash nomi bilan atalib, 150 deputatdan iborat edi. 1995-2004 yillarda Oliy Majlis nomi bilan atalgan 250 deputatdan iborat bir palatali parlament shakllantirildi. Bir mandatli hududiy saylov okruglaridan saylangan deputatlar tarkibida Xalq demokratik partiyasidan, "Adolat" sotsial-demokratik partiyasidan, "Vatan taraqqiyoti" partiyasidan, "Milliy tiklanish" partiyasidan deputatlar bor edi. Parlament fraksiyalari ilk bor tashkil etildi.

Bundan tashqari, deputatlarning ma'lum bir qismi Qoraqalpog'iston parlamenti, viloyatlar hamda xalq deputatlari Toshkent shahar Kengashi tomonidan saylandi. Shunga ko'ra, fraksiyalar bilan bir qatorda parlament faoliyatida hokimiyatlarning vakillik organlaridan kelgan 120 deputatlik bloki ham bor edi. Deputatlarning yarmidan ko'pi yilda 4 marotaba bo'ladigan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi sessiyalari vaqtida qonunchilikni amalga oshirib, avvalgi ish o'rinlarida o'z vazifalarini ado etardilar. Oliy Majlisning muntazam va samarali ish faoliyatini uning Kengashi qo'mitalari, komissiyalari, shuningdek, doimiy asosda ishlaydigan deputatlar ta'minlab turardi.

Bu davrda demokratik parlamentarizm madaniyatini rivojlantirish uchun sharoit yaratildi, professional deputatlar, parlamentda xizmat qiluvchi yuksak malakali xodimlar tarbiyalandi, parlamentning obro‘-e‘tibori oshdi, qonunchilikning ilmiy bazasi ham rivojlana boshladi. Parlament mexanizmining ravnaqi, bir qator parlamentlik vazifalarining kuchaytirilishi, parlamentga qo‘shimcha vakolatlarning berilishi turli nazariyalardan kelib chiqib emas, balki to‘plangan tajriba asosida amalga oshirildi.

Parlament faoliyatini kuchaytirishga, shu jumladan, qonunchilik jarayonini to‘la professionallashtirishga, qabul qilinayotgan qonun va qarorlarning sifatini yanada oshirishga bo‘lgan ehtiyoj – ikki palatali parlament tizimiga o‘tishni taqozo etardi. Bundan tashqari, taqsimlangan vakilliklarga ham ehtiyoj tug‘il–di, ya’ni quyi palata partiyalar vakillari bilan shakllantiradigan, yuqori palata joylardagi hokimiyat organlari vakillari (Qoraqalpog‘iston, Toshkent shahri va viloyatlardagi deputatlarning mahalliy kengashlaridan 6 kishidan) va mamlakat O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tayinlaydigan fan, san’at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat hayotida katta amaliy tajribaga ega bo‘lgan alohida xizmat ko‘rsatgan eng obro‘li fuqarolardan iborat 16 nafar deputat (jami 100 nafar senator) bilan to‘ldiriladigan bo‘ldi.

Bu o‘zbek parlamentarizmi tarixidagi muhim davr edi, zero aynan mana shu davrda qonunchilik hokimiyatini amalga oshiruvchi oliy davlat vakillik organining ishida birmuncha yuksak professional darajani ta’minlashga doir imkoniyatlar aniqlab olindi. Bundan tashqari, bu davr murakkab tuzilmali parlamentga, hokimiyatning barcha shohobchalarida barqarorlik va ish me’yorlarini saqlagan holda qonunchilik, davlat boshqaruvi va tashqi siyosat sohasida kuchli konstitutsiyaviy hokimiyatning parlamenti darajasiga bosqichma-bosqich o‘tish eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini ham tasdiqladi.

Oliy Majlis 2001 yil 6 dekabrda qabul qilgan “O‘zbekiston Respublikasi referendumini o‘tkazish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, 2002 yil 27 yanvarda referendum o‘tkazildi. Uning yakunlari asosida “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunning qabul qilinishi qonun chiqaruvchi hokimiyatni tubdan isloh qilishning huquqiy asoslarini belgilab berdi.

2002 yil 12 dekabrda Oliy Majlisning 10-sessiyasi “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida” va “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy Qonunlar hamda ularni amalga oshirish to‘g‘risida qarorlar qabul qilindi. 2003 yilning 24 aprelida esa “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlarida to‘plangan parlamentarizm tajribasi, o‘zbek xalqining qadriyatlari va mentalitetini hisobga olgan holda, ishlab chiqilgan ushbu qonunlar ikki palatali parlamentimiz vakolatlari va faoliyatining tashkiliy shakllarini aniq belgilab berdi.

Shunday qilib, mamlakatimiz tarixida ilk bor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi ikki palatadan – Qonunchilik palatasi (quyi palata) va Senatdan (yuqori palata) iborat tarzda ish boshladi. Mamlakat parlamentining bosib o‘tgan yo‘lini tarixiy nuqtai nazardan tahlil etar ekanmiz, uni uchta asosiy davrga bo‘lish, mumkin.

Birinchi davr – 1991 -1994 yillar, ikkinchi davr – 1995-2004 yillar uchinchi davr – 2005 yildan hozirgi paytgacha.

Birinchi davr – 1991-1994 yillar. O‘tish davri parlamenti deb atash mumkin bo‘lgan oxirgi 12-chaqiriq Oliy Kengash deputatlari davlat boshqaruvining mutlaqo yangi organlarini tashkil etishning, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga asoslangan demokratik jamiyat qurishning huquqiy negizi bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Parlament yosh davlatning suverenitetini mustahkamlashga qaratilgan “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi, “O‘zbekiston Respublikasining davlat tili haqida”gi, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi va boshqa mustaqilligimizni huquqiy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan nihoyatda muhim bo‘lgan bir qator qonunlarni qabul qildi.

Oliy Kengashning o‘n ikkinchi sessiyasi 1994 yil 23 sentyabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga birinchi saylovni 1994 yil 25 dekabrda o‘tkazish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Uch bosqichda (1994 yil 25 dekabrda, 1995 yil 8 va 22 yanvarda) bo‘lib o‘tgan saylov yakunlariga binoan 245 nafar deputatdan iborat tarkibdagi parlament shakllantirildi. Saylov ko‘p partiyaviylik asosida o‘tkazildi.

Ikkinchi davr – 1995-2004 yillar. Oliy Kengash o‘rniga O‘zbekiston Respublikasining bir palatali parlamenti – Oliy Majlis shakllantirildi. Birinchi chaqiriq (1995-1999 yillar) Oliy Majlis tarkibida O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 69 nafar, “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 47, “Vatan taraqqiyoti” partiyasidan 14, “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 7 nafar deputat bo‘lib, deputatlarning qolgan qismini hokimiyat vakillik organlaridan ko‘rsatilgan shaxslar tashkil etdi. Ikkinchi chaqiriq (2000-2004 yillar) Oliy Majlisga saylov hokimiyat vakillik organlari bilan bir qatorda beshta siyosiy partiya va saylovchilar tashabbuskor guruhlar ishtirokida bo‘lib o‘tdi. Ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisda 11 nafar deputatni birlashtirgan “Adolat” sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi, 10 nafar deputatdan iborat “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyasi, 20 nafar deputatga ega bo‘lgan “Vatan taraqqiyoti” partiyasi fraksiyasi, 34 nafar deputatni tashkil etgan “Fidokorlar” milliy demokratik partiyasi fraksiyasi, 49 nafar deputatdan iborat Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi, 107 nafar kishidan iborat hokimiyat vakillik organlaridan saylangan deputatlar bloki va 16 nafar saylovchilar tashabbuskor guruhlaridan

saylangan deputatlar bloki ro'yxatga olindi. Keyinchalik "Vatan taraqqiyoti" va "Fidokorlar" partiyalari bitta "Fidokorlar" partiyasiga birlashganligi munosabati bilan ikkinchi chaqiriq Oliy Majlisning ikkinchi sessiyasida ularning parlamentdagi fraksiyalari a'zolari ham birlashib, 54 nafar deputatni birlashtirgan bitta fraksiyani tashkil etdilar.

Uchinchi davr– 2005 yildan hozirgi paytgacha. Milliy parlamentarizm rivoj topishining uchinchi davri Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va Senatining 2005 yil 28 yanvardagi qo'shma majlisidan boshlanib, bunda yangi ikki palatali Oliy Majlis deputatlari va senatorlari amalda o'z ishlariga kirishdilar. Mamlakatimiz qonun chiqaruvchilarining mazkur tarixiy anjumanida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov jamiyatimizni demokratlashtirish hamda yangilash yuzasidan dasturiy ma'ruza qilib, mamlakatimizni 2005 yilda va uzoq muddatli istiqbolda isloh etish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha asosiy vazifalarni ilgari surdi. Bir so'z bilan aytganda, mamlakatda parlament islohotlarining rivojlantirilishi masalasi ikki palatali parlamentning tashkil topishi va uning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotida tobora mavqei rivojlanib borayotganligida aniq namoyon bo'layotganligini kuzatish mumkin. Ikki palatali parlamentning shakllantirilishi, uning faoliyat yuritishi masalalariga doir huquqiy asoslarning, shuningdek, saylovlarning demokratik andozalar asosida yanada takomillashtirilib borilishi, nihoyat, nomarkazlashtirish, ma'muriy islohotlarning jadallik bilan olib borilishi mamlakatni siyosiy modernizatsiyalashuv jarayonining asosini tashkil etdi.

Xullas, mamlakatimizda milliy parlamentni shakllantirish jarayoni qisqa bo'lsa-da, tarkibiy-tuzilmaviy va sifat jihatidan muhim bosqichni bosib o'tdi. Barcha sohalarda bo'lgani kabi bu yo'nalishda ham Prezident Islom Karimov rahnamoligida jahon xalqlari erishgan ijobiy tajribalar bilan birga, mamlakatimiz, xalqimizning o'ziga xos xususiyatlari, mentaliteti, shart-sharoitlari, tarixiy an'ana va qadriyatlari hisobga olindi. Ayni paytda parlament rivojining bosqichma-bosqich amalga oshirilishi "o'zbek modeli"ning hayotiyligini yana bir bor tasdiqladi.

2010 yil 12 noyabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi"ni bayon etib, bu bilan davlat hokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish bo'yicha taklif etilgan tashabbuslari orqali prezidentlik institutining rivojlanishida muhim bosqich boshlanishiga zamin yaratdi, siyosiy tizimni modernizatsiya qilish jarayonida mamlakatimizni isloh etish va demokratlashtirishning yangi bosqichini boshlab berdi. Konsepsiyada mamlakatimiz aholisining siyosiy-huquqiy madaniyati va ijtimoiy ong darajasining o'sib borishi, jamiyatni demokratlashtirish va liberallashtirish jarayonlarining jadal rivojlanishi, yurtimizda ko'ppartiyaviylik tizimining tobora

mustahkamlanishi davlat hokimiyatining uchta sub'ekti, ya'ni davlat boshlig'i bo'lgan Prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o'rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlarni yuzaga keltirayotganligi ta'kidlandi.

Mazkur Konsepsiya shu davrgacha amalga oshirilgan islohotlarni mantiqiy davomi bo'lib, istiqbolda islohotlarning yanada izchil amalga oshirilishiga zamin, shart-sharoitlar yaratish maqsadida ishlab chiqilgan.

Mazkur konsepsiyadan kelib chiqib, 2011 yil 19 aprelda matbuotda e'lon qilingan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida (78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni bilan Konstitutsiyamizning O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlariga bag'ishlangan 93-moddasi 8, 15-bandlari, 98-moddasiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritildi, ya'ni "ijro etuvchi hokimiyat devonini tuzadi va unga rahbarlik qiladi" degan so'zlar chiqarildi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri vakolatiga viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini qonunga muvofiq tayinlash hamda lavozimidan ozod etish uchun Prezidentga taqdim etish huquqi berildi, Prezident vakolatlaridan Vazirlar Mahkamasi vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan qarorlar qabul qilish huquqi chiqarildi, Konstitutsiyaning 96-moddasi yangi tahrirda ifodalanib, unga ko'ra mamlakatning amaldagi Prezidenti o'z vazifalarini bajara olmaydigan holatlarda uning vazifa va vakolatlari vaqtincha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisining zimmasiga yuklatilishi belgilandi.

Konstitutsiyaning 98-moddasiga kiritilgan qo'shimchalarga binoan, Bosh vazir nomzodini taklif etishni yanada demokratik konstitutsiyaviy tartibi joriy etildi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko'p deputatlik o'rinlarini olgan siyosiy partiya yoki teng miqdordagi eng ko'p deputatlik o'rinlarini qo'lga kiritgan bir necha siyosiy partiyalar tomonidan taklif etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 89-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini taminlaydi". Bundan kelib chiqadiki, agar avval Prezident davlat va ijro hokimiyatining boshlig'i vazifalarini qo'shib olib borgan bo'lsa, endilikda u hokimiyat tarmoqlarining o'z funksiyasini bajarishi, o'zaro hamkorlik qilishini to'laqonli ravishda nazorat qilish vakolatiga ega bo'ldi. Bu esa Prezidentga davlat hokimiyatining barcha tarmoqlariga nisbatan tegishli muhim ta'sir vositalari, tiyib turish mexanizmlariga ega bo'lishni taqozo etadi. Ya'ni, agar biron-bir hokimiyat tarmog'i o'z vazifasini bajarmasa yoki vakolatini suiiste'mol qilsa, Prezident zudlik bilan bunday holatning oldini olish yoki bartaraf etish, tizimda uzilishlar bo'lishiga yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlarini ko'radi.

2011 yil 12 dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi. Mazkur Qonun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qonunchilik tashabbusi bilan qabul qilingan bo‘lib, unga ko‘ra, bugungi kundagi ob‘ektiv voqelik, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning mantig‘i va izchilligidan kelib chiqib, Prezidentning saylanish muddatini etti yil o‘rniga besh yil qilib belgilandi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga navbatdagi saylovga tayyorgarlik ko‘rish, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining prinsiplari va talablariga so‘zsiz rioya etilishini ta‘minlashmaqsadida hamda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsiplariva normalarini hisobga olgan holda, 2012 yil 9 aprelda “Davlat hokimiyati vakillik organlariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining navbatdagi saylovi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni qabul qilindi.

Mazkur Qonunning 2-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining navbatdagi saylovi 2015 yilning birinchi yarmida – O‘zbekiston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga saylov yakunlari bo‘yicha qaror chiqargan kundan e’tiboran 90 kun o‘tgandan keyingi birinchi yakshanbada, “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunga to‘liq muvofiq holda o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi.

Ushbu Qonunda, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi hamda davlat hokimiyati vakillik organlariga saylov muddatlari bir paytga to‘g‘ri kelib qolgan taqdirda davlat hokimiyati vakillik organlarining vakolat muddati bir yilga uzaytirilishiga oid qoida chiqarib tashlanishi belgilandi.

2011 yil 18 martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 4295-sonli Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti devonining nizomi va tuzilmasi tasdiqlandi.

Hozirgi davr jahondagi demokratiyaning asosiy mezonlaridan biri saylovlarning ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkazilishidir. 1991 yilning noyabrida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonunda saylovning ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkazilishi huquqiy jihatdan e’tirof etildi. Mazkur Qonunda siyosiy partiyalar mamlakat Prezidentligiga nomzodlar ko‘rsatish hukuqiga ega ekanligi bayon etildi.

“O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi Qonunning ko‘ppartiyaviylik tizimi shakllanishining huquqiy jihatlarini ta‘minlab berishi natijasi-da mamlakatda yangi siyosiy partiyalarning yuzaga kelish jarayoni boshlandi. Milliy mustaqillik davrida tashkil topgan ilk siyosiy partiya bu – O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidir. Partiyaga 1991 yilning 1 noyabrida bo‘lib o‘tgan ta’sis qurultoyida asos solin-di. Qurultoy mustaqil O‘zbekiston

tarixidagi muhim siyosiy voqea, ya'ni O'zbekiston XDP ta'sis etilganligini e'lon qilib, uning Dasturi va nizomini qabul qildi. Lekin, Xalq demokratik partiyasi tashkil etilgandan so'ng, uning rivojlanishi bir tekisda ketdi, deb bo'lmaydi. Xususan, XDPning ko'pgina mahalliy kengashlari partiya quyi bo'g'ini tizimini tezroq shakllantirishga berilib, ular tarkibining sifatiga, a'zolarining umumiy soni va uyushganlik darajasiga etarli e'tibor bermadilar. Oqibatda a'zolar soni 10 kishigacha bo'lgan boshlang'ich partiya tashkilotlari miqdori ularning umumiy sonining qariyb yarmini tashkil etdi.

O'zbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasining asosiy maqsad-vazifasi milliy an'analarni va qadriyatlarni saqlashdan iborat. 2008 yil 20 iyun kuni O'zbekiston "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasi va O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining birlashuv qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda asosiy masala O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va "Fidokorlar" milliy demokratik partiyasini birlashtirish to'g'risidagi masala ko'rib chiqilib, ikkala partiyaning birlashishi to'g'risida qaror qabul qilindi. Qurultoyda partiyalarning maqsadli dasturiy vazifalari mazmun-mohiyatiga ko'ra bir biriga yaqin, ya'ni, milliy tiklanish va vatanparvarlik g'oyasini ro'yobga chiqarish, milliy an'ana va qadriyatlarni himoya qilish, asrab avaylash hamda rivojlantirish ekanligi ta'kidlandi.

2009 yilgi Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga o'tkazilgan saylovlar yakuniga ko'ra, Milliy tiklanish demokratik partiyasining 31 ta deputatdan iborat fraksiyasi ro'yxatga olingan.

O'zbekiston siyosiy tizimida o'ziga xos o'ringa ega bo'lib ulgurgan O'zbekiston Liberal-Demokratik partiyasining (O'zLiDeP) Nizomi va dasturi uning 2003 yil 15 noyabrda bo'lib o'tgan Ta'sis Qurultoyida tasdiqlangan. O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi umummilliy siyosiy tashkilot sifatida mulkdorlar qatlami, kichik biznes, fermerlik va dehqon xo'jaliklari vakillari, ishlab chiqarishning yuqori malakali mutaxassisleri va boshqaruv xodimlari, ishbilarmonlar manfaatlarini ifodalaydi va himoya qiladi. Partiya 2009 yilgi saylov natijalariga ko'ra Oliy Majlis Qonunchilik palatasida 53 ta deputatdan iborat fraksiyaga ega.

O'zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarning o'tgan yillar davomidagi faoliyatiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularning rivojlanishi uchun huquqiy asos yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Siyosiy partiyalar to'g'risida"gi, "Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to'g'risida"gi hamda "Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonuni shular jumlasidandir. Tabiiyki, siyosiy partiyalarning jamiyatda qanchalik mavqega ega ekanligini belgilovchi asosiy mezon bu, ularning davlat hokimiyati vakillik organlariga bo'ladigan saylovlarda qanday natijalarga erishganligi hisoblanadi.

2004 yil 30 aprelda “Siyosiy partiyalarni moliyalashtirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni qabul qilindi. Ushbu Qonunning maqsadi siyosiy partiyalarni moliyalashtirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo‘lib, unda siyosiy partiyalarni moliyalashtirish manbalari, davlat tomonidan moliyalashtirish tartibi, xayriya yordami olish qoidalari hamda moliyaviy mablag‘lardan belgilangan tartibda foydalanishi ustidan nazorat qilish tartiblari mustahkamlab qo‘yilgan. Ta’kidlash joizki, ushbu qonunda ilk marotaba siyosiy partiyalarni davlat tomonidan moliyalashtirish turlari belgilab qo‘yildi. Siyosiy partiyalarning jamiyat hayotidagi va davlat boshqaruvidagi rolini oshirishga qaratilgan huquqiy asoslardan biri sifatida Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritilgan va parlament tomonidan qabul qilingan “Davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiya qilishda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonunini ko‘rsatish mumkin. Ushbu Qonunni qabul qilishdan asosiy maqsad siyosiy partiyalar fraksiyalarining davlat va jamiyat qurilishi tizimidagi roli va ahamiyatini yanada kuchaytirish, ularning funksiyalari samaradorligini oshirish, aholining manfaatlarini bevosita fraksiyalar orqali qonunchilik darajasiga ko‘tarish va hal qilish, partiyaning yo‘nalish va dasturini parlament va mahalliy Kengashlarda mustahkamlash va barqarorlashtirish imkoniyatini shakllantirishdan iborat.

Dastlabki bosqich – 1991-2000 yillar. Mazkur bosqich mustaqil O‘zbekiston siyosiy tizimi poydevorini barpo etish sohasida puxta va jiddiy ish olib borilgan davr bo‘ldi. Ma’lumki, istiqlolgacha yurtimizda haqiqiy ma’nodagi siyosiy partiya hamda ko‘ppartiyaviylik bo‘lmay, yakka mafkura, yagona partiya hukmronligi o‘rnatilgan edi. Faqat mustaqillikka erishilgandan keyin mamlakatimizda ijtimoiy hayot siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi, hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emasligi qat’iyan konstitutsiyaviy asosda belgilanib, haqiqiy ma’nodagi siyosiy partiyalar faoliyat ko‘rsatishi uchun zarur huquqiy asos yaratildi. Bu bosqichda amalga oshirilgan islohotlarning huquqiy negizini tashkil qiluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlar sifatida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “O‘zbekiston Respublikasida jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi (1991), “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylov to‘g‘risida”gi (1993), “Xalq deputatlari viloyat, tuman va shahar Kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi (1994), “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi (1994), O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (1995-1996), “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi (1996), “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi (1999) qonunlarni keltirib o‘tish mumkin.

Shu bilan birga, 1996 yil 26 dekabrda bevosita siyosiy partiyalar faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishga qaratilgan “Siyosiy partiyalar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi.

Ikkinchi bosqich (2001-h.v.). Bu bosqichdagi ustuvor yo‘nalishlarning barchasini o‘ziga qamrab olgan eng muhim vazifa mamlakatimiz siyosiy, iqtisodiy hayotini, davlat va jamiyat qurilishi jarayonlarini yanada erkinlashtirishdan iborat bo‘ldi. Bu bosqichda mustaqil rivojlanish yillarida to‘plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish, rivojlangan mamlakatlarning davlat qurilishi va boshqaruvi bo‘yicha bosib o‘tgan yo‘lini chuqur tadqiq etish asosida ijobiy tajribani o‘tgan yillar mobaynida to‘plangan milliy tajribamiz bilan uyg‘unlashtirish asosida jamiyatimizni demokratlashtirish va yangilash konsepsiyasini, shuningdek, mamlakatimizni 2005 yil va kelgusi davrda modernizatsiya va isloh etish bo‘yicha asosiy vazifalar belgilab olindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2000 yil 2 iyundagi “Jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ma‘naviy sohalarida islohotlarni erkinlashtirish va chuqurlashtirish, mamlakat xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha dasturlarni amalga oshirish borasidagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida va 2005 yil 10 martdagi “Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni isloh qilish hamda modernizatsiyalash maqsad va vazifalarini amalga oshirish dasturi to‘g‘risida”gi Qarorida fuqarolik jamiyatini shakllantirish sohasida islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirish vazifalari tasdiqlandi.

Mazkur davrda siyosiy partiyalarga qonunlar asosida berilgan imkoniyatlarning huquqiy mexanizmlarini yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Siyosiy partiyalarning ustavda nazarda tutilgan faoliyatini davlat tomonidan moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” (2005), “Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” (2007) gi qarorlari qabul qilindi.

Yillar davomida to‘planib qolgan va hal etilmagan ana shu ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar oxir-oqibatda respublikada tanglik holatini yuzaga keltirdi. “Bugun ochiq aytaversak ham bo‘ladi, - deb aytgan edi bu haqda keyinchalik O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, - 1991 yilning oxiri va 1992 yilning boshida ko‘p narsalarda uzilish bo‘lib, juda og‘ir ahvolga tushib, naq ocharchilik ostonasida turar edik”.

O‘zbekistonni bu iqtisodiy tanglikdan taraqqiyot yo‘liga chiqarish uchun, mamlakat iqtisodiy tizimini yangilash kerak edi, vaziyat eski mustabid-rejali iqtisoddan yangi bozor iqtisodiga o‘tishni taqozo etardi. Shunday o‘ta og‘ir vaziyatda, Islom Karimov O‘zbekiston rahbari etib saylanganining ertasi kuniyoq, 1989 yil 24 iyulda, hukumat majlisida nutq so‘zlab, respublikada vujudga kelgan o‘ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ob‘ektiv baho beradi va uning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilib, shunday mantiqiy xulosa chiqaradi: “Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o‘zi yo‘l qo‘ymaydi”.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining bu xulosasida O‘zbekistonning istiqboli uchun har qanday sinov va mashaqqatlarni engib o‘tish,

bu borada butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor ekani yaqqol ifodalangan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida O'zbekistonning sharoiti va manfaatlari hisobga olingan holda yangi dasturlar qabul qilindi. O'zbekistonning yangi tarixida birinchi dastur 1990 yil oktyabr oyida O'zbekiston SSR Oliy Sovetining uchinchi sessiyasida qabul qilindi, u "O'zbekiston xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning asosiy yo'nalishlari va bozor iqtisodiga kirib borishning tamoyillari", deb nomlanadi.

Bu hujjatda quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

- aholini ijtimoiy himoyalashning davlat tizimini barpo etish;
 - respublika fuqarolarining hamjihatligini ta'minlash, millatlararo do'stona munosabatlarni mustahkamlash;
 - O'zbekistonning boshqa respublikalar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarini teng huquqli va o'zaro manfaatli asosda qayta qurish;
 - boshqarishdagi buyruqbozlik usulidan voz kechib, iqtisodiy, ya'ni manfaatni hisobga oladigan boshqarish usullariga o'tish;
 - moliya-kredit va soliq tizimini qayta ko'rib, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi yangi moliyaviy vositalarni ishga solish;
 - turli-tuman mulkchilik va har xil xo'jalik yuritishga o'tish;
 - suveren va bevosita tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish;
 - o'z tabiiy va moddiy resurslariga tayangan holda ishlab chiqarishni bir yoqlama rivojlanishiga chek qo'yib, bu ishlarning kompleks borishini ta'minlash.
- Dasturda yuqorida sanab o'tilgan isloh tadbirlarini 3 bosqichda amalga oshirish mo'ljallangan edi:

Birinchi bosqich – iqtisodiyotni barqarorlashtirish yuzasidan dastlabki favqulotda tadbirlarni 1990-1992 yillarda amalga oshirish va islohotlarga ilk qadam qo'yish;

Ikkinchi bosqich – 1992-1993 yillarda bozor iqtisodining asosiy belgilarini shakllantirish, unga asos solish;

Uchinchi bosqich – 1994-1996 yillarda bozor mexanizmini, ya'ni yangicha xo'jalik yuritish usullarini keng quloch yoydirish.

Bu dastur etti yil davomida O'zbekistonda bozor iqtisodini shakllantirishni nazarda tutgan bo'lib, uni siyosiy mustaqillik yo'lidan qaytmagan holda, sobiq ittifoqning iqtisodiy tizimi doirasida, uning salohiyatidan foydalangan holda amalga oshirish rejalashtirilgan edi. Ushbu dastur amalga oshirilmagan bo'lsada, yutuq va kamchiliklaridan qat'i nazar, O'zbekiston rahbariyatining mavjud holat yuzasidan o'z pozitsiyasi borligi hamda tanazzul alomatlarini kuchaygan va boshboshdoqlik avj olgan davrda, birinchi navbatda, unda O'zbekiston va respublika aholisining manfaati ustuvorligi alohida ko'rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatning tarixiy ahamiyati ham ana shundadir.

O'zbekistonning eng yangi tarixida mamlakatning aniq va puxta rivojlanish strategiyasi mustaqillikka erishilganidan so'ng ishlab chiqildi va izchillik bilan

amalga oshirilmoqda. Ta’kidlash joizki, istiqloлга erishilganidan so’ng avvalgi tuzum davrida shakllangan ziddiyatlardan tashqari, ko’plab yangi, o’tish davri bilan bog’liq muammolar ham yuzaga qalqib chiqdi. Bu, albatta, ijtimoiy-iqtisodiy sohada qator dolzarb muammolarni hal qilish masalasini kun tartibiga qo’ydi.

Bozor munosabatlariga mos infratuzilmani shakllantirish, iqtisodiyotda chuqur tuzilmaviy o’zgarishlarni amalga oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishni talab qilar edi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning ma’muriy-buyruqbozliktizimidan erkin bozor munosabatlariga asoslangan modeliga o’tish jarayonini ehtiyotkorlik va sekin-astalik bilan amalga oshirish kerak edi. Ushbu modelning asosiy tamoyillari, amalga oshirish yo’llari, bosqichlari O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi va u ilmiy asoslangan mashhur besh tamoyilda o’z aksini topdi. Bu tamoyillar umumlashgan holda 1993 yilda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “O’zbekiston: bozor munosabatlariga o’tishning o’ziga xos yo’li” asarida e’lon qilindi.

Birinchi tamoyil – iqtisodiyotning siyosatga nisbatan ustuvorligini ta’minlash. Bu qoida iqtisodiy faoliyat ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun poydevor vazifasini o’tashini, ya’ni O’zbekistonda iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo’lishini anglatadi. Tamoyilda iqtisodiyotning o’ziga xos ob’ektiv qonunlari mavjudligi, ularni e’tiborga olmasdan ish yuritish mumkin emasligi aks etgan. Iqtisodiy qonunlarning ob’ektivligini tan olib, xo’jalik faoliyatini ular talabiga mos holda yuritish – o’tish davri uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Iqtisodiyot o’z qonunlariga ega bo’lgani sababli uni siyosiy kurashlar, turli mafkuralar qurboniga aylantirish mumkin emas. Iqtisodiyot mafkuraviy tazyiqlarsiz o’ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi lozim. Biroq, bu iqtisodiyotga siyosat ta’siridan tamomila holi deb qayd qilishni bildirmaydi. O’zbekistondagi taraqqiyot zaruratidan kelib chiqqan siyosat iqtisodiyotga faol ta’sir qilishi lozim bo’ladi.

Ikkinchi tamoyil – davlat bosh islohotchi bo’lishi lozim. Davlat islohotlarning ustuvor yo’nalishlarini belgilab berishi, ularni amalga oshirish yo’lini ishlab chiqishi va unga izchillik bilan rioya etishi, eskilik tarafdorlari qarshiligini bartaraf etishi shart. Bu qoida madaniy bozor iqtisodiyoti konsepsiyasiga tayanadi. O’zbekiston mustabid-rejali, ma’muriy-buyruqbozlik uslubida boshqarilgan iqtisodiyotdan erkin demokratik iqtisodiyot tomon borar ekan, G’arb mamlakatlari asrlar davomida boshidan kechirgan tarixiy jarayonni o’tashi shart emas. G’arbda “beayov va tartibsiz” bozor iqtisodiyoti “yovvoyi kapitalizm” nomini olgan va uzoq davr amalda bo’lgan. O’zbekistonda esa madaniy bozor iqtisodiyotiga tartibli ravishda o’tish madaniy raqobatni shakllantirishi, sheriklik aloqalari, iqtisodiy barqarorlikning ustun bo’lishi, ommaviy farovonlik kabi belgilarga xos bo’lishi kerakki, ularni davlatning ishtirokisiz tasavvur qilib bo’lmaydi. Ikkinchi tamoyil davlat iqtisodiyotga minimal darajada aralashib, uni o’z holiga qo’yishi zarur,

degan g'oyalarni inkor etadi va davlatning bu borada faolligini bildiradi. Jahonda davlatning iqtisodiy sohadagi funksiyasiga oid to'plangan tajriba demokratik jamiyatda davlatdan o'zga umummilliy manfaatni ifodalovchi siyosiy institut bo'lmashligini ko'rsatdi.

Uchinchi tamoyil – qonunlarning va ularga rioya qilishning ustuvorligini ta'minlash. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarini hech qanday istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga so'zsiz rioya qilishi lozim. Bu tamoyilga ko'ra, qonunlar siyosiy hokimiyatni ta'minlovchi kuch, ularga jamiyat a'zolarini yuridik qonunlarga bo'ysundiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Qonunlar va qonun osti hujjatlar barchaning faoliyatiga tegishli, ammo ular ham eskiradi, ularni hayot taqozosiga ko'ra yangi qonunlar bilan al-mashtirish zarur, ya'ni qonunchilikka ijodiy yondoshuv talab qilinadi. Iqtisodiy hayotga xos bo'lgan o'zgaruvchanlik yuridik qonunlarni ham o'zgartirib borishni talab qiladi. Uchinchi tamoyil talablari yangicha qonunchilikni yaratishni taqozo etadiki birinchidan, O'zbekistonning milliy mustaqilligini, ikkinchidan, bozor islohotlarini amalga oshirish uchun huquqiy baza yaratadi. Uchinchi tamoyil siyosiy tizimning bozor iqtisodiyoti talablariga monand tarzda demokratlashuvini bildiradi. Bu tizim sharoitida inson huquqlari, erki, farovonligini ta'minlash bosh vazifaga aylanadi.

To'rtinchi tamoyil – faol ijtimoiy siyosat o'tkazish. O'zbekistonda bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholining demografik holatini hisobga olgan holda, uni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rish lozim bo'ladi. Bu tamoyil iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarining dialektik aloqadorligiga tayanga holda sotsial siyosat yuritish zarurligini asoslaydi. O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti ijtimoiy sohaning moddiy bazasini mustahkamlashi, ijtimoiy sohaning rivojlanishi esa inson omilini faollashtirib, iqtisodiyotga kuchli ta'sir ko'rsatishi zarur. Ikki sohaning dialektik aloqadorligi ishlab chiqarishning moddiy va insoniy omillari yaxlitligidan kelib chiqadi. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli bozor iqtisodiyotidagi ijtimoiy yo'naltirilgan, xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan bozor xo'jaligi bo'lishini anglatadi. Shu maqsad yo'lida yuritiladigan ijtimoiy siyosatning kuchliligi ijtimoiy adolatni ta'minlashi, kishilarda boqimandalik kayfiyatini bartaraf etishi va ularda faollikni yuzaga keltirish bilan jamiyatdagi sotsial inoqlikni, sotsial guruhlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni bildiradi. Bu siyosat inson omilini kuchaytirib shu orqali iqtisodiy taraqqiyotga kuchli ta'sir etadi.

Beshinchi tamoyil– bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyil O'zbekiston modelining tamal toshi, uning asosiy mezonidir. Bozor iqtisodiga o'tish – bu mavjud iqtisodiy tuzumni ta'mirlab takomillashtirish emas, balki tamoman yangi bozor tizimini yaratishni bildiradi. Bu yo'l revolyusion emas, balki evolyusion yo'ldir. Bu o'tish davri bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi

uzoq davr ekanini bildiradi va odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasi hisoblanadi.

Mazkur tamoyilga binoan islohotlar tadrijiy yo‘l bilan, ular mustabid-rejali iqtisoddan sekin-asta bozor tizimiga o‘tishini, ammo bu talofatsiz, larzalarsiz bo‘lishini bildiradi. Shoshma-shosharlik bilan bozor qoidalarini hayotga joriy etib bo‘lmaydi. Buning uchun tayyorgarlik va muayyan vaqt talab qilinadi. Bozor munosabatlari shakllanib ulgurmagani sharoitda mavjud aloqalarni buzib yuborish iqtisodni izdan chiqarishi, aholi turmushini keskin pasaytirib, sotsial to‘qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Shu sababdan islohotlar evolyusion tarzda va sharoit hozirlanishiga qarab ketma-ket o‘tkazilishi kerak. Sekin-astalik va ehtiyotkorlik qoidasi “falaj terapiyasi” tamoyilini inkor etadi. Bu O‘zbekistonning yangi tuzumga, bozor iqtisodiyotiga o‘tishdagi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgan milliy yo‘li edi.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ishlab chiqqan milliy model o‘ziga xos bo‘lib, unda bozor iqtisodiyotining ma‘lum bir turi yoki muayyan bir davlat yo‘li to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib olingani yo‘q. Uni tanlashda mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy sharoiti va salohiyatidan, xal-qimizning tarixi, milliy urf-odatlarini, diniy e‘tiqodidan kelib chiqildi. Bunda ko‘plab rivojlangan davlatlar tajribasi mukammal o‘rganildi va inobatga olindi. Dunyo amaliyotida o‘tish davri uchun mukammal modelning o‘zi yo‘q. Negaki, bir davlatning yo‘li boshqalar uchun mutlaqoto‘g‘ri kelmasligi mumkin. Har bir mamlakat o‘ziga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, geopolitik va tabiiy-geografik sharoitga ega. Shu ma’noda har bir davlat o‘z iqtisodiy rivojlanish modeliga ega bo‘lishi kerak.

Amalda “O‘zbek modeli” atamasi O‘zbekistonning Markaziy Osiyoda barqaror rivojlanayotgan davlatlardan biriga aylanishi bilan bog‘liq tarzda paydo bo‘ldi. Mutaxassislar tomonidan ushbu atama 1993 yildan qo‘llanila boshlandi, chunki bu davrdan boshlab O‘zbekistonda olib borilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar o‘zida iqtisodiy o‘sish bilan hamohang tarzda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni mujassamlashtirgan edi. Bu ayniqsa sobiq Ittifoq parchalangan davrning dastlabki yillarida ko‘zga tashlanardi. Albatta, har qanday progressiv g‘oyaning evolyusiyasi bo‘lgani kabi, O‘zbekiston rahbari tomonidan taklif etilgan rivojlanish konsepsiyasi, islohotlarning ko‘lami yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda takomillashib, chuqurlashib bormoqda.

Ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning nazariy asoslari, strategik maqsadlari, ustuvor yo‘nalishlari, muammolari va ularning hal etilish yo‘llari dastlab Prezidenti Islom Karimovning “O‘zbekistonning o‘z istiklol va taraqqiyot yo‘li”, “O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat”, “O‘zbekiston bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li”, “O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari” asarlarida o‘z ifodasini topdi. Keyinchalik ushbu konsepsiya “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”,

“O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”, “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”, “O‘zbekistonda demokratik o‘zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishning asosiy yo‘nalishlari”, “Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir” kabi asar hamda ma‘ruzalarida takomillashtirib kelinmoqda.

Respublikamizning umumjahon xo‘jalik tizimiga bosqichma-bosqich samarali va mustahkam kirib borishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan agrar siyosatning strategiyasi va taktikasini oqilona belgilashga ko‘p jixatdan bog‘liqdir. Shuningdek, agrar sohaning barqarorligi, samaradorligi va yangi iqtisodiy munosabatlarni joriy etilishi mamlakat ertasini va uning iqtisodiy qudratini belgilaydi.

Ittifoq tarkibidagi davlatlar ichida ayniqsa O‘zbekiston o‘zining bir yoqlama iqtisodiyoti bilan mavjud vaziyatdan chiqib ketishi ancha qiyin edi. Chunki respublikada ko‘p yillar davomida shakllangan xalq xo‘jaligi tarkibi, ya‘ni unda paxta yakka hokimligining o‘rnatilgani, xomashyo resurslarining ittifoq ehtiyojlari uchun ayovsiz ishlatilishi, texnologik jihatdan oxiriga etkazilmagan va ishlab chiqarishning xomashyo yoki yarim tayyor mahsulotni tayyorlashga moslashtirilgani, aksariyat sanoat, hatto oziq-ovqat mahsulotlarining chetdan keltirilishi va boshqa bir qator sabablar respublikaning markazga qaramligini mustahkamlab, import mahsulotlarga ehtiyojning ortishiga olib keldi. Mashina-uskunalar u yoqda tursin, O‘zbekiston sharoitida etishtirish va tayyorlash mumkin bo‘lgan iste‘mol mahsulotlarining asosiy qismi ham (masalan, don va go‘shtning 70, kartoshkaning 60, shakarning 100 foizi) respublikaga chetdan olib kelinardi. Hatto O‘zbekistonning o‘zida zaxiralari to‘lib-toshib yotgan osh tuzi ham tashqaridan keltirilardi.

Respublikada yuzaga kelgan bunday holatni O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tahlil qilib, jumladan shunday degan edi: “Bir necha o‘n yillar davomida respublikada ssenariysi uzoq markazda to‘qilgan qarorlar amalga oshirildi, “kampaniya”lar o‘tkazildi. O‘zbekistonning chinakam manfaatlari, o‘ziga xos sharoiti va imkoniyatlari pisand qilinmadi. Natijada xalq xo‘jaligining nuqsonli, bir tomonlama xomashyo tuzilmasi shakllandi. Respublika ayrim xomashyo turlarini, yoqilg‘i, asbob-uskunalar va texnologiyani emas, balki hayotiy muhim oziq-ovqat mahsulotlarini, xalq iste‘moli mollari chetdan keltirishga majburdir”.

Boz ustiga, bu davrga kelib markaz o‘zining ko‘plab nuqsonlarini yashirish va mamlakatdagi mavjud etishmovchiliklarni o‘z bo‘ynidan soqit qilish maqsadida, oziq-ovqat, xalq iste‘mol mollari va moddiy resurslar bilan ta‘minlashni ittifoqdosh respublikalar zimmasiga majburan yukladi. Bu hol azaldan shakllangan xo‘jalik aloqalarining buzilishiga, tovar ayriboshlash tadbirlarining natura

(mahsulot bilan ayirboshlash) shakliga o'tishga olib keldi, mintaqaviy xo'jalik yuritish g'oyasini vujudga keltirdi va g'ayriintegratsion jarayonlarga turtki bo'ldi.

Yillar davomida to'planib qolgan va hal etilmagan ana shu ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik muammolar oxir-oqibatda respublikada tanglik holatini yuzaga keltirdi. "Bugun ochiq aytaversak ham bo'ladi, - deb aytgan edi bu haqda keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov, - 1991 yilning oxiri va 1992 yilning boshida ko'p narsalarda uzilish bo'lib, juda og'ir ahvolga tushib, naq ocharchilik ostonasida turar edik".

O'zbekistonni bu iqtisodiy tanglikdan taraqqiyot yo'liga chiqarish uchun, mamlakat iqtisodiy tizimini yangilash kerak edi, vaziyat eski mustabid-rejali iqtisoddan yangi bozor iqtisodiga o'tishni taqozo etardi. Shunday o'ta og'ir vaziyatda, Islom Karimov O'zbekiston rahbari etib saylanganining ertasi kuniyoq, 1989 yil 24 iyulda, hukumat majlisida nutq so'zlab, respublikada vujudga kelgan o'ta murakkab ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga ob'ektiv baho beradi va uning kelib chiqish sabablarini chuqur tahlil qilib, shunday mantiqiy xulosa chiqaradi: "Biz bundan buyon eskicha yasholmaymiz va bunday yashashga zamonning o'zi yo'l qo'ymaydi".

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining bu xulosasida O'zbekistonning istiqboli uchun har qanday sinov va mashaqqatlarni engib o'tish, bu borada butun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor ekani yaqqol ifodalangan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida O'zbekistonning sharoiti va manfaatlari hisobga olingan holda yangi dasturlar qabul qilindi.

O'zbekistonning yangi tarixida birinchi dastur 1990 yil oktyabr oyida O'zbekiston SSR Oliy Sovetining uchinchi sessiyasida qabul qilindi, u "O'zbekiston xalq xo'jaligini barqarorlashtirishning asosiy yo'nalishlari va bozor iqtisodiga kirib borishning tamoyillari", deb nomlanadi.

Bu hujjatda quyidagi chora-tadbirlar belgilandi:

- aholini ijtimoiy himoyalashning davlat tizimini barpo etish;
- respublika fuqarolarining hamjihatligini ta'minlash, millatlararo do'stona munosabatlarni mustahkamlash;
- O'zbekistonning boshqa respublikalar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlarini teng huquqli va o'zaro manfaatli asosda qayta qurish;
- boshqarishdagi buyruqbozlik usulidan voz kechib, iqtisodiy, ya'ni manfaatni hisobga oladigan boshqarish usullariga o'tish;
- moliya-kredit va soliq tizimini qayta ko'rib, iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlovchi yangi moliyaviy vositalarni ishga solish;
- turli-tuman mulkchilik va har xil xo'jalik yuritishga o'tish;
- suveren va bevosita tashqi iqtisodiy aloqalarni o'rnatish;
- o'z tabiiy va moddiy resurslariga tayangan holda ishlab chiqarishni bir yoqlama rivojlanishiga chek qo'yib, bu ishlarning kompleks borishini ta'minlash.

Dasturda yuqorida sanab o'tilgan isloh tadbirlarini 3 bosqichda amalga oshirish mo'ljallangan edi:

Birinchi bosqich – iqtisodiyotni barqarorlashtirish yuzasidan dastlabki favqulotda tadbirlarni 1990-1992 yillarda amalga oshirish va islohotlarga ilk qadam qo'yish;

Ikkinchi bosqich – 1992-1993 yillarda bozor iqtisodining asosiy belgilarini shakllantirish, unga asos solish;

Uchinchi bosqich – 1994-1996 yillarda bozor mexanizmini, ya'ni yangicha xo'jalik yuritish usullarini keng quloch yoydirish.

Bu dastur etti yil davomida O'zbekistonda bozor iqtisodini shakllantirishni nazarda tutgan bo'lib, uni siyosiy mustaqillik yo'lidan qaytmagan holda, sobiq ittifoqning iqtisodiy tizimi doirasida, uning salohiyatidan foydalangan holda amalga oshirish rejalashtirilgan edi. Ushbu dastur amalga oshirilmagan bo'lsada, yutuq va kamchiliklaridan qat'i nazar, O'zbekiston rahbariyatining mavjud holat yuzasidan o'z pozitsiyasi borligi hamda tanazzul alomatlari kuchaygan va boshboshdoqlik avj olgan davrda, birinchi navbatda, unda O'zbekiston va respublika aholisining manfaati ustuvorligi alohida ko'rsatilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu hujjatning tarixiy ahamiyati ham ana shundadir.

O'zbekistonning eng yangi tarixida mamlakatning aniq va puxta rivojlanish strategiyasi mustaqillikka erishilganidan so'ng ishlab chiqildi va izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Ta'kidlash joizki, istiqbolga erishilganidan so'ng avvalgi tuzum davrida shakllangan ziddiyatlardan tashqari, ko'plab yangi, o'tish davri bilan bog'liq muammolar ham yuzaga qalqib chiqdi. Bu, albatta, ijtimoiy-iqtisodiy sohada qator dolzarb muammolarni hal qilish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Bozor munosabatlariga mos infratuzilmani shakllantirish, iqtisodiyotda chuqur tuzilmaviy o'zgarishlarni amalga oshirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirishni talab qilar edi. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishning ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan erkin bozor munosabatlariga asoslangan modelga o'tish jarayonini ehtiyotkorlik va sekin-astalik bilan amalga oshirish kerak edi. Ushbu modelning asosiy tamoyillari, amalga oshirish yo'llari, bosqichlari O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi va u ilmiy asoslangan mashhur besh tamoyilda o'z aksini topdi. Bu tamoyillar umumlashgan holda 1993 yilda Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning "O'zbekiston: bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li" asarida e'lon qilindi.

Birinchi tamoyil – iqtisodiyotning siyosatga nisbatan ustuvorligini ta'minlash. Bu qoida iqtisodiy faoliyat ijtimoiy hayotning barcha sohalari uchun poydevor vazifasini o'tashini, ya'ni O'zbekistonda iqtisodiyot ijtimoiy taraqqiyotning asosi bo'lishini anglatadi. Tamoyilda iqtisodiyotning o'ziga xos ob'ektiv qonunlari mavjudligi, ularni e'tiborga olmasdan ish yuritish mumkin emasligi aks etgan. Iqtisodiy qonunlarning ob'ektivligini tan olib, xo'jalik faoliyatini ular talabiga mos

holda yuritish – o‘tish davri uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi qayd etilgan. Iqtisodiyot o‘z qonunlariga ega bo‘lgani sababli uni siyosiy kurashlar, turli mafkuralar qurboniga aylantirish mumkin emas. Iqtisodiyot mafkuraviy tazyiqlarsiz o‘ziga xos ichki qonunlarga muvofiq rivojlanishi lozim. Biroq, bu iqtisodiyotga siyosat ta’siridan tamomila holi deb qarashni bildirmaydi. O‘zbekistondagi taraqqiyot zaruratidan kelib chiq–qan siyosat iqtisodiyotga faol ta’sir qilishi lozim bo‘ladi.

Ikkinchi tamoyil – davlat bosh islohotchi bo‘lishi lozim. Davlat islohotlarning ustuvor yo‘nalishlarini belgilab berishi, ularni amalga oshirish yo‘lini ishlab chiqishi va unga izchillik bilan rioya etishi, eskilik tarafdorlari qarshiligini bartaraf etishi shart. Bu qoida madaniy bozor iqtisodiyoti konsepsiyasiga tayanadi. O‘zbekiston mustabid-rejali, ma’muriy-buyruqbozlik uslubida boshqarilgan iqtisodiyotdan erkin demokratik iqtisodiyot tomon borar ekan, G‘arb mamlakatlari asrlar davomida boshidan kechirgan tarixiy jarayonni o‘tashi shart emas. G‘arbda “beayov va tartibsiz” bozor iqtisodiyoti “yovvoyi kapitalizm” nomini olgan va uzoq davr amalda bo‘lgan.

O‘zbekistonda esa madaniy bozor iqtisodiyotiga tartibli ravishda o‘tish madaniy raqobatni shakllantirishi, sheriklik aloqalari, iqtisodiy barqarorlikning us–tun bo‘lishi, ommaviy farovonlik kabi belgilarga xos bo‘lishi kerakki, ularni davlatning ishtirokisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ikkinchi tamoyil davlat iqtisodiyotga minimal darajada aralashib, uni o‘z holiga qo‘yishi zarur, degan g‘oyalarni inkor etadi va davlatning bu borada faolligini bildiradi. Jahonda davlatning iqtisodiy sohadagi funksiyasiga oid to‘plangan tajriba demokratik jamiyatda davlatdan o‘zga umummilliy manfaatni ifodalovchi siyosiy institut bo‘lmasligini ko‘rsatdi.

Uchinchi tamoyil – qonunlarning va ularga rioya qilishning ustuvorligini ta’minlash. Buning ma’nosi shuki, demokratik yo‘l bilan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlarini hech qanday istisnosiz hamma hurmat qilishi va ularga so‘zsiz rioya qilishi lozim. Bu tamoyilga ko‘ra, qonunlar siyosiy hokimiyatni ta’minlovchi kuch, ularga jamiyat a’zolarini yuridik qonunlarga bo‘ysundiruvchi mexanizm sifatida qaraladi. Qonunlar va qonun osti hujjatlar barchaning faoliyatiga tegishli, ammo ular ham eskiradi, ularni hayot taqozosiga ko‘ra yangi qonunlar bilan almashtirish zarur, ya’ni qonunchilikka ijodiy yondoshuv talab qilinadi. Iqtisodiy hayotga xos bo‘lgan o‘zgaruvchanlik yuridik qonunlarni ham o‘zgartirib borishni talab qiladi. Uchinchi tamoyil talablari yangicha qonunchilikni yaratishni taqozo etadiki, bu birinchidan, O‘zbekistonning milliy mustaqilligini, ikkinchidan, bozor islohotlarini amalga oshirish uchun huquqiy baza yaratadi. Uchinchi tamoyil siyosiy tizimning bozor iqtisodiyoti talablariga monand tarzda demokratlashuvini bildiradi. Bu tizim sharoitida inson huquqlari, erki, farovonligini ta’minlash bosh vazifaga aylanadi.

To'rtinchi tamoyil – faol ijtimoiy siyosat o'tkazish. O'zbekistonda bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda, aholining demografik holatini hisobga olgan holda, uni ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rish lozim bo'ladi. Bu tamoyil iqtisodiyot va ijtimoiy sohalarning dialektik aloqadorligiga tayanga holda sotsial siyosat yuritish zarurligini asoslaydi. O'zbekistonning iqtisodiy taraqqiyoti ijtimoiy sohaning moddiy bazasini mustahkamlashi, ijtimoiy sohaning rivojlanishi esa inson omilini faollashtirib, iqtisodiyotga kuchli ta'sir ko'rsatishi zarur. Ikki sohaning dialektik aloqadorligi ishlab chiqarishning moddiy va insoniy omillari yaxlitligidan kelib chiqadi. O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tish modeli bozor iqtisodiyotidagi ijtimoiy yo'naltirilgan, xalq farovonligini ta'minlashga qaratilgan bozor xo'jaligi bo'lishini anglatadi. Shu maqsad yo'lida yuritiladigan ijtimoiy siyosatning kuchliligi ijtimoiy adolatni ta'minlashi, kishilarda boqimandalik kayfiyatini bartaraf etishi va ularda faollikni yuzaga keltirish bilan jamiyatdagi sotsial inoqlikni, sotsial guruhlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashni bildiradi. Bu siyosat inson omilini kuchaytirib shu orqali iqtisodiy taraqqiyotga kuchli ta'sir etadi.

Beshinchi tamoyil– bozor iqtisodiyotiga asta-sekin, bosqichma-bosqich o'tish. Bu tamoyil O'zbekiston modelining tamal toshi, uning asosiy mezonidir. Bozor iqtisodiga o'tish bu mavjud iqtisodiy tuzumni ta'mirlab takomillashtirish emas, balki tamoman yangi bozor tizimini yaratishni bildiradi. Bu yo'l revolyusion emas, balki evolyusion yo'ldir. Bu o'tish davri bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oluvchi uzoq davr ekanini bildiradi va odamlar uchun mutlaqo yangi hayot falsafasi hisoblanadi.

Mazkur tamoyilga binoan islohotlar tadrijiy yo'l bilan, ular mustabid-rejali iqtisoddan sekin-asta bozor tizimiga o'tishini, ammo bu talofatsiz, larzalarsiz bo'lishini bildiradi. Shoshma-shosharlik bilan bozor qoidalarini hayotga joriy etib bo'lmaydi. Buning uchun tayyorgarlik va muayyan vaqt talab qilinadi. Bozor munosabatlari shakllanib ulgurmagan sharoitda mavjud aloqalarni buzib yuborish iqtisodni izdan chiqarishi, aholi turmushini keskin pasaytirib, sotsial to'qnashuvlarga olib kelishi mumkin. Shu sababdan islohotlar evolyusion tarzda va sharoit hozirlanishiga qarab ketma-ket o'tkazilishi kerak. Sekin-astalik va ehtiyotkorlik qoidasi "falaj terapiyasi" tamoyilini inkor etadi. Bu O'zbekistonning yangi tuzumga, bozor iqtisodiyotiga o'tishdagi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan milliy yo'li edi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ishlab chiqqan milliy model o'ziga xos bo'lib, unda bozor iqtisodiyotining ma'lum bir turi yoki muayyan bir davlat yo'li to'g'ridan to'g'ri ko'chirib olingani yo'q. Uni tanlashda mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy sharoiti va salohiyatdan, xalq-qimizning tarixi, milliy urf-odatlarini, diniy e'tiqodidan kelib chiqildi. Bunda ko'plab rivojlangan davlatlar tajribasi mukammal o'rganildi va inobatga olindi.

Dunyo amaliyotida o'tish davri uchun mukammal modelning o'zi yo'q. Negaki, bir davlatning yo'li boshqalar uchun mutlaqoto'g'ri kelmasligi mumkin. Har bir mamlakat o'ziga xos siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, geopolitik va tabiiy-geografik sharoitga ega. Shu ma'noda har bir davlat o'z iqtisodiy rivojlanish modeliga ega bo'lishi kerak.

Mustahkamlash uchun savollar.

1. Mahalliy davlat hokimiyati organlarini sanang. Ular o'z faoliyatini qaysi qonunlar asosida yuritadi?
2. Hokimyat organlarining bo'linish prinsplari?
3. Iqtisodiy islohotlarning bosqichlari va undagi belgilangan vazifalar dastlab nimalardan iborat bo'ldi?
4. O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida qanday tadbirlar amalga oshirildi?
5. Qishloq xo'jaligi sohasidagi islohotlar o'zgarishlar haqida nimalarni bilasiz?

4-mavzu: O‘zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o‘zgarishlar. Mustaqillik yillarida O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.

Reja:

1. Ijtimoiy va ma’naviy islohotlar konsepsiyasi. O‘zbekistonning ma’naviy yangilanish davrida amalga oshirilgan o‘zgarishlar.
2. O‘zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyoti.
3. Milliy g‘oya va mafkuraning zarurligi. Mafkuraviy bo‘shliqning salbiy oqibatlari

O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy, siyosiy islohotlarni oshirish bilan bir vaqtda ma’naviy merosimizni, madaniy qadriyatlarimizni tiklash va ularni xalqimizga etkazish borasida keng ko‘lamda faoliyat olib borilmoqda. O‘tish davri mashaqqatli va sinovli yillar bo‘lib, barcha sohalarida islohotlar olib borildi va davom etmoqda. Ayniqsa, ma’naviy hayotimizda asrlarga barobar ulkan ezgulik ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, “Eng buyuk jasorat nima degan savolga, hech ikkilanmasdan ma’naviy jasorat, deb javob bersak, o‘ylaymanki, adashmagan bo‘lamiz”, – dedi O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

Jamiyat ma’naviyati mamlakat barqarorligi va taraqqiyotining muhim sharti va kafolatidir. Tarixdan ma’lumki, mamlakatimiz bir necha bor ajnabiy bosqinchilar hujumiga duchor bo‘lgan, qaramlik va zulm ostida qolgan. Buning oqibatida xalqimizning boy ma’naviy merosi, urf-odatlar qadsizlanishga mahkum bo‘lgan. Ayniqsa, Rossiya imperiyasi va sovetlar tuzumi davrida milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz oyoq osti qilindi. Ona tilimiz, boy ma’naviy merosimiz qadsizlantirildi, ko‘plab masjid-madrasalar, milliy maktablar, tarixiy yodgorliklar buzildi, qarovsiz qoldi.

O‘zbekiston davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgan kundan boshlaboq mamlakatimizda boy ma’naviy merosimizni tiklash va rivojlantirish, jamiyat ma’naviyatini yuksaltirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Jamiyat ma’naviyatini tiklash va yuksaltirishni ta’minlovchi ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning yo‘nalishlari belgilab olindi. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganidek, “Moddiy islohotlar, iqtisodiy islohotlar o‘z yo‘liga. Ularni hal qilish mumkin. Xalqning ta’minotini ham amallab turish mumkin. Ammo, ma’naviy islohotlar – qullik va mutelik iskanjasidan ozod bo‘lish, qadni baland tutish, ota-bobolarimizning udumlarini tiklab, ularga munosib voris bo‘lish – bundan og‘irroq va bundan sharafliroq vazifa yo‘q bu dunyoda”.

Shu o‘rinda “ma’naviy meros” haqida to‘xtalish muhimdir. “Ma’naviy meros” – qadim zamonlardan beri ajdodlarimiz, ota-bobolarimizdan bizgacha etib kelgan ma’naviy boyliklar – siyosiy, falsafiy, huquqiy va diniy qarashlar, axloq-odob me’yorlari, ilm-fan yutuqlari, tarixiy, badiiy va san’at asarlari majmuidir. Ma’naviy qadriyatlar, boyliklar inqilobiy yo‘l bilan hosil qilinadigan hodisa emas,

u jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida uning ehtiyojlari tufayli yuzaga keladi va o'sha davr hayotini aks ettiradi, u jamiyat o'zgarishi bilan yo'qolib ketmaydi, keyingi avlodlar uchun ma'naviy meros bo'lib qoladi. Har bir avlod ma'naviyatni yangidan yaratmaydi, mavjud ma'naviy merosga tayanadi, biroq uni qanday bo'lsa shundayligicha, ko'r-ko'rona qabul qilavermaydi, taraqqiyparvarlik, insonparvarlik, adolat nuqtai nazaridan qabul qiladi va rivojlantiradi.

Istiqlol tufayli milliy madaniyatimiz, jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokalonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Xalqimiz ulardan bahramand bo'lishga muyassar bo'ldi. Mustaqillik yillarida xalqimiz ma'naviyatining yulduzlari bo'lgan buyuk allomalarimizning tavallud topgan sanalari BMTning maorif, fan va madaniyat masalalari bilan shug'ullanuvchi tashkiloti – YUNESKO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Masalan:

- 1991yil (28 sentyabr)– Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi;
 - 1992yil – Boborahim Mashrab tavalludining 350 yilligi;
 - 1993yil (18 dekabr) – Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 510 yilligi;
 - 1994yil – Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi;
 - 1996yil – Amir Temur tavalludining 660 yilligi;
 - 1997yil (28 noyabr) – Abdulhamid Sulaymon o'g'li Choh'lon tavalludining 100 yilligi;
 - 1998yil (24 oktyabr) – Ahmad al-Farg'oniy tavalludining 1200 yilligi;
 - 1999yil (6 noyabr) –“Alpomish” dostonining 1000 yilligi(Termizda milliy epos qahramoni Alpomish xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmui barpo etildi);
 - 2000yil (16 noyabr) – Burhoniddin Marg'inoniy tavalludining 910 yilligi;
 - 2000yil – Kamoliddin Behzod tavalludining 545 yilligi;
 - 2001yil (3 noyabr)–“Avesto” yaratilganligining 2700 yillik yubileyiga bag'ishlab tantanali marosim o'tkazildi va yodgorlik majmui bunyod etildi.
- Respublika miqyosida ham bunday tadbirlar amalga oshirildi. Masalan:
- 1993 yil 16 sentyabr – Buxoroda buyuk mutafakkir Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi;
 - 1994 yil 24 – 25 sentyabr – Xorazmda davlat arbobi va shoir Feruz tavalludining 150 yilligi;
 - 1995 yil – ulug' shayx, tasavvufning taniqli vakillaridan biri Najmiddin Kubro tavalludining 850 yilligi;
 - 1998 yil 23 oktyabr – Farg'ona shahrida buyuk alloma Ahmad al-Farg'oniyni 1200 yilligi;
 - 1998 yil 23 oktyabr – Samarqandda ulug' vatandoshimiz, hadis ilmining sultoni Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi (mazkur marosimda dunyoning 40 ta mamlakatidan mehmonlar ishtirok etdi. Shu kuni Samarqand yaqinidagi Xartang qishlog'ida Imom Buxoriy yodgorlik majmuining ochilish marosimi bo'ldi);
 - 1999 yil yanvar – Xorazm viloyatida shoir va mutafakkir Pahlavon Mahmudning 750 yilligi;

□ 1999 yil 17 dekabr – Xorazmda o‘zbek shoiri, tarixchi Ogahiyning 190 yilligi;

□ 2000 yil 17 noyabr – Samarqandda buyuk fiqh olimi, kalom ilmining moturidiylik oqimi asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiyning 1130 yilligi (ushbu yubiley munosabati bilan Samarqand shahrida Moturidiy yodgorlik majmui ochildi. Toshkent va Samarqandda Moturidiy ta’limoti va uning islom olamida tutgan mavqeiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjumanlar o‘tkazildi);

□ 2003 yil 10 may – taniqli o‘zbek shoiri G‘afur G‘ulom tavalludining 100 yilligi (yubiley munosabati bilan Toshkent shahri markazidagi madaniyat va istirohat bog‘iga G‘afur G‘ulom nomi berildi va bog‘da shoir haykali ochildi);

□ 2003 yil 27 noyabr – Buxoro va G‘ijduvon shaharlarida tasavvuf ilmining yirik namoyandasi Abdulxoliq G‘ijduvoniy tavalludining 900 yilligi tantanali ravishda inshonlandi.

Yurtimizning buyuk allomalari va davlat arboblarning nomlarini ulug‘lash maqsadida yillarga ularning nomi berildi. Masalan:

1991 yil – Alisher Navoiy yili deb e’lon qilindi;

1993 yil – Ahmad Yassaviy yili deb e’lon qilindi;

1994 yil – Mirzo Ulug‘bek yili deb e’lon qilindi;

1995 yil – “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” shiori e’lon qilindi;

1996 yil – Amir Temur yili deb e’lon qilindi.

Bundan keyingi yillar ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga qaratildi.

1997 yil – “Inson manfaatlari yili”;

1998 yil – “Oila yili”;

1999 yil – “Ayollar yili”;

2000 yil – “Sog‘lom avlod yili”;

2001 yil – “Onalar va bolalar yili”;

2002 yil – “Qariyalarni qadrlash yili”;

2003 yil – “Obod mahalla yili”;

2004 yil – “Mehr va muruvvat yili”;

2005 yil – “Sihat-salomatlik yili”;

2006 yil – “Homiylar va shifokorlar yili”;

2007 yil – “Ijtimoiy himoya yili”;

2008 yil – “Yoshlar yili”;

2009 yil – “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili”;

2010 yil – “Barkamol avlod yili”;

2011 yil – “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili”;

2012 yil – “Mustahkam oila yili”;

2013 yil – “Obod turmush yili”;

2014 yil – “Sog‘lom bola yili”;

2015 yil – “Keksalarni e’zozlash yili”;

2016 yil – “Sog‘lom ona va bola yili”;

2017 yil – “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili”

2018 yil – “Faol tadbirkorlik, invasion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llab-quvvatlash yili”

2019 yil – “Faol investisiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili”

2020 yil – “Ilm ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili”

2021 yil – “Yoshlarni qo’llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili”

2022 yil – “Inson qadrini ulug’lash va faol mahalla yili” deb e’lon qilindi.

Buyuk allomalarimiz, mutafakkirlarimiz yubileyleri munosabati bilan ularning o’nlab nodir va noyob asarlari o’zbek, ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa tillarda nashr etildi, haykallar o’rnatildi, ziyoratgoh maydonlari, bog’lar yaratildi.

1991 yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 yilligi keng nishonlandi. Shu yili O’zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi, Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti ta’sis etildi. Yubiley yilida “Lison ut-tayr”, “Sab’ayi sayyor”, “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun”, “Hayrat-ul Abror” asarlari nashr qilindi, kinofilmlar va sahna asarlari yaratildi 1991 yil 28 sentyabr kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Nizomiddin Mir Alisher Navoiy haykali va Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston Milliy bog’ining ochilish marosimi bo’lib o’tdi. 2001 yil avgust Navoiy shahrida “Alisher Navoiy yodgorlik majmui” ochildi.

1993 yil 31 avgust – Toshkentda Amir Temur haykali ochildi. 1-sentyabrda esa Toshkentda Ulug’bek haykali ochildi. 1994 yil 13-15 oktyabr – Toshkent va Samarqandda Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yillik yubileyi tantanalari bo’lib o’tdi. Toshkentda Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yilligiga bag’ishlangan “Mirzo Ulug’bek va uning jahon taraqqiyotiga qo’shgan hissasi” mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o’tkazildi. Ulug’bek madrasasi, Ulug’bek yashagan davrdagi astronomik asboblari, Toshkentdagi Ulug’bek haykali aks ettirilgan pochta markalari muomalaga chiqarildi. Shu yil 24 oktyabrda Parijda YUNESKOning majlislar zalida “Ulug’bek va temuriylar davri” mavzusida Xalqaro konferensiya hamda “Ulug’bek va an’anaviy san’at” ko’rgazmasi bo’lib o’tdi. Bu tadbirlar Mirzo Ulug’bek qoldirgan ilmiy merosning umuminsoniy qadriyatga aylanishiga ko’maklashdi. Hozirda mamlakatimizning turli shahar va viloyatlarida buyuk allomalarimiz nomida istirohat bog’lari va kinoteatrlar, o’quv dargohlari va kutubxonalar, ko’chalar va xo’jaliklar faoliyat ko’rsatmoqda.

O’tish davrida O’zbekistonning uzoq va yaqin o’tmishi hamda mustaqillik yillari tarixini o’rganish, tadqiq etish masalasiga katta e’tibor qaratilmoqda. O’zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek, “Tarix xotirasi xalqning, jonajon o’lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini tiklash milliy o’zlikni anglashni, ta’bir joiz bo’lsa, milliy iftixorni tiklash va o’stirish jarayonida g’oyat muhim o’rin tutadi. Tarix – millatning haqiqiy tarbiyachisiga aylanib bormoqda. Buyuk ajdodlarimizning ishlari va jasoratlari tarixiy xotiramizni jonlantirib, yangi fuqarolik ongini shakllantirmoqda”.

Istiqlol yillari Vatanimiz tarixi va uning milliy davlatchiligi poydevorini o’rganish borasida puxta va jiddiy ish olib borildi. 1996 yilda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi qoshida “O’zbekistonning yangi tarix markazi” tashkil etildi. 1998 yil iyun oyida

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bir guruh tarixchilar bilan bo'lgan suhbatida o'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixini, tariximizning boshqa sahifalarini xolisona ilmiy asosda yoritish vazifalari belgilab berildi. 1998 yil 27 iyulda esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi. Mazkur Qarorda Respublika tarixchilari oldiga o'zbek xalqining o'zligini anglash bilan bog'liq bo'lgan muhim tarixiy muammolar, xususan, o'zbek xalqining kelib chiqishi tarixi, o'zbek davlatchiligi tarixi kabi boshqa ko'plab masalalarni ilmiy asoslangan holda xalqqa etkazish vazifasi qo'yildi.

O'tmish merosimizni puxta o'rganish, ochilmagan qirralarini izlab topish, mavjud manbalar asosida tarix sahifalarini ro'y-rost yoritish tarixshunosligimizning dolzarb masalasiga aylandi. Mustaqillik yillarida Vatanimiz tarixini yoritish va o'rganish masalalari partiyaviylik, sinfiylik yondashuvlaridan, hukmron kommunistik mafkuraga xizmatkor bo'lishdan xalos etildi. Necha o'n yillar davomida buzib ko'rsatilgan yoki so'z ochilmay kelgan tarixiy voqealarni xolislik, tarixiylik, haqqoniylik tamoyillari asosida yoritilgan qator ilmiy asarlar, darsliklar va o'quv adabiyotlari yaratildi.

Milliy davlatchiligimiz tajribasi, Amir Temur tuzuklari, Forobiy, Alisher Navoiylarning odil davlat qurish haqidagi dono fikr-mulohazalari mustaqillik davrida demokratik huquqiy davlat qurilishida katta madad berdi. 1995 yilda Amir Temur xalqaro xayriya jamg'armasi tashkil etildi. Yuqorida ta'kidlanganidek, Prezident Farmoni bilan 1996 yil Amir Temur yili deb e'lon qilindi. Shu yili Sohibqiron 660 yilligiga bag'ishlangan yubiley mamlakatimizda va YUNESKO qarori bilan jahon miqyosida nishonlandi. YUNESKO ning Parijdagi bosh qarorgohida Amir Temurga bag'ishlangan madaniyat haftaligi (1996 yil 20-26 aprel), "Temuriylar davrida fan, madaniyat va maorifning gullab-yashnashi" mavzuida ilmiy konferensiya va ko'rgazma bo'lib o'tdi. Amir Temurning shaxsi butun ma'rifiy insoniyatning boyligi ekanligi tan olindi.

Amir Temur yubileyi munosabati bilan o'nlab tarixiy obidalar ta'mirlanib, qayta tiklandi, yangi inshootlar qurildi, bog'lar yaratildi. 1996 yil 18 oktyabrda Samarqand va Shahrisabz shaharlari markazida ko'rkam Amir Temur maydoni barpo etildi va ulug'vor haykal o'rnatildi. 28 avgustda har ikki shaharga "Amir Temur" ordeni topshirildi. 1996 yil 18 oktyabr – Toshkentda Temuriylar tarixi davlat muzeyi tantanali ravishda ochildi. 1996 yil 23-26 oktyabr Toshkent shahrida "Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni" mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. 2001 yil 18 may – Shahrisabzda Amir Temur nomidagi madaniyat muzeyida ramziy Tinchlik ustunining o'rnatilishiga bag'ishlangan marosim bo'ldi. 2002 yil 12-13 avgust – Temuriylar tarixi davlat muzeyida "Markaziy Osiyo tarix ko'zgusida: eng qadimdan hozirgacha" mavzuida xalqaro ilmiy anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanda 10dan ortiq xorijiy mamlakatlardan kelgan taniqli olimlar ishtirok etdi. 1999 yil 5 noyabrda vatanparvar siymo, xalq qahramoni Jaloliddin Manguberdi tavalludining 800 yilligi nishonlandi. Shu kuni Urganch shahrida Jaloliddin Manguberdi xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmui barpo etildi.

Istiqlol yillarida o'zbek xalqi va o'zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan qadimiy shaharlarning yubileyi ham respublika miqyosida keng nishonlandi. Masalan:

□ 1993 yil 11 dekabr – YUNESKOning qarori bilan Buxoroning tarixiy markazi Umumjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritildi. 1997 yil 18-19 oktyabr kunlari Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi. "Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi – uchinchi ming yillikka" mavzuida xalqaro simpozium bo'lib o'tdi.

□ 1997 yil 20 oktyabr – Xiva shahrining 2500 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi.

□ 2002 yil 2 aprel – Termiz shahrining 2500 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'lib o'tdi.

□ 2002 yil 1 noyabr– SHahrisabz shahrining 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'ldi.

□ 2003 yil 12 sentyabr– Nukus shahrining 70 yilligi nishonlandi va shahar «Do'stlik» ordeni bilan mukofotlandi.

□ 2006 yil 27 oktyabr – Qarshi shahrining 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim bo'ldi.

□ 2006 yil 2 noyabr – Xorazm Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi Xivada tantanali nishonlandi.

□ 2007 yil 24-26 may – Samarqandning 2750 yilligiga bag'ishlangan "Samarqand shahrining umumbashariy madaniy taraqqiyot tarixida tutgan o'rni" mavzuida xalqaro ilmiy simpozium o'tkazildi.

□ 2007 yil 25 avgust – Samarqand shahrining 2750 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi. Bu marosim Samarqandda 1997 yildan buyon an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Sharq taronalari" VI xalqaro musiqa festivaliga ulanib ketdi.

□ 2007 yil 7 sentyabr – Marg'ilon shahrining 2000 yillik yubileyiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi.

□ 2009 yil 26-27 may – Toshkent shahrining 2200 yillik yubileyiga bag'ishlangan "O'zbekiston poytaxti Toshkent – 2200 yoshda" mavzuida xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazildi.

□ 2009 yil 1 sentyabr – O'zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrining 2200 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosim o'tkazildi. Bu marosim O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 18 yillik tantanalariga ulanib ketdi.

Vatanimiz ozodligi yo'lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandlarining nomi, izzat-ikromi, hurmati o'z joyiga qo'yildi, asarlari nashr etildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbusi bilan Toshkentda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida 2000 yil 12 mayda Toshkentning Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv bo'yida "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmui ochildi. 2001 yil 31 avgust – qatag'on qurbonlarini yod etish kuni sifatida O'zbekistonda ilk bor o'tkazildi. 2002 yil 31 avgust – Toshkentning "Shahidlar xotirasi" yodgorlik majmuida "Qatag'on qurbonlari xotirasi" muzeyi

bunyod etildi. 2008 yil 31 avgustda muzeyning qo‘shimcha binosi va yangi ekspozitsiyasi ham ochildi.

Yurtimizda davlat tomonidan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish va bu urush yillarida fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini tiklanishi, abadiylashtirish masalasiga ham katta e‘tibor berilmoqda. 1999 yil 2 martda O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 9 mayni “Xotira va qadrlash kuni, deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi Farmoni e‘lon qilindi. Farmonning ijrosi sifatida 1999 yil 9 mayda O‘zbekiston Respublikasida birinchi bor 9 may – “Xotira va qadrlash kuni” sifatida nishonlandi. Shu yilda Toshkentda Ikkinchi jahon urushi yillarida fashizmga qarshi Vatan ozodligi uchun jon fido etgan xalqimizning farzandlari xotirasini abadiylashtirish maqsadida “Xotira va qadrlash maydoni” majmuasi barpo etildi va 9 may kuni uning ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

1996 yil 4 dekabrda tashkil etilgan O‘zbekiston Respublikasining “Nuroni” jamg‘armasi tashabbusi bilan janglarda halok bo‘lgan 400 mingga yaqin vatandoshlarimiz haqida 34 jildlik “Xotira” kitobi tayyorlandi va nashr etildi. Mazkur tadbirlar xalqimizda milliy ongni yuksaltirishga, tarixiy xotiraning tiklanishiga, yoshlarni milliy istiqloq g‘oyalari ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Har bir xalqning o‘ziga xos milliy qadriyatlari mavjud. Shu jumladan o‘zbek xalqi ham o‘ziga xos betakror milliy qadriyatlariga egadir. Milliy qadriyatlar deganda – millat uchun muhim va zarur bo‘lgan jahatlar, xususiyatlar, moddiy va ma‘naviy boyliklarga aytiladi.

O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi tufayli milliy qadriyatlarga e‘tibor kuchaydi. Negaki, milliy qadriyatlar mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlaydigan ma‘naviy asoslardan biridir. Xalqimizning asrlardan-asrlarga meros qolib kelayotgan milliy qadriyatlari uzoq tarixiy jarayonda shakllangan. Ularni o‘tmishi 3 ming yildan ortiq davrni o‘zida mujassamlashtirgan O‘rta Osiyo sivilizatsiyasi yaratdi. Bizning milliy qadriyatlarimiz ana shu sivilizatsiyaga xos jihatlar bilan, ya‘ni tug‘ilgan makon va ona yurtga ehtirom, avlodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga hurmat, muomalada mulozamat, hayo, andisha kabilarning ustuvorligi bilan ham xarakterlanadi. Milliy qadriyatlarimizda jahonning boshqa xalqlariga o‘xshamaydigan urf-odatlar, rasm-rusumlar, marosimlar va an‘analar ham mavjud.

O‘zbek xalqiga xos quyidagi jihatlar uning milliy qadriyatlari sifatida boshqa xalqlar tomonidan e‘tirof etilgan:

- ☐ tug‘ilgan makon va ona yurtiga ehtirom;
- ☐ avlodlar xotirasiga sadoqat;
- ☐ kattalarga hurmat, kichiklarga izzat;
- ☐ mehmondo‘stlik;
- ☐ bolajonlik;
- ☐ ma‘naviyat–axloq–odob–ma‘rifat;
- ☐ muomalada mulozamat, hayo, andishalilik;

□ og‘ir kunlarda vazminlik, sabr-toqat va hokazo. Mustaqillik yillarida xalqimizning milliy qadriyatlarini tiklash, yangi ma‘no-mazmun bilan boyitish yo‘lida bir qator xayrli ishlar amalga oshirildi. Xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri “Navro‘z” bayramidir. Navro‘z qadimdan O‘rta Osiyo va Sharq mamlakatlarida yashovchi xalqlarning qadimiy an‘anaviy bayrami sifatida nishonlanib kelingan. Biroq, sobiq sovet tuzumi davrida (XX 80-yillari o‘rtalaridan) asossiz ravishda Navro‘z diniy bayram va marosimlar qatorida man qilindi.

1990 yildan boshlab O‘zbekiston hukumatining qarori bilan 21 Mart – “Navro‘z” milliy xalq bayrami kuni sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e‘lon qilindi. 1992 yilda esa Navro‘z bayramiga rasmiy maqom berilib, u tiklandi. Hozir O‘zbekistonda Navro‘z umumxalq bayramlaridan biri sifatida nishonlanadi. Har yili shu kuni respublikaning barcha viloyatlaridagi xiyobon va maydonlarda bayram sayllari tashkil qilinadi. Bir necha kun mobaynida mahallalarda Navro‘zga bag‘ishlangan tadbirlar o‘tkaziladi, sumalak, halim va boshqa taniq taomlar pishiriladi. Navro‘z kunlari hokimliklar, mahallalarning faollari, xayr-ehson tashkilotlari – mehribonlik uylari bolalari, urush va mehnat faxriylari, yolg‘iz keksalar huzuriga tashrif buyurib, ularni qutlab, sovg‘a-salomlar ulashadi. O‘zbekistonda o‘zbek xalqining ma‘naviy-madaniy merosini tiklash va bu sohadagi muhim tadbirlarni amalga oshirish maqsadida 1994 yil 23 aprelda “Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Bu markaz o‘zbek xalqining ma‘naviy-madaniy merosini tiklash, millat kelajagini belgilaydigan g‘oyalarni yuzaga chiqarish, yuksak iste‘dod va tafakkur sohiblarining aqliy-ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yo‘naltirishga qaratilgan muhim tadbirlar, anjumanlar, ko‘rgazmalar tashkil etishni yo‘lga qo‘ydi. Markaz tomonidan aholi orasida o‘tkazilgan sotsiologik tadqiqotlar, so‘rovlar asosida ishlab chiqilgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar jamoat birlashmalari, ilmiy-ijodiy muassasa va tashkilotlar, ommaviy axborot vositalarining ma‘naviy-tarbiyaviy faoliyati saviyasini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etdi. 1996 yil 9 sentyabrda qabul qilingan “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazi ishini yanada takomillashtirish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni jamiyat ma‘naviyatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

1996 yil yanvarda Respublika “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazi huzurida “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg‘armasi tuzildi. 1996 yil 27 sentyabrda Respublika Vazirlar Mahkamasining “Oltin meros” xayriya jamg‘armasini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qaroriga binoan mazkur jamg‘arma davlat tomonidan moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlandi. Bu qarorida o‘tmish milliy madaniyatimizni yanada taraqqiy ettirish, buyuk ajdodlarimizning asrlar davomida yaratgan bebaxo madaniy-ma‘rifiy merosini ko‘z qorachig‘iday asrab-avvaylash, kelgusi avlodlarga yodgorlik qilib qoldirish, xalqimizning umuminsoniy qadriyatlar xazinasiga qo‘shgan ulkan xissasini butun dunyoga qayta tanitish, uni keng targ‘ib etish, kishilarimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ongiga milliy

g'urur, milliy iftixor, Vatanga muhabbat va istiqlool g'oyalariga sadoqat tuyg'ularini singdirib borish kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar beriladi.

“Oltin meros” xayriya jamg'armasi “Xalq merosi durdonalari” ilmiy anjumanlarini, xorijdan izlab topilgan qo'lyozmalar, tarixiy hujjatlar, xalq hunarmandchiligi amaliy san'at namunaari, yodgorliklarini tahlil qilish, ko'rik-tanlovlar o'tkazish bilan shug'ullanmoqda. 1996-2002 yillarda “Oltin meros” jamg'armasi sa'y-harakatlari natijasida buyuk allomalarimiz yaratgan ko'plab madaniy-ma'naviy meros namunalari mamlakatimizdan va xorijiy davlatlardan izlab topildi, jamlandi hamda kutubxona va muzeylarga joylashtirildi. SHuningdek, u xalqimizning rasm-rusumlarini, urf-odatlarini, marosimlarini o'rganish, tiklash, xalqimizga qaytarish, ularning ma'no-mohiyatini, hozirgi kundagi ahamiyatini keng ommaga tushuntirish ishiga katta hissa qo'shmoqda.

2006 yil 25 avgust – Respublika “Ma'naviyat va ma'rifat” markazi Respublika Ma'naviyat targ'ibot markazi hamda Milliy g'oya va mafkura ilmiy-amaliy markaziga aylantirildi. Hozirda mamlakatimizda O'zbekiston kutubxonachilik pedagoglari assotsiatsiyasi, “Shahidlar xotirasi” hayriya jamg'armasi, “Oltin meros” xalqaro xayriya jamg'armasi, Amir Temur xalqaro hayriya jamg'armasi, Bobur nomidagi xalqaro jamg'arma, “Ijtimoiy fikr” jamoatchilik markazi, O'zbekiston ma'rifatparvarlar jamiyati, bastakorlar uyushmasi, O'zbekiston badiiy ijodkorlar uyushmasi va boshqa ma'naviy-ma'rifiy tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda. Istiqlool sharofati bilan O'zbekistonda diniy qadriyatlar, diniy e'tiqod qayta tiklandi. Xalqimiz ma'naviy jihatdan ko'pgina afzalliklarga ega bo'lgan islom dinini qadrlaydi. Barchamizga ma'lumki, ona diyormizda islom sivilizatsiyasi rivojiga o'zining ulkan hissasini qo'shgan islomshunos allomalar yashab o'tgan. Masalan, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy islom dini ta'limotida Qur'oni Karimdan keyingi asosiy manba hisoblanuvchi “Al-Jomi' as-sahih” (“Ishonchli to'plam”) deb nomlangan (“Sahihi Buxoriy” nomi bilan ham ataladi) 4 jild (juz) dan iborat hadislar to'plamini yaratib, islom dinini boyitdi. Bobokalonlarimiz Imom Abu Mansur al-Moturidiy, shayxulislom Burhoniddin al-Marg'inoniy, Bahouddin Naqshband, Imom at-Termiziy, Xo'ja Ahmad YAssaviylar insonni ma'naviy etuklikka chorlovchi diniy, axloqiy va huquqiy hikmatlarning ijodkoridirlar.

Ammo sovetlar hokimiyati davrida jamiyatni batamom milliy va din qadriyatlardan uzoqlashtirishga harakat qilindi. Dinga qarshi keng miqyosda tashviqot-targ'ibot ishlari olib borildi. Ko'p asrlik ma'naviy qadriyatlardan voz kechish yo'lidan borildi. Masjid va madrasalarni yopib, binolardan xo'jalik maqsadlarida foydalanish yoki ataylab qarovsiz qoldirildi. Ruhoniylar qatag'on qilindi. 1927, 1936-37, 1949 yillarda uch karra “katta tozalashlar” o'tkazildi. Buning oqibatida ma'naviyat va ma'rifatga talafotlar etkazildi. Bu, fuqarolarning e'tiqod erkinligi huquqiga qilingan oshkora tajovuz edi. 1990 yillarda dinga bo'lgan munosabat ancha erkinlashdi. Xususan, 1990 yil 14-17 sentyabr kunlari Toshkentda islom dini arboblardan Muhammad Iso Termiziyning tug'ilganiga 1200 yil to'lishiga bag'ishlangan Butunjahon islom konferensiyasi bo'lib o'tdi.

Mustaqillik sharofati bilan O‘zbekistonda diniy qadriyatlar to‘la tiklana boshladi. Qaramlik davrida tahqirlangan diniy qadriyatlarimiz mustaqillik nuri bilan qayta tiklandi, islomshunos allomalarimizning ulug‘ nomi va ilmiy merosi tiklandi.

1993 yil sentyabrda Buxoroda mashhur shayx Bahouddin Naqshband tavalludining 675 yilligi tantanalari bo‘lib o‘tdi. Yubiley munosabati bilan Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog‘liq tarixiy yodgorliklar qaytadan tiklandi, uning ijodiga bag‘ishlangan qator risolalar chop etildi. 1998 yil 23 oktyabrda Samarqandda buyuk mutafakkir Imom al-Buxoriy tavalludining hijriy-qamariy taqvim bo‘yicha 1225 yilligi nishonlandi. Shu kuni Xartang qishlog‘ida Imom al-Buxoriy yodgorlik majmui ochildi. 2002 yil 5 iyun – Imom Buxoriy yodgorlik majmuida “Islom va dunyoviy- ma’rifiy davlat” mavzuida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman ochildi. 2000 yil 16-17 noyabr kunlari Marg‘ilonda islom huquqining asoschilaridan biri Burhoniddin al-Marg‘inoniy tavalludining 910 yilligi, Samarqandda islomshunos olim Imom Abu Mansur al-Moturidiy tavalludining 1130 yilligi nishonlandi va ular xotirasiga bag‘ishlab barpo etilgan yodgorlik majmualari ochildi (2000 yil). Burhoniddin al-Marg‘inoniyning islom huquqiga bag‘ishlangan “Hidoya” kitobi nashr etildi. Shuningdek, Mahmud az-Zamaxshariyning 920 yilligi, Abduholiq G‘ijduvoniyni 900 yilligi, Najmiddin Kubroning 850 yilligi, Xoja Ahrori Valiy tavalludining 600 yilligi keng ko‘lamda nishonlandi.

Mustaqillik sharofati bois mo‘tabar Qur‘oni Karim va hadislarni chop etish imkoniyati qo‘lga kiritildi. Jumladan, 1991 yilda Qur‘oni Karim ilk bor o‘zbek tilida Alouddin Mansur tarjimasi va Imom al-Buxoriyning “Sahihi Buxoriy” – 4 jildli hadislari to‘plami o‘zbek tiliga tarjima qilinib, uning 1-jildi ilk bor nashr etilgan edi (2-jildi –1996, 3-jildi – 1994, 4-jildi – 1992 yilda chikdi; kitobning ikkinchi nashri 1997 yilda chop etildi). 2001 yilda Qur‘oni Karimning Abdulaziz Mansur tarjimasi, 2004 yilda esa ilmiy-tarixiy izohlari bilan (Mutallib Usmon va boshqalar tarjimasi) chop etildi. Hozirgi kunda Mo‘yi muborak madrasada O‘zbekiston Musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanayotgan XII asrga oid “Usmoni Qur‘on” nusxafi va nodir qo‘lyozmalar saqlanmoqda.

Mustaqil O‘zbekistonda davlat organlari va diniy tashkilotlar rahbarlari o‘rtasida o‘zaro hamjihatlik va xayrixohlik munosabatlari qaror topdi. 1991 yil 14 iyulda O‘zbekiston huquqiy tajribasida birinchi bor “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” Qonun qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingach vijdon erkinligi, davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar konstitutsion tamoyillar asosida tartibga solinda. 1998 yil 1 mayda “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida” Qonunning yangi tahriri qabul qilindi. 1992 yil 27 mart O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ro‘za hayiti va Qurbon hayitining birinchi kunlarini dam olish kuni deb e‘lon qilish to‘g‘risida”gi Farmoni imzolandi. O‘zbekiston Prezidentining 1990 yil 2 iyundagi “Musulmonlarning Saudiya Arabistoniga Haj qilishi to‘g‘risida”gi Farmoniga binoan O‘zbekiston xalqi tarixida birinchi marta bevosita hukumat homiyligida har yili Haj va Umra amallarini ado etish imkoniyatlariga ega bo‘ldilar. Mustaqillik yillarida 32 mingdan ortiq o‘zbekistonliklar Makka va Madinada Haj safarida

bo'ldilar. Yuzlab masjidlar musulmonlarga qaytarildi, yangilari barpo etildi. "Islom nuri" gazetasi chiqmoqda. Bu tadbirlar faqat dindorlar uchun qilingan marhamatgina emas, ular aslida xalqimizning qadimiy rasm-rusum va udumlarining, qadriyatlarining tiklanishi, ajdodlar ruhining qayta uyg'onishidir.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1992 yil 7 martdagi farmoni bilan Islom dini omilidan, uning ma'naviy imkoniyatlaridan keng foydalanish maqsadida Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida din ishlari bo'yicha qo'mita tashkil etildi. Uning tasarrufida Xalqaro islom – tadqiqot instituti va 10 ta madrasa faoliyat ko'rsatmoqda. Ularda 1000 dan ortiq talaba-yoshlar ta'lim olmoqdalar. Islom ta'limoti va falsafasini keng o'rganish, o'zbek xalqining diniy, tarixiy va madaniy merosini chuqur ilmiy tadqiq etish, yuqori malakali dinshunos, huquqshunos va iqtisodchilarni tayyorlash maqsadida 1999 yil 7 aprelda Toshkent islom universiteti tashkil etildi.

2007 yil – Islom konferensiyasi tashkilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha muassasi – ISESSO (AYSESKO) tomonidan Toshkent shahri Tripoli (Liviya), Fes (Marokash), Dakar (Senegal) shaharlari qatorida Islom madaniyatining 2007 yildagi poytaxti deb e'lon qilindi. 2007 yil 14-15 avgust – Toshkent va Samarqand shaharlarida Toshkent shahrining 2007 yildagi Islom madaniyati poytaxti deb e'lon qilinishiga bag'ishlangan "O'zbekistonning islom sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan hissasi" mavzuida xalqaro konferensiya o'tkazilib, unda 30 dan ortiq davlatlardan kelgan olimlar qatnashdi. Bugungi kunda respublikada 17 diniy konfessiya ro'yxatga olingan va rasman faoliyat ko'rstamoqda. 170 dan ortiq diniy tashkilotlar ishlab turibdi va ularda O'zbekistonda yashovchi 130 millat va elat vakillari o'zlarining diniy ehtiyojlarini qondirmoqdalar. 1,7 mingdan ortiq masjidlar, xristian ibodatxonalari va boshqa diniy markazlar ta'mirlandi va yangidan qurildi.

Mustaqillik yillarida fan va madaniyatning rivojlanishi. Mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy qayta qurishlar qatorida madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar ro'y berdi. Bu avvalo ilm-fan, adabiyot, teatr san'ati, milliy musiqa, me'morchilik sohalarida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yutuqlarimiz ta'lim tizimidagi tub o'zgarishlarda yaqqol namayon bo'lmoqda. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning tashabbusi bilan ta'limni tubdan isloh qilish yo'llari ishlab chiqildi. 1992 yil 2 iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni hamda 1991-1996 yillarda e'lon qilingan 30 dan ziyod Prezident farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida ta'lim sohasida qator o'zgarishlar amalga oshirildi.

O'zbekistonda ta'lim tizimlari faoliyati bevosita boshqaruvini ikki vazirlik – Xalq Ta'limi Vazirligi (XTV) hamda Oliy va O'rta Maxsus Ta'lim Vazirligi (OO'MTV) – amalga oshiradi. Mustaqillik yillarida xalq ta'limini isloh qilish, kadrlar tayyorlash tizimini mustahkamlash sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirildi. Yangi oliy o'quv yurtlari tashkil etilib, bilimlarning yangi tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. 2004 yil 21 may – O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning "2004-2009 yillarda maktab

ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy dasturi to'g'risida"gi Farmoni e'lon qilindi. Oliy ta'lim tizimidagi 16 universitetning 12 tasi mustaqillik yillarida tashkil etildi. Masalan, 1992 yil 15 martda viloyatlardagi pedagogika institutlari negizida Andijon Davlat universiteti, Buxoro Davlat universiteti, Termiz Davlat universiteti, Urganch Davlat universiteti, Qarshi Davlat universiteti tashkil qilindi.

Mustaqillik yillarida eng zarur zamonaviy mutaxassisliklar bo'yicha o'nlab yangi oliy o'quv yurtlari – Mudofaa vazirligi qoshida Harbiy akademiya, Ichki ishlar vazirligi qoshida Ichki ishlar akademiyasi, Bank- moliya akademiyasi, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent aviatsiya instituti, Navoiy tog'-konchilik instituti, Toshkent Moliya instituti va boshqalar tashkil etildi. 1997 yil 29-30 avgust kunlari Toshkentda birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX-sessiyasida bo'lib o'tdi. 27 avgustda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun (yangi tahrirda) va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilindi. Ularda ta'lim sohasidagi davlat siyosatining quyidagi asosiy prinsiplari belgilab berildi:

- ☐ ta'lim va tarbiyaning insonparvar, demokratik xarakterda ekanligi;
- ☐ ta'limning uzluksizligi va izchilligi;
- ☐ umumiy – o'rta, shuningdek o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining majburiyligi;
- ☐ o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining yo'nalishini: akademik litseyda yoki kasb-hunar kollejida o'qishni tanlashning ixtiyoriyligi;
- ☐ ta'lim tizimining dunyoviy xarakterda ekanligi;
- ☐ davlat ta'lim standartlari doirasida ta'lim olishning hamma uchun ochiqqligi;
- ☐ ta'lim dasturlarini tanlashga yagona va tabaqalashtirilgan yondashuv;
- ☐ bilimli bo'lishni va iste'dodni rag'batlantirish;
- ☐ ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim quyidagi turlarda amalga oshirilishi belgilandi:

- ☐ maktabgacha ta'lim;
- ☐ umumiy o'rta ta'lim;
- ☐ o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi;
- ☐ oliy ta'lim;
- ☐ oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim;
- ☐ kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash;
- ☐ maktabdan tashqari ta'lim.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsadi ta'lim sohasini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarashlar va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir.

Milliy dasturda, hayotimizning barcha sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan islohotlarga monand ravishda, ta'lim islohotlarini uch bosqichda amalga oshirish nazarda tutilgan.

Birinchi bosqich (1997-2001 yillar)da mavjud kadrlar tayyorlash tizimining ijobiy salohiyatini saqlab qolish asosida Ushbu tizimni isloh qilish va rivojlantirish

uchun huquqiy, kadrlar jihatidan, ilmiy- uslubiy, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratish vazifalari ro'yobga chiqariladi.

Ikkinchi bosqich (2001-2005 yillar)da Milliy dastur to'liq ro'yobga chiqadi, mehnat bozorining rivojlanishi va real ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni hisobga olgan holda unga aniqliklar kiritiladi.

Uchinchi bosqich (2005 va undan keyingi yillar)da to'plangan tajribani tahlil etish va umumlashtirish asosida, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollariga muvofiq kadrlar tayyorlash tizimi takomillashtiriladi va rivojlantiriladi.

O'zbekiston olimlari ota-bobolari yaratib ketgan ilmiy merosni chuqurroq o'rganib yanada boyitmoqdalar. Ular o'z milliy asarlari va kashfiyotlari bilan jahon ilm-fani va madaniyatiga munosib hissa qo'shmoqdalar. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 1992 yil 8 iyuldagi "Ilm-fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining mazkur farmonning ijrosini ta'minlashga yo'naltirilgan qarori ilm-fan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika Fanlar akademiyasi qoshida Ilmiy ishlanmalarni ichki va tashqi bozorda targ'ib etuvchi va tarqatuvchi innovatsiya tijorat markazi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoniga binoan Respublika Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy Attestatsiya komissiyasi tashkil etilishi munosabati bilan Fanlar Akademiyasining mavqei ortdi. 1997 yilda Prezident farmoni bilan Xorazm Fanlar akademiyasi qayta tiklandi. Respublikamizda ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining faoliyati yanada takomillashtirildi, shuningdek, Davlat va jamiyat qurilishi Akademiyasi, Bank-moliya Akademiyasi, Nukus va Samarqandda O'zbekiston Respublikasi FAning bo'limlari ochilgan. Ilmiy-tadqiqot ishlari xalq xo'jaligining turli tarmoqlarida faoliyat ko'rsatadigan ilmiy-tadqiqot institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalari, ilmiy markazlari, shuningdek, universitetlar va boshqa oliy o'quv yurtlarida ham olib boriladi. Ilmiy kadrlar Fanlar Akademiyasi tizimida ham, oliy o'quv yurtlari, xalq ta'lim tizimida ham tayyorlanmoqda.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng mamlakatda ilm-fanga alohida e'tibor berildi. Xalq xo'jaligi va madaniy hayotning tobora ortib borayotgan talablaridan orqada qolayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari tugatildi. Turmush taqozo etgan yangi institutlar ochildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 3 aprelidagi qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining yangi Nizomi tasdiqlandi. O'zbek olimlarining fan-texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat O'zbekiston, balki jahon hamjamiyatida ham tan olina boshlandi va ko'pchilik olimlarimiz davlatimiz mukofotlariga sazovor bo'ldilar va xorijiy davlatlar akademiyalariga ham haqiqiy, ham faxriy a'zolikka saylandilar. YUrtimizda ilm-fan sohasini rivojlantirishga o'zining xissasini qo'shgan olimlarini taqdirlash maqsadida O'zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasi al-Xorazmiy nomidagi, Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medallari ham ta'sis etildi. Hozirda Respublika ilmiy-tadqiqot majmuasi 362 ta akademik, oliy o'quv yurtlari va tarmoq muassasalaridan iborat. Ularning 101 tasi ilmiy-tadqiqot instituti, 55 tasi

oliy o'quv yurtlari tasarrufidagi ilmiy- tadqiqot laboratoriya va bo'limlari, 32 tasi ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi va eksperimental korxonalari, 30 tasi axborot – hisoblash markazlaridir. Fan sohasida 46 mingga yaqin kishi, jumladan, 2,8 ming fan doktori va 16,1 ming fan nomzodi tadqiqot ishlari bilan shug'ullanmoqda.

Mustaqillik yillarida badiiy adabiyotda milliylik, ming yillik tarixiy ijodiy an'analar, umuminsoniy qadriyatlar, erkin fikr yuritish tamoyillari tiklandi. Badiiy adabiyot sinfiylik, partiyaviylik, kommunistik mafkuraviylik kabi aqidalar hukmronligi illatlaridan ozod bo'ldi. Ijodiy faoliyatda mustaqillikni asrab-avaylash, demokratik davlat va ochiq fuqarolik jamiyati qurish, har tomonlama barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash, yurtdoshlarimiz ongida milliy istiqlool g'oyalarini shakllantirish kabi masalalar bosh mavzu sifatida o'rin egalladi.

Badiiy adabiyotda mustaqillikni asrab-avaylash, ozod va obod Vatan qurish, barkamol insonni tarbiyalash, milliy o'zlikni anglash kabi masalalar bosh mavzu bo'lib qoldi. Abdulla Oripov, Odil Yoqubov, Primqul Qodirov, Xurshid Davron kabi ijodkorlarning tarixiy roman, pesa va qissalarida ulug' bobokalonlarimiz Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqalarning siymolari umuminsoniy va milliy qadriyatlarga mos tarzda yangicha talqinda yoritildi. Mustaqillik yillarida o'zbek adabiyoti, adabiyotshunoslik fani taraqqiyotida ham yangi sahifalar ochildi. Asarlari zararli, o'zlari millatchi deb nohaq baholangan Cho'lpon, Otajon Hoshim, Munavvarqori singari millatparvar yozuvchi, ma'rifatparvarlar ijodi holisona o'rganilib, ularning asarlari chop etildi, teatr sahnalarida o'z o'rnini egalladilar. Ma'rifatparvarlar faoliyatining asl mohiyatini, adabiy, madaniy, siyosiy hayotdagi o'rnini ro'yi-rost ko'rsatish boshlandi. O'tmishda diniy va saroy adabiyoti vakili deb tamg'a bosilgan buyuk shoir va mutafakkirlar hayoti va ijodi o'rganilib, asarlari xalqqa qaytarildi.

Mustaqillik davri adabiyotining bayroqlari O'zbekiston qahramonlari Said Ahmad, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'zbekiston xalq shoirlari Muhammad Yusuf, Habib Sa'dullaevlar ijodiy faoliyati bilan butun xalqimiz fahrlanadi. Milliy istiqlool davridagi o'zbek adabiyotshunosligi oldida turgan muhim vazifalarni hal etishda Ozod Sharofiddinov, Begali Qosimov, Nayim Karimov, Erkin Karimov, Ahmad Aliev, Najmiddin Komilovlarning asarlari alohida o'rin egallaydi. T.Malikning romanlari, O.Matjon, O.Hojieva, X.Sultonov, A.Suyun, Y.Eshbek, H.Do'stmuhammad, Sh.Salimova singari shoir va adiblarning badiiy barkamol, g'oyaviy etuk asarlari o'zbek milliy istiqlool adabiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar jarayonida teatr san'ati ham rivojlandi. 1991-1994 yillarda bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi.

1993 yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlagan "Turkiston" saroyi nafaqat me'morchilikning yorqin namunasi, balki sahna guruhlari va atoqli artistlarning chiqishlari bo'ladigan dargohga aylandi. Andijonda jamoatchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan yoshlar teatri, Abbas Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom

Karimovning 1995 yil 20 oktyabrdagi “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atini yanada rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 1998 yil 26 martdagi “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmonlari asosida teatrlar davlat byudjeti hisobiga qo‘llab-quvvatlandi. Farmonga binoan Madaniyat ishlari vazirligi tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998 yilda “O‘zbekteatr” ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi tashkil etildi. Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma’naviy olamini, uning madaniy merosi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat hissini uyg‘otuvchi spektakllar yaratishda, iste’dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda, teatrlarning moddiy-texnikaviy bazasini mustahkamlashda, ijodiy xodimlarni ijtimoiy himoya qilishda ko‘maklashdi. Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995 yilda bepul ajratilgan 47 mln. ien (1500 ming AQSH dollari) qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihozlandi. Respublikamizda 41 ta professional teatr faoliyat ko‘rsatmoqda. Har bir viloyatda qo‘g‘irchoq teatrlari bolalarga xizmat qilyapti. 2001 yilda respublika teatr san’atida muhim tarixiy voqea sodir bo‘ldi. Hamza nomidagi O‘zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi, zamonaviy teatr uskunolari va mebellar bilan jihozlandi. Prezident Farmoni bilan unga Milliy teatr maqomi berildi.

Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e’tibor beryaptilar. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatri jamoalari “Sohibqiron”, Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri “Jaloliddin Manguberdi”, Abror Hidoyatov nomli o‘zbek davlat teatri “Buyuk ipak yo‘li” kabi tarixiy dramalarni sahnaga qo‘ydilar.

Teatrlarning 90-yillar ikkinchi yarmidagi repertuarlarida tarixiy p’essalar keng o‘rin oldi. 1996 yili Amir Temurning 660 yillik yubileyi munosabati bilan 10 ta yangi spektakl saxnalashtirildi. “Navro‘z – 97” teatr festivali munosabati bilan Sohobqiron obrazini ifodalovchi 14 spektakl namoyish etildi. 1998 yili al-Farg‘oniy, al-Buxoriylarni yubileylariga bag‘ishlangan p’essalar yaratildi. Mamlakatimizning boy tarixini namoyish etuvchi spektakllar Toshkentning etakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlarning teatr sahnalarida qo‘yildi. 1995-1997 yillari Respublika teatrlari tomonidan 313 yangi spektakllar qo‘yildi. Muxtasar aytganda, respublikamiz teatr san’ati xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz ma’naviyatini boyitish, ular ongiga Milliy istiqlol g‘oyasini singdira borish, vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirishda axloqiy, estetik tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda musiqa va raqs san’atini rivojlantirish maqsadida 1996 yilda “O‘zbeknavo” gastrol – konsert birlashmasi (2001 yildan “O‘zbeknavo” estrada birlashmasi nomini olgan) tashkil etildi. Unda musiqa va raqs san’atini rivojlantirishni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘zda tutildi. San’atni barcha sohalari, madaniy- ma’rifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti doimo e’tibor markazida bo‘lib keldi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1996 yil 31 dekabrdagi “Musiqa tahsilini yaxshilash

to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, o'quv yurtlariga 6,5 ming dona musiqa anjomlari ajratildi.

Islahotlar davrida sovetlar davridagi madaniyat o'quv ishlari qayta tuzilib, ko'plab yangi o'quv maskanlari tashkil etildi. 90-yillar oxirida mamlakatda 27 ta maxsus o'quv yurti faoliyat ko'rsatdi. Shundan bittasi oliy o'quv yurti, 20 tasi o'rta maxsus bilim yurtlari, 2 maktab – internat.

Mustaqillik yillarida milliy qo'shiqchilik san'ati ham rivojlandi. Respublika madaniyat ishlari vazirligi, 1992 yilda tashkil etilgan "Xalq ijodi va madaniy-ma'rifiy ishlar respublika Markazi", uning viloyatlardagi bo'limlari musiqa va qo'shiqchilik san'atini, havaskorlik va folklor jamoalari faoliyatini rivojlantirish, unutilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli xil ko'rik tanlovlar, festivallar tashkil etdilar. 1992 yilda Toshkentda "Asrlarga tengdosh navolar" va "Boqiy ovozlari", Xorazm viloyatida folklor jamoalari, Andijonda askiya, qiziqchi va masxarabozlarning, Qo'qonda katta ashula, lapar va yalla ijrochilarining ko'rik – tanlovlari o'tkazildi. 1994 yil may oyida Parijda bo'lib o'tgan "Sharq musiqasi" festivalida Munojot Yo'lbekova va Shavkat Mirzaevlar ishtirok etib, o'zbek milliy qo'shiqchilik san'atini jahonga namoyish etdilar.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1996 yil 27 avgustdagi "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiqlar bayrami to'g'risidagi farmoni qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1996 yilda barcha viloyat, shahar va tumanlarda o'tkazilgan "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq tanlovida 54 mingdan ziyod qo'shiqchilar qatnashdi. Bunday ko'rik tanlov har yili avgust oyida o'tkaziladigan bo'ldi va avgust oyining uchinchi yakshanba kuni "O'zbekiston – Vatanim manim" qo'shiq bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida Vatan, mustaqillikni e'zozlovchi yuzlab yangi qo'shiqlar yaratildi. "O'zbekiston – Vatanim manim", "Men seni sevaman, O'zbekiston", "Vatan yagonadir", "Mustaqillik gullari", "Ona yurtim", "O'zbekiston askarlari" qo'shiqlari shular jumlasidandir.

1997 yil 11 martda qabul qilingan Respublika hukumatining "Sharq taronalari" Xalqaro musiqa festivalini o'tkazish to'g'risida"gi Qarori musiqa san'atining noyob namunalari keng targ'ib qilish, rivojlantirishda dasturamal bo'lib xizmat qildi. 1997 yil 25 avgust – 2 sentyabr kunlari Samarqandda bo'lib o'tgan "Sharq taronalari" birinchi Xalqaro festivalida dunyoning 40 dan ortiq mamlakatidan ijrochilar, san'atshunoslar, jamoat arboblari ishtirok etdi, festivalda yangragan o'zbek ohanglari, kuy-qo'shiqlari jahon uzra taraldi. Har ikki yilda Samarqandda «Sharq taronalari» Xalqaro festivalini o'tkazish an'ana tusini oldi. O'zbekistonda musiqa, raqs va qo'shiqchilik san'atini rivojiga har yili 31 avgust va 21 mart kunlari o'tkazilayotgan Mustaqillik va Navro'z kunlariga bag'ishlangan bayram tantanalari ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Millatimizning o'zligini anglashda milliy, tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o'rin tutadi. Moddiy madaniyatimizning asosiy sohalaridan bittasi muzeylar hisoblanadi. Muzeylar tarixiy yodgorliklar maskani, adabiyot, san'at, urf-odatlar, hayot obrazlarimizning moddiy va ma'naviy jihatdan bir ko'rinishi, kuzgusi, tasviri. Muzeylar qadimiy san'at, madaniyat asarlarining yig'indisi, asrab

saqlanadigan go'zal saroyidir. Muzeylar orqali o'tmishni, tarixni kurish, eslash, sezish, o'rganish mumkin. Muzey hozirgi kunimizni ham, kelajak rejamizni ham tasvirlaydi. Shu boisdan ham mustaqillik yillarida mavjud muzeylarni ta'mirlash, ularni yangi eksponatlar bilan boyitish, yangi muzeylar barpo etishga alohida e'tibor berildi.

1992 yilda Namanganda ulug' o'zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi, Xorazmda hofiz Hojixon Boltaev nomli maqomchilar muzeyi, Urganchda Xorazm xalq amaliy san'ati va tarixi muzeyi, Buxoroda temirchilik muzeyi, Samarqand viloyatining Oqtosh shahrida xalq baxshisi Islom shoir Nazar o'g'lining uy-muzeyi, 1993 yilda Toshkentda o'zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olimi Hadicha Sulaymonova muzeyi, O'zbek raqqosasi Mukarrama Turg'unboeva muzeyi, Navoiy viloyatining Tomdi tumanida mashhur cho'pon, ikki marta Mehnat Qahramoni Jaboy Bashmanov muzeyi, 1994 yilda Toshkentda xalq rassomi Usta Muhiddin Rahimov muzeyi, 1996 yilda O'zbekiston Gidrometeorologiya muzeyi, 1997 yilda Buxoroda mashhur zarb qiluvchi Salim Hamidov muzeyi, shuningdek oliy ta'lim muassasalarida ko'plab muzeylar ochildi.

1996 yil 1 sentyabr kuni Toshkentda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon-shuhrat muzeyi ochildi. Bu muzey o'zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalaridagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan, mamlakatimizda sport harakatining rivojini rag'batlantiradigan markaz bo'lib qoldi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning 1998 yil 12 yanvardagi "Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi Farmoni va uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan respublika hukumatining "Muzeylar faoliyatini qo'llab-quvvatlash masalalari to'g'risida"gi qarori mamlakatimizda muzey ishini rivojlantirish istiqbollarini belgilab berdi. Madaniyat ishlari vazirligi, "Oltin meros" jamg'armasi, Badiiy akademiya, Moliya vazirligi, Mehnat vazirligi muzeylar rahbariyati bilan hamkorlikda muzeylarning rivojlanishi va moliyaviy ta'minoti bo'yicha dastur ishlab chiqildi. Muzeylar davlat muhofazasiga olindi, ularni ta'mirlash, muzey eksponatlarini boyitish davlat byudjeti hisobidan moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlandi. Muzeylar faoliyatini muvofiqlashtirish, ilmiy-uslubiy yordam ko'rsatish, moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 1998 yilda "O'zbekmuzey" Respublika jamg'armasi tuzildi. Aholining muzeyshunoslik madaniyatini oshirishga ko'maklashuvchi "Moziydan sado" jurnali ta'sis etildi va u 1999 yildan boshlab o'zbek, rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. 1999 yilda davlat qaramog'idagi muzeylar 81 tani tashkil qilib, shulardan 15 tasi tarix muzeylari, 23 ta o'lkashunoslik, 10 ta badiiy san'at koshonasi, 20 ta memorial muassasa, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylaridir. Shuningdek, mamlakatning shaharlari va tumanlarida 510 muzey faoliyat ko'rsatmoqda.

Mamlakatimizning me'moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaharlar ro'yxatiga kiritilgan. 2500 ta me'moriy obida, 2700 ta arxeologik yodgorlik, 1800 monumental san'at asari davlat muhofazasiga olingan. Buxoro, Samarqand va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey-qo'riqxonalarida butun dunyodagi eng nodir tarixiy yodgorliklar, me'moriy obidalar, monumental san'at asarlari saqlanib qolgan,

davlat muhofazasida yangidan chiroy ochayotgan muzeylar sifatida e'tirof etilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, 2000 yil boshlarida O'zbekiston Respublikasi madaniyat ishlari vazirligi tasarrufidagi jami muzeylar 1.350 ming eksponantlarga ega bo'lgan. Hozirda ularning soni yana boyitib borilmoqda. Mustaqillik yillarida shaharsozlik va arxitektura qurilishi misli ko'rilmagan darajada avj oldi. O'zbekiston poytaxti – Toshkent shahrining qiyofasi tubdan o'zgardi, yuzlab zamonaviy, ko'rkam, osmono'par binolar bunyod etildi. Oliy Majlis, Prezident qarorgohi – Oqsaroy, Temuriylar tarixi davlat muzeyi, Toshkent shahar hokimligi, Turkiston saroyi, Respublika birja markazi, Biznes markaz, Markaziy bank, Milliy bank, Banklararo moliyaviy xizmatlar markazi, Xalqaro savdo – ko'rgazma xizmatlar majmuasi, O'zbekiston davlat konservatoriyasi, Interkontinental va Toshkent – Sheraton mehmonxonalari shular jumlasidandir. O'zbekistonning qadimiy shaharlaridagi tarixiy binolarni tiklash ishlari jadallik bilan olib borildi. Bunga Toshkent, Samarqand, Shahrisabz, Buxoro, Xiva shaharlarida qayta tiklangan o'nlab binolar, obidalar misol bo'la oladi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbqiq etish jarayonida yuzlab akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun mahobatli binolar bunyod etildi. Haykaltaroshlik, amaliy bezak san'ati, tasviriy an'atlarida ham an'anaviy va zamonaviy usullar uyg'unlashib etuk asarlar yaratildi va yaratilmoqda. O'zbekistonda qadimdan amaliy san'at o'ziga xos tarzda rivojlanib kelgan. Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik, pichoqchilik, zargarlik, ganchkorlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kashtachilik, zardo'zlik, gilamdo'zlik, bezakchilik kabi amaliy san'at turlari tiklandi va yangi ma'no-mazmun bilan rivojlanib bormoqda. Mustaqillik sharofati bilan dizayn san'ati ham jadal rivojlanmoqda. Tasviriy san'at, rassomchilik san'atining rivojida 1997 yilda tashkil etilgan O'zbekiston Badiiy akademiyasi va "Tasviriy oyina" respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o'ynadi. O'zbekiston xalq rassomlari Malik Nabiev, Bahodir Jalolov va boshqalar xalqimiz ongida milliy g'urur, Vatanga sadoqat tuyg'ularini uyg'otuvchi qator san'at asarlari yaratdilar. Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur Mirzo portretlari shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura san'ati yangi ma'no-mazmun bilan boyidi. Shahar ko'chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o'rnatildi, binolarning devorlari odamlarga huzur-halovat, zavq bag'ishlaydigan naqshlar bilan bezatildi.

Xulosa, O'zbekiston o'zining mustaqillik yillari davomida iqtisodiy-ijtimoiy boradagi yutuqlari bilan bir qatorda; mafkuraviy-ma'naviy, madaniy ishlarga ham e'tiborni kuchaytirib, jahonning rivojlangan davlatlari orasida o'z nufuzi va obro'sini yuqori ko'tarmoqda.

Milliy istiqlol g'oyasi. Jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish sohasidagi eng asosiy vazifa milliy istiqlol g'oyasini shakllantirish va odamlar ongiga singdirishdan iboratdir. 1993 yil 23 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning bir guruh adiblar bilan suhbat qilib, milliy istiqlol g'oyasini ishlab chiqish zaruratini asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasi Oliy

Kengashining XII sessiyasida 1993 yil 7 may kuni nutq soʻzlab, Oʻzbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov qoʻyidagilarni taʼkidladi:

□ Milliy istiqlol gʻoyasi xalqimizning azaliy anʼanalariga, udumlariga, tiliga, diliga, ruhiyatiga asoslanib, kelajakka ishonch, mehr-oqibat, insof, sabr-toqat, adolat, maʼrifat tuygʻularini ongimizga singdirishi lozim.

□ Shu bilan birga bu gʻoya xalqimizda oʻzining qudrati va himoyasiga suyanan holda, umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, jahon hamjamiyatidagi taraqqiy topgan davlatlar orasida teng huquqli asosda munosib oʻrin egallashiga doimiy intilish hissini tarbiyalamogʻi kerak.

“Tafakkur” jurnalining 1998 yil 2 sonida jurnal bosh muharririning savollariga Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning javoblari eʼlon qilindi. Mazkur javoblarda milliy gʻoyamizning nazariy va amaliy jihatlarini yanada chuqurroq yoritildi. Bugungi kunda sobiq Ittifoq zamonida hukmronlik qilgan, odamlarni qullik, mutelik holatiga solgan, manqurtga aylantirgan kommunistik mafkurani tanqid qilish, taʼqiq qilish, maʼmuriy choralar koʻrish yoʻli bilan engib boʻlmaydi. “Gʻoyaga qarshi faqat gʻoya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqat maʼrifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin”, – degan haq fikrni ilgari surdi Oʻzbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov.

Oʻzbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov suhbatda “Xoʻsh, milliy gʻoya, milliy mafkura nimalarni oʻzida mujassamlashtirishi va qanday talablarga javob berishi kerak?” degan savolni qoʻyadi va unga javob berar ekan, quyidagi dasturiy ahamiyatga molik fikr-mulohazalarni, vazifalarni ilgari suradi:

□ Milliy mafkura, avvalambor, oʻzligimizni, muqaddas anʼanalarimizni anglash tuygʻularini, xalqimizning koʻp asrlar davomida shakllangan ezgu orzularini, jamiyatimiz oldiga bugun qoʻyilgan oliy maqsad va vazifalarni qamrab olishi shart;

□ ikkinchidan, jamiyatimizda bugun mavjud boʻlgan xilma-xil fikrlar va gʻoyalar, erkin qarashlardan, har qanday toifalar va guruhlarining intilishlari va umidlaridan, har qanday insonning eʼtiqodi va dunyoqarashidan qatʼiy nazar, ularning barchasini yagona milliy bayroq atrofida birlashtiradigan, xalqimiz va davlatimizning daxlsizligini asraydigan, el-yurtimizni eng buyuk maqsadlar sari chorlaydigan yagona gʻoya – mafkura boʻlishi kerak;

□ uchinchidan, milliy mafkuramiz har qanday millatchilik va shunga oʻxshagan unsurlardan, boshqa elat va xalqlarni mensimaslik, ularni kamsitish kayfiyati va qarashlaridan mutlaqo xoli boʻlib, qoʻshni davlat va xalqlar, umuman jahon hamjamiyatida, xalqaro maydonda oʻzimizga munosib hurmat va izzat qozonishida poydevor va rahnamo boʻlishi darkor;

□ toʻrtinchidan, milliy gʻoya birinchi navbatda yosh avlodimizni vatanparvarlik, el-yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbiga insonparvarlik va odamiylik fazilatlarini payvand qilishdek oliyjanob ishlarimizda madadkor boʻlishi zarur;

□ beshinchidan, u Vatanimizning shonli o‘tmishi va buyuk kelajagini uzviy bog‘lab turishga, o‘zimizni ulug‘ ajdodlarimiz boqiy merosining munosib vorislari deb his qilish, shu bilan birga, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlariga erishmoqqa yo‘l ochib beradigan va shu maqsadlarga muttasil da‘vat qiladigan g‘oya bo‘lishi kerak.

Jamiyat ma‘naviyatini yangilash va yanada yuksaltirish bu g‘ungi kunda ham mamlakatimiz taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib turibdi. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti o‘zining «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz» ma‘ruzalarida islohotlarning yangi bosqichida ma‘naviyat sohasidagi vazifalarni asoslab berdi.

Hozirgi zamonda insonlarning qalbi va ongini egallash uchun mafkuraviy kurash bo‘layotganligi, ko‘p narsalarni mafkura maydonlarida bo‘layotgan kurashlar hal qilish mumkinligi, O‘zbekistonda ham ba‘zi yoshlarni yo‘ldan chalg‘itadigan diniy ekstremizm xafvi mavjudligi haqida ogohlantirilmoqda. 1980 yillarning oxirlarida mamlakatimizga o‘zini «do‘st», «dindosh», «millatdosh» qilib ko‘rsatib, go‘yo islom dinining sofligi uchun kurashishga «da‘vat» etuvchi ayrim kimsalar kirib kelganligi ma‘lum. Ular muqaddas islom dinimizni asl mohiyatini bilmaydigan oddiy odamlarni, g‘o‘r yoshlarni o‘z tuzog‘iga ilintirib, bizga begona bo‘lgan diniy aqidalarni yoyishga urindi, ayrim yoshlarni o‘ziga mahliyo qilishga, jaholat va jinoyat botqog‘iga tortishga ulgurishdi ham. 1991 yil 8 dekabrda Namangan shahrida va 1999 yil 16 fevral Toshkent shahrida sodir etilgan qonli voqealardan keyingina bu kuchlarning niyati hokimiyat uchun kurash bo‘lib, ular din niqobi ostida harakat qilayotgan xalqaro terrorchilik harakatining O‘zbekistondagi bir to‘dasi ekani oshkor bo‘ldi. Mustaqillikning dastlabki yillarida eski mafkuradan voz kechish natijasida paydo bo‘lgan bo‘shliq vaziyatida begona g‘oyalarning O‘zbekistonga xuruji kuchaydi. Bunday mafkuraviy ta’sirlar salbiy oqibatlarga olib kelmasligi uchun nima qilish kerak? «Buning yo‘li – odamlarimiz, avvalambor yoshlarimizning iymon- e’tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o‘z mustaqil fikriga ega bo‘lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash... Farzandlarimiz yuragida ona – Vatanga, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sog‘lom munosabatni qaror toptirishimiz, ta’bir joiz bo‘lsa, ularning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishimiz zarur». Shunday qilib, Milliy istiqlol g‘oyasining ma’no-mazmuni ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish, Vatan ravnaqi, yurt tinchligi va xalq farovonligiga erishish, komil insonni tarbiyalash, ijtimoiy hamkorlik, millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘ri kenglikni ta’minlash kabi insonparvar tamoyillarni o‘zida uyg‘unlashtirgan holda shakllandi. Milliy istiqlol mafkurasining asosiy maqsadi: ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish!, - deb belgilandi.

Mamlakatimizda milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tamoyillari ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, adabiyot va san’at, mahallalar va mehnat jamoalari tomonidan odamlar ongi va qalbiga singdirilmoqda. Barcha

ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayoniga «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanini o'qitish joriy etildi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ijtimoiy va ma'naviy islohotlar konsepsiyasi haqida nimalar bilasiz?
2. O'zbekistonning ma'naviy yangilanish davrida qanday o'zgarishlar amalga oshirildi ?
3. O'zbekistondagi ma'naviy va madaniy taraqqiyoti deganda nimani tushunasiz ?
4. Nima ushun milliy g'oya va mafkura zarur?
5. Mafkuraviy bo'shliqning salbiy oqibatlari deganda nimani tushunasiz?

5-mavzu: O'zbekiston Respublikasida ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasi.

Reja:

1. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi"ning qabul qilinishi va unda belgilangan vazifalar.
2. O'zbekistonda kadrlar tayyorlash sohasidagi o'zgarishlar. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi.
3. Mustaqillik yillari Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy yangilanishi, qishloq xo'jaligi va ma'naviy-madaniy sohadagi o'zgarishlar.

Ta'lim sohasidagi islohotlarning asosiy yo'nalishlari uning demokratik, insonparvarlik tamoyillarini qaror toptirish, xalqimizning tarixiy an'analari va pedagogikasi, shuningdek, jahon xalqlari pedagogikasining ilg'or yutuqlari asosida ta'lim mazmunini tubdan o'zgartirish, shu maqsadda o'qituvchilar, pedagogik jamoalarning tashabbuskorligiga keng imkoniyatlar ochib berish va uni har tomonlama rag'batlantirish, bilim va ko'nikmalarining puxtaligini ta'minlaydigan zamonaviy didaktik vositalar qo'llashni keng ko'lamda yo'lga qo'yish, shu asosda ta'lim mazmunini yaxshilashga erishishdan iborat bo'ldi.

Bugungi kungacha o'tgan davr mobaynida O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga va uning taraqqiyot istiqbollari mos keladigan ta'lim tizimini tashkil qilishga olib keldi. Unda quyidagilar ko'zda tutilgan:

- ta'lim tizimini bozor iqtisodiyotiga va ochiq jamiyatga qayta yo'naltirish;
- aholining turmush farovonligini oshirishning zarur sharti sifatida ta'lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratish;
- ta'lim xizmatlarining barqaror va sifatli ko'rsatilishini ta'minlash maqsadida ta'lim sohasini moliyalashtirish tizimini yaxshilash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish;
- ta'lim sektorining boshqaruvini takomillashtirish.

O'zbekistonda davlatning bu sohadagi siyosati va Ta'limni isloh qilish Konsepsiyasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1997 yil 29 avgustda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi yangi tahrirdagi Qonun hamda Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'z aksini topdi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi 3 bosqichdagi islohotlar asosida amalga oshirildi. 1-bosqich – 1997-2001 yillarda dasturni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik, moliyaviy-moddiy shart-sharoitlar yaratildi. Buning uchun davlat tomonidan qo'shimcha ravishda 65 milliard so'm mablag' sarf qilindi. Bu bosqich kadrlar tayyorlash dasturining moddiy-texnik ba'zasini yaratish davri deb nomlandi. 2-bosqich – 2001-2005 yillarni o'z ichiga olib, milliy dastur keng miqyosda joriy etildi. Bu bosqich Kadrlar tayyorlash milliy dasturining sifat

bosqichi deb nom oldi. 3-bosqich – 2005 yildan boshlanib, undan keyingi yillarni ham o‘z ichiga olmoqda. Bu bosqichda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ijrosi yakuniga etkazilib, erishilgan natijalar, to‘plangan tajribalar umumlashtirilib, tahlil etilmoqda hamda shu asosda yurtimizda yangi ta‘lim tizimi yanada takomillashtirilmoqda. Shu boisdan bu bosqich ta‘lim tizimini modernizatsiyalash davri deb atalmoqda.

Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi quyidagi maqsadlarni o‘z oldiga qo‘ygan:

- ta‘lim tizimida kadrlarning salohiyatini har tomonlama takomillashtirish hamda o‘qituvchilar, ustozlar va ilmiy xodimlarning professional nufuzini oshirish;
- ta‘lim tizimini tarkibiy qayta qurish, ta‘lim va professional dasturlarni tubdan o‘zgartirish, ta‘lim, fan, texnologiya, iqtisodiyot va madaniyat sohasidagi jahon yutuqlariga tayanish;
- majburiy o‘rta umumta‘lim, o‘rta maxsus, professional ta‘lim va tarbiya tizimiga o‘tishni ta‘minlash.

«Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonunning yangi tahriri va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi qabul qilinganidan so‘ng respublikamiz butun ta‘lim tizimi, jumladan, oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash yo‘nalishi ham tubdan isloh qilishning aniq strategik dasturiga ega bo‘ldi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining O‘zbekistonga xos eng muhim xususiyati – yangi turdagi 3 yillik o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi tizimini yaratishdan iborat vazifa sobitqadamlik bilan amalga oshirildi. Zamonaviy o‘quv va ishlab chiqarish uskunalari bilan jihozlangan kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar barpo etildi, yangi ta‘lim standartlari va axborot texnologiyalari, interaktiv usullar o‘quv jarayoniga tatbiq etildi.

Oliy ta‘limda bakalavriat va magistratura tizimi joriy qilindi. Jahon standartlariga xos oliy ta‘lim tizimiga o‘tildi. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovningso‘zlari bilan aytganda «Bilimdon, professional jihatdan savodli hamda g‘ayrat-shijoatli shaxslarni, o‘z mamlakatimizning chinakam vatanparvarlarini tarbiyalay oladigan, ularni buyuk milliy madaniyatning ulkan ma‘naviy merosi bilan boyita oladigan, jahon fani va madaniyati durdonalaridan bahramand eta oladigan mamlakatgina, millatgina buyuk kelajakka erishishi mumkin». Ta‘lim tizimi O‘zbekiston Respublikasining «Ta‘lim to‘g‘risida»gi qonuni bilan belgilangan bo‘lib, maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va professional ta‘lim, oliy professional ta‘lim, oliy ta‘limdan keyingi ta‘lim, malaka oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta‘lim shakllarida tashkil qilindi. Kadrlar tayyorlash Milliy dasturining amalga oshirilishi natijasida O‘zbekistonda nisbatan qisqa muddatlarda dunyoning etakchi davlatlarida ta‘lim sohasida erishilgan ilg‘or yutuqlar, milliy an‘analarni o‘z ichiga olgan prinsip jihatdan yangi modeli tashkil qilindi.

1999-2000 yilgi o‘quv yilidan boshlab umumta‘lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘lim muassasalarida o‘qitish jarayoni yangi o‘quv rejalari va dasturlari asosida olib borilmoqda. Yangi turdagi bilim yurtlari – akademik litseylar va kasb-

hunar kollejlari tarmog'i kengaytirilib, yangilari ishga tushirildi. Oliy ta'lim tizimida mutaxassislarni tayyorlashning ikki bosqichli tizimi bakalavriatura yo'nalishi va magistratura mutaxassisliklari joriy qilindi. Oliy ta'lim O'zbekistonda davlat tasarrufidagi oliy ta'lim muassasalari tizimi orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida ikki bosqichli oliy ma'lumot beriladi: kamida 4 yil muddatli bakalavriat va kamida 2 yil muddatli magistratura. Bunday tizim oliy ta'limning moslanuvchanligi, turli bosqichlarda tanlangan maqsad va vazifaga muvofiq ta'lim yunalishi va mutaxassisliklarni tanlab olish imkonini beradi. Ikki bosqichli oliy ta'limning joriy etilganligi O'zbekiston oliy ta'limining jahon ta'lim makoniga kirib borishini ta'minlamoqda.

O'tgan yillar davomida yurtimizda jahondagi nufuzli universitetlar bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatildi. Natijada, yuksak xalqaro obro'-e'tibor va chuqur tarixiy ildizlarga ega Evropa va Osiyoning etakchi oliy o'quv yurtlari Buyuk Britaniyaning Xalqaro Vestminster universiteti, I.Gubkin nomidagi Rossiya neft va gaz davlat universiteti, Italiyaning Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti, G.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot akademiyasi, M.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiallari tashkil etildi hamda muvaffaqiyatli faoliyat yuritmoqda. Ushbu oliy o'quv yurtlarida mashinasozlik, neft-gaz ishi, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot va biznes boshqaruvi, moliyaviy menejment, tijorat huquqi kabi mexnat bozorida talabi yuqori bo'lgan mutaxassislar bo'yicha bakalavr va magistrlar tayyorlanmoqda va ularning bitiruvchilari butun dunyoda tan olinadigan diplomlarga ega bo'lmoqda. Mamlakatimizning yuqori malakali mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoji asosida yangi zamonaviy yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlash ishlari boshlangani ham e'tiborga sazovordir. Yurtimiz va xorijdagi o'quv maskanlarida yuzlab iqtidorli yoshlar ta'lim olmoqda va o'z masalakasini oshirmoqda. Bunda xorijiy ta'lim muassasalari bilan ikki tomonlama tajriba almashish yo'lga qo'yilgani muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimizda nufuzli xalqaro tashkilotlar, chet ellik taniqli ekspert va mutaxassislar, tahlilchi va kuzatuvchilar ishtirokida ta'lim sifatini oshirishga doir ko'plab simpoziumlar, konferensiya va seminarlar o'tkazilmoqda.

2012 yil Toshkent shahrida bo'lib o'tgan xalqaro konferensiyada ko'plab yirik xalqaro tashkilotlar va moliya institutlari, jumladan, BMT, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Islom taraqqiyot banki vakillari, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Xitoy, AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya kabi dunyoning 48 davlatidan ta'lim tizimi rahbarlari, 8 ta xalqaro tashkilot va ta'lim jamg'armalaridan 270 nafar vakil, olimlar hamda mutaxassislar ishtirok etib, uzluksiz ta'lim sohasini rivojlantirish va yosh avlodni barkamol tarbiyalashning milliy modelini yaratishda O'zbekiston tajribasini o'rgandilar. Haqiqatan ham yurtimizda faol, intiluvchan, iqtidorli va yuksak ma'naviy fazilatlariga ega, zamonaviy bilim hamda kasblarni

chuqur egallagan bugungi va ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi bo'lgan yoshlarni voyaga etkazish uchun barcha shart-sharoit va imkoniyatlar yaratilgan. Konferensiya davomida quyidagi ko'rsatkichlar e'tirof etildi: Ta'limni rivojlantirishga yo'naltirilgan xorijiy texnik yordam hajmi o'tgan davrda 500 mln. dollardan oshib ketdi. Osiyo taraqqiyot bankining 290 mln. dollar mablag'i, Janubiy Koreya hukumatining 110 mln.dan ortiq, Jahon bankining 33 mln., OPEK fondi, Islom taraqqiyot bankining 42 mln., Germaniya hukumatining "KfV" banki orqali yo'naltirilgan qariyb 20 mln. va boshqalarning 100 mln. dollardan ortiq yordami ko'rsatildi. Prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganidek, "Bizning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan Dastur - bu boshqa modellarni qandaydir takrorlash yoki ulardan nusxa ko'chirish emas, aksincha, birinchi navbatda, rivojlangan demokratik davlatlarda to'plangan tajribani o'zida mujassam etgan va ayni paytda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hozirgi zamon talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan dasturdir".

Ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda, chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, bugungi dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boylikni egallashning eng muhim sharti hisoblangan xorijiy tillarni ham chuqur o'rganishiga katta ahamiyat berilmoqda. Bugungi kunda ta'lim sohasidagi barcha sa'y-harakatlar dastlabki natijasi sifatida bir necha xorijiy tillarda erkin gaplasha oladigan va shu bilan birga, o'z fikrini ona tilida ravon, go'zal va lo'nda ifoda eta oladigan yangi mutaxassislar avlodi namoyon bo'ldi. Oliy o'quv yurtlarida kadrlar tayyorlash, ta'lim tizimini isloh qilishning jahonda tan olingan, tajribada isbotlangan 4 ta modeli mavjud. Bular AQSh, Fransiya, Germaniya va Yaponiya mamlakatlarining modellaridir. Ular, garchi, umumiy qoida va yo'nalishlar bo'yicha bir-biriga yaqin bo'lsa-da, lekin mavjud mamlakatlarning hozirgi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy holati, milliy xususiyatlari hamda fuqarolarning yashash sharoitidan kelib chiqib, farq qiladi. Masalan, Yaponiya ta'lim tizimida «Oila» omiliga katta e'tibor berilgan. Amerika yoki Fransiyada esa mahalliy sharoitdan kelib chiqqan holda pullik maktablar joriy etilgan. Lekin ayrim mamlakatlarda o'zini oqlagan va samara bergan modellarni o'zga davlatlar uchun to'g'ridan-to'g'ri qo'llab yoki tatbiq etib bo'lmaydi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlar tajribalari chuqur o'rganilib, milliy hamda O'zbekiston Respublikasiga xos bo'lgan xususiyatlar, sharoitlar inobatga olingan holda kadrlar tayyorlash tizimining yangi modeli ishlab chiqildi. Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari: shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish tizimlari yaxlit ma'rifiy-tarbiyaviy, ijtimoiy-ma'naviy ierarxiyasi (hukmronligi)ning uzviy mushtarakligidan tashkil topgan.

Turli davlatlarda «barkamol inson» tushunchasiga turli sifatlar nisbati beriladi. Har bir davlat o'z fuqarolarida zamon talablariga mos sifatlar va jamiyat

maqsadlariga mos qadriyatlarni qaror toptirishga harakat qiladi. Doimiy yuksalish haqida qayg'uradigan etakchi davlatlarning bu boradagi tajribasi bilan tanishish foydadan xoli emas. O'zbekistonda ta'lim siyosati va uning ajralmas qismi hisoblangan Kadrlar tayyorlash milliy dasturi mamlakatimizning qo'lga kiritayotgan salmoqli ko'rsatkichlari bejiz emasligini isbotlab turibdi. O'z navbatida, o'zbek yoshlarining xalqaro bilim va sport arenalarda erishayotgan yutuqlarining o'ziyoq bu fikrning tasdig'i bo'la oladi. 1 oktyabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni umumxalq bayrami sifatida nishonlanishi, har yili ko'plab o'zbekistonlik hamkasblarimiz davlatimizning yuksak mukofotlariga loyiq ko'rilishi, ular o'rtasida "Yilning eng yaxshi fan o'qituvchisi" respublika ko'rik-tanlovi muntazam o'tkazib kelinayotgani buning tasdig'idir.

O'zbekistonda fuqaro tarbiyasi davlat siyosatining ustuvor sohasi bo'lib, asosan uch yo'nalishda: 1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi doirasida. 2. Milliy g'oyani singdirish vositasida. 3. Maktab umummilliy davlat dasturi asosida amalga oshirilmoqda. Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda maktab fuqaro tarbiyasini amalga oshiruvchi maskan sifatida tanlangan. Chunki maktabda bola bilim olishdan tashqari shaxs sifatida ham shakllanadi. Demak, maorif zimmasiga millat fuqarosini tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa yuklangan. Maorif, xalq ta'limi va oliy talim yo'li bilan komil inson qiyofasini yaratish zarur. O'zbekistonda har jihatdan faol insonni tarbiyalashga e'tibor qaratish, g'oyaviy tarbiya vositasida shaxsning salohiyatini maksimal darajada yuzaga chiqarishga erishish, har bir bola iqtidorini rivojlantirishga urg'u berilmoqda.

XXI asr-intellektual bilimlar asrida inson kapitalligi investitsiyalar yo'naltirishni ustuvor vazifa sifatida tanlagan mamlakatlarga yuksak tarraqiyotga erishishi mumkin. Faqat jamiyatgina zamonaviy tahdid va mummolarni engib o'tishga qodir bo'ladi. Bugungi kunda har qanday mamlakatning jahon bozorida raqobatbardoshligi nafaqat tabiiy resurslarning mavjudligi, balki birinchi navbatda, zamonaviy muntazam yangilanib turgan texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir, yuksak bilim va intizomli ishchi kuchini muntazam tayyorlashga bog'liq. Bunday ishchi kuchisiz iqtisodiyotning yuqori texnologiyalariga asoslangan zamonaviy tuzilmasini shakllantiradigan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etib bo'lmaydi.

Shu boisdan ham jamiyatda bilimli, ma'lumotli va yuksak intellektga ega kishilarning mavqeini oshirish ta'lim tizimini isloh etishning bosh maqsadi bo'lishi lozim. Ta'lim sohasida, zamonaviy kadrlar talab qilinadigan tarmoqlar vakillari o'rtasida xalqaro hamkorlik muntazam rivojlanmoqda. O'zbekistonda bugungi kunda ta'lim sohasida alohida e'tirof etib kelinayotgan yutuqlar sifatida maktab ta'limi mamlakatda yashayotgan turli millatlar ehtiyojlarini inobatga olgan holda 7 tilda – o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida olib borilayotganini ko'rsatish mumkin. Bunda har bir bitiruvchi majburiy ta'limdan so'ng o'z xohishiga ko'ra, oliy o'quv yurtlarida o'qishni davom ettirishi va bakalavr hamda magistr darajasini olishi mumkin. Har bir kollej tegishli

korxonalar bilan aloqa bog‘lagan. Respublikaning har bir o‘quv yurtida optik-tolali aloqa liniyalari asosida qurilgan yagona “ZiyoNet” axborot ta’lim tarmog‘ida ulangan axborot-resurs markazlari tashkil etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti boshchiligida tashkil etilgan maxsus Jamg‘arma bazasida bolalar sportini rivojlantirishga ustuvor e’tibor qaratilgan. Mamlakatda iqtidorli o‘quvchi-talabalar davlat tomonidan keng miqyosda qo‘llab-quvvatlanadi. Imtiyozli stipendiyalar va mukofotlar joriy etilgan. Ko‘rik-tanlovlarni muntazam o‘tkazib kelish yaxshi an’anaga aylangan. Ayni chog‘da, o‘zbekistonlik yoshlar xalqaro olimpiyadalar, san’at va madaniyat ko‘rgazmalarida faol qatnashib kelmoqda. Bularning hammasi mamlakat rahbarining ta’lim-tarbiya sohasiga qaratayotgan yuksak e’tibori, bu borada ro‘yobga chiqarilayotgan izchil islohotlar va kompleks chora-tadbirlar samarasidir .

O‘zbekiston ta’lim sohasidagi islohotlar respublikadagi ta’lim tizimi faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitida tub o‘zgarishlarga, uning yangidan barpo etilishiga olib keldi, boshqaruv usullari demokratlashdi, ta’lim muassasalarining, birinchi navbatda, maktabgacha ta’lim muassasalarining nodavlat sektori, ta’lim faoliyatini moliyalashtirishning yangi manbalari paydo bo‘ldi, ta’lim xizmatlari spektri kengaydi va iste’molchilar (aholi, ish beruvchilar) tomonidan bu xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlar shakllandi.

O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh etish dasturini joriy etish bo‘yicha amalga oshirilgan va amalga oshirilayotgan barcha ishlar, birinchi navbatda, mamlakatimizning uzoq muddatli manfaatlariga, uning hozirgi ancha murakkab rivojlanish bosqichining mavjud holati va xususiyatlariga javob beradi.

Mamlakat va millat rivojlanishi ilm-fan hamda jamiyatning intellektual salohiyatiga bog‘liq. Jahon sivilizatsiyasiga daxldor bo‘lgan eng zamonaviy ilmlarni egallamasdan, respublika milliy manfaatlariga xizmat qiluvchi fan sohalarini rivojlantirmasdan, fundamental, nazariy tadqiqotlar olib bormasdan jamiyatni taraqqiy ettirish mumkin emas.

1990 yili 14 dekabrda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining IV sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi tarkibida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Davlat suvereniteti to‘g‘risidagi” Deklaratsiya qabul qilindi. Mazkur Deklaratsiya 1991 yil 31 avgustda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi” Qonunda o‘zining huquqiy asosini topib, 1- va 17-moddalarida Qoraqalpog‘istonning hududiy yaxlitligi va mustaqilligi e’tirof etildi. Har ikki respublika o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar O‘zbekiston Respublikasining 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan Konstitutsiyasida (70-75 moddalar) o‘z aksini topdi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Kengashi o‘zining XII sessiyasida (1993 yil, 9 aprel) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qildi. Qoraqalpog‘iston milliy davlatchiligi o‘z taraqqiyoti tarixida birinchi marta insonparvar, adolatli, demokratik imtiyozlarga ega bo‘ldi. Ayni paytda u suveren respublikaning barcha

atributlariga ega. Jumladan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Oliy Majlisining 1992 yil 14 dekabrda bo‘lib o‘tgan XI sessiyasida Qoraqalpog‘iston Davlat bayrog‘i, 1993 yil 9 aprelda bo‘lib o‘tgan XII sessiyasida Davlat tamg‘asi, 1993 yil 4 dekabrda bo‘lib o‘tgan XIV sessiyasida Davlat madhiyasi tasdiqlandi.

Parlament–Qoraqalpog‘iston Respublikasi Juqorg‘i Kengesi hisoblanadi. 86 deputatdan iborat. Quyidagi davlat arboblari Parlament raislari bo‘lib ishladi: Dauletbay Shamshetov (1991-1992), Ubbiniyaz Ashirbekov (1992-1997), Timur Kamalov (1997-2002). 2002 yili 2 may kuni bu lavozimga Musa Tajetdinovich Erniyozov saylandi. Avvalgi Oliy Kengashdan farqi Jo‘qorg‘i Kengashga saylov ko‘ppartiyaviylik asosida o‘tkaziladi. Avvalgi saylovlarda Oliy Kengashni shakllantirish jarayonida ishchilar sinfi, kolxozchi dehqonlar, xalq ziyolilarining o‘rni va soni oldindan belgilab qo‘yilar edi. Buning ustiga Parlamentda vazifasi bo‘yicha albatta deputat bo‘luvchi o‘rinlar ham mavjud edi. Keyingi saylovlarda bunday yondoshuvdan voz kechildi. Deputatlarning o‘z saylovchilari bilan kundalik munosabati, yaqin muloqati yo‘lga qo‘yildi. Avvalgi parlamentda bu masalaga uncha e‘tibor berilmagan edi.

Ijroiya organi – Ministrlar Kengashi hisoblanadi. Quyidagi davlat arboblari Ministrlar Kengashi raislari bo‘lib ishladi: Amin Tojiev (1989-1992), Radjapboy Yo‘ldashev (1992-1995), Bahram Jumaniyazov (1995-1996), Saparbay Avezmatov (1996-1998), Amin Tojiev (1998-2002), Tursunbay Tangirbergenov (2002-2006). Hozirgi kunda Ministrlar Kengashi raisi bo‘lib Baxadыр Yangibaev ishlaydi.

Bugungi kunda O‘zbekiston markaziy byudjetidan Qoraqalpog‘istonga berilayotgan subvensiya, ya’ni moliyaviy yordam miqdori 9 milliarddan oshiq so‘mni, yoki butun Qoraqalpog‘iston byudjeti harajatlarining 75 foizini tashkil etmoqda. O‘zbekiston hukumatining amaliy yordami qoraqalpoq xalqining fidoiy mehnati tufayli keyingi yillarda Qoraqalpog‘istonda aholi turmush sharoitini yaxshilash, tub iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish borasida qator ijobiy natijalarga erishildi. Eng avvalo, elda tinchlik va barqarorlik mustahkamlandi. Hamjihatlik bilan yurt istiqboli yo‘lida mehnat qilishga sharoit yaratildi.

Respublikada mulkchilikning yangi shakllari paydo bo‘la boshladi. Ishlab chiqarish va xizmat sohasida nodavlat sektorning hissai oshib bordi. Sanoat, qishloq xo‘jaligi va savdoda nodavlat sektori hissasi 80-90 foizni tashkil etmoqda. Respublika iqtisodiyotining boshqa yo‘nalishlarida ham islohotlar izchil amalga oshirila boshlandi. Jumladan, bank tizimida ham jiddiy islohotlar amalga oshirildi. Bu erda davlat banklar bilan birga tijorat va xususiy banklari ham faoliyat ko‘rsatmoqda. Agrosanoat bank va sanoat-qurilish bank ixtisoslashtirilgan hissadorlik tijorat banklariga aylantirildi. “Tadbirkorbank”, “Asakabank”, “Aloqabank”, “Sabzavotbank”, “Zaminbank”, “Turonbank”, “Savdogarbank”, “G‘allabank” Qoraqalpog‘iston bo‘limlari tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston tarixida birinchi marta tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi.

Qoraqalpog‘istonda ulgurji va birja savdosi bilan shug‘ullanuvchi hissadorlik uyushmalari keng faoliyat ko‘rsatmokda. Tovar ishlab chiqaruvchilar, iste’molchilar va ishbilarmonlarning butun imkoniyatlarini ishga solish maqsadida ularning erkinligi va teng huquqligini ta’minlash choralari ko‘rildi.

Qoraqalpog‘istonda 51 ta mayda ulgurji tizim, shu jumladan 4 ta savdo uyi, 35 ta mayda ulgurji savdo do‘konlari va omborlar, 32 ta ko‘tara savdo bazasi hamda O‘zbekiston tovar xom ashyo birjasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi, 19 ta supermarket do‘konlari faoliyat ko‘rsatdi. 1999 yilning birinchi yanvarigacha bo‘lgan ma’lumotlarga qaraganda xususiylashtirishdan tushgan mablag‘larning umumiy hajmi 650 million so‘mni tashkil etdi. Uning 20 foizi respublika ijtimoiy taraqqiyotiga ajratildi. 50 foizi esa tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida imtiyozli kreditlar ajratishga sarflandi. Shu bilan birga Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlat mulkini xususiylashtirish qo‘mitasi xususiylashtirilgan korxonalar va tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 13,8 million so‘m kredit ajratdi. 2000 yilga kelib 2932 korxona xususiylashtirildi.

Bozor fondining faoliyati sezilarli ravishda faollashdi. 2000 yilga kelib respublika fond birjalari filiallarida 958 million so‘mlik aksiyalar sotildi. Respublikada 7807 kichik va o‘rta ishbilarmon korxonalari, 8977 yakka tartibdagi tadbirkorlar ro‘yxatga olindi. 1996 yil yakuniga ko‘ra ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 10 mlrd 355,7 mln so‘mni tashkil etdi. Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida nodavlat korxonalarining ulushi 90 foizga o‘tdi. Respublikada 1996 yilda amaldagi narxlarda 10 mlrd 754,4 mln so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarildi. Paxtadan ip ishlab chiqarish, ip gazlamalari, tayyor trikotaj buyumlar, iste’mol mahsulotlaridan un, makaron, mineral suvlar ishlab chiqarish kupaydi. Yigma temir-beton konstruksiyalari va detallari, toshdan bezakli materiallar tayyorlash, qandolatchilik mahsulotlari, o‘simlik yog‘i, uzum vinosi, salqin ichimliklar, osh tuzi ishlab chiqarish o‘tdi.

Sanoatda bir qator ijobiy o‘zgarishlar yuz berdi. Jumladan, 1995 yilda Xo‘jayli shahrida shisha idishlar zavodi qurilib foydalanishga topshirildi. 1996 yilda Qo‘ng‘irotda “O‘rga” gaz sanoati korxonasida gaz kondensati va tabiiy gaz qazib chiqarilishi boshlab yuborildi. Aholini gaz bilan ta’minlash darajasi 83 foizga etdi. “Qoraqalpog‘iston qurilish” aksionerlik jamiyatida Italiya firmalarining yuqori sifatli jihozlari bilan jihozlangan, yiliga 60 ming kv.m. marmar bloklari va plitalari ishlab chiqaradigan yangi mramor sexi ochildi. “Nukusun” zavodida esa spirt ishlab chiqaradigan yangi sexi qurildi.

Engil sanoat ishlab chiqarishning bazasi kengaya bordi. 1993 yili Nukusda “Kateks” to‘qimachilik majmuasi, 1995 yili Ellikqal’a tumanida “Elteks” to‘qimachilik majmuasi foydalanishga topshirildi. Nukus va Qo‘ng‘irotda un kombinatlari, To‘rtko‘lda 3 mln. shartli banka konserva mahsulotlari ishlab chiqaradigan zavod, Ellikqal’a tumanida esa shunday quvvatga ega konserva sexi foydalanishga topshirildi. 1995 yilda Qo‘ng‘irotda tumanida Markaziy Osiyoda

yagona hisoblangan yiliga 190 ming tonna kalsiyli soda ishlab chiqaradigan zavod qurilishi boshlandi. Zavod tarkibida kimyoviy Qo'ng'iro't-Beynov avtomobil trassasi, Navoi-Uchquduq-Nukus temir yo'li qurildi. Bu yo'l bilan ekologik toza va energiya sarflanmaydigan kaustik soda ishlab chiqarish ham ko'zda tutilgan. Qo'ng'iro't-Beynov avtomobil trassasi, Navoi-Uchquduq-Nukus temir yo'li qurildi. 1997 yil 1 yanvar holatiga respublikada 263 qishloq xo'jalik korxonasi faoliyat ko'rsatdi. Nodavlat sektorning jami ishlab chiqarilgan mahsulotdagi ulushi 98,3 foizni tashkil etdi. Paxta etishtirishda nodavlat korxonalarning hissasi 97,8 foizni, donchilikda 98,1 foizni, kartoshkachilikda 99,7 foizni, sabzavotchilikda 98,8 foizni, polizchilikda 95,1 foizni, bog'dorchilikda 98,5 foizni, pillachilikda 100 foizni, go'sht etishtirishda 98,9 foizni, sut va tuhum ishlab chiqarishda 99,4 foizni, qorako'l teri va jun etishtirishda 100 foizni tashkil etdi. Dehqonchilikda ekin maydonlarining tarkibi o'zgardi. G'alla maydonlari ekin maydonlarining 35,8 foizini tashkil etdi. Bug'doy va kartoshka etishtirish 3 marta, uzum etishtirish 4 marta ko'paydi.

Qoraqalpog'istonda dehqon fermer xo'jaliklari tashkil etish bo'yicha etarli tajriba to'plandi. 1998 yilga kelib 1686 fermer shirkatlar uyushmalari tashkil etildi. Ellikqal'a tumanida mavjud 14 ta jamoa xo'jaliklari dehqon-fermer xo'jaliklari uyushmasiga aylantirildi. Dehqonlarga meros qilib qoldirish huquqi bilan erlar uzoq muddatga ijaraga berildi. Lekin Qoraqalpog'istonda ana shu tajribani ommalashtirishga mutlaqo e'tibor berilmadi. 1992 yili Qoraqalpog'iston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligi tashkil etildi. 1992-2000 yillarda Jahon banki, Evropa rivojlanish banki va boshqa firmalar bilan 100 ortiq shartnomalar tuzildi. Respublikada 303 ortiq kushma korxonalar faoliyat ko'rsatmoqda. Qoraqalpog'iston Respublikasining tashqi savdodagi asosiy sheriklari Rossiya, AQSh, Janubiy Koreya, Shveysariya, Niderlandiya hisoblanadi. Eksport qilingan tovarlar hajmi 1996 yilda 122,9 mln dollarga teng bo'ldi. G'arb mamlakatlariga eksport qilingan xom ashyo 113,6 mln dollarni tashkil etdi. Paxta tolasi jami eksport mahsulotlarining 95 foizini tashkil etdi.

Tashqi savdo oborotida importning salmog'i 1996 yilda 46,2 foizni tashkil qildi. Import mahsulotlari tarkibiga asosan xalq iste'mol mollari, qora va rangli metallar, oziq-ovqat mahsulotlari kiradi. Yaqin xorijiy mamlakatlardan asosan shakar, bug'doy, mashina va jihozlar, agregatlar va ularning ehtiyot qismlari, quvurlar, avtomashinalar, ishlab chiqarishni komplektlovchi materiallar keltirildi. Lekin respublikaning imkoniyatlaridan to'la foydalanilmayapti. Masalan, 1999 yili respublika hududida 70 ga yaqin foydali qazilma konlari aniqlandi. Mustakillik yillarida respublikada ijtimoiy sohalar rivojlanishiga e'tibor kuchaydi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1992 yili 2 sentyabrda "Qoraqalpog'iston Respublikasi hududidagi tabiiy ofatlar oqibatlarini bartaraf etish, ijtimoiy va ekologik muammolarni echishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 405-sonli qaror qabul qildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi aholi punktlarini

elektrlashtirish to'la hal qilindi. Aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash darajasi 59,5 foizga etdi. 1992-1996 yillarda Tuyamo'yin suv omboridan respublika aholi punktlariga 2 ming 885 km vodoprovod tarmog'i olib kelindi. 4057,5 km gaz tarmoqlari etkazildi va tabiiy gaz bilan ta'minlash 85,4 foizni, shu jumladan shaharda 99,4 foizni, qishloqda 72,4 foizni tashkil etdi. Ko'plab sog'liqni saqlash ob'ektlari, kasalxonalar, poliklinikalar, tug'ruqxonalar va turar-joy binolari qurildi. Qoraqalpog'iston Respublikasi xalqi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning BMT minbaridan turib dunyo mamlakatlarini Orol dengizini saqlab qolishga qarata chaqirig'ini katta qoniqish bilan kutib oldi. Uning tashabbusi bilan 1994 yili 14 yanvarda Nukusda Markaziy Osiyoning beshta davlat Prezidentlari hamda Rossiya Federatsiyasining vakillari ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvda Orolga va Orolbo'yi aholisiga amaliy yordam berish masalasi muhokama etildi.

1995 yili xalqaro konferensiyada Nukus Deklaratsiyasi qabul qilinib, unda butun dunyo jamoatchiligi e'tibori Orol muammosiga qaratildi. Deklaratsiyada ovul va o'rmon xo'jaliklarini ilmiy tizimga o'tkazish, suv resurslarini foydalanishning iqtisodiy usullari va texnologiyasini ishlab chiqish, hududning tabiiy resurslarini boshqarish tartibini ushbu hududda yashovchi odamlarning turmush darajasini yaxshilash masalalari kun tartibiga qo'yildi. 1995 yili 24 oktyabrda BMTning 50 yilligiga bag'ishlangan Bosh Assambleya majlisida O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov "bugungi kuni xalqaro finans tizimlari bilan rivojlangan davlatlar qo'llab-quvvatlashsiz, BMTning tashkiliy rolisiz bu muammoni echish mumkin emas" deb aytdilar. Markaziy Osiyo davlatlari o'z kuchlari va chet el donorlari yordami bilan 2 mlrd. 686 mln. dollar investitsiya to'pladi. Shundan 856,25 ming dollar 1997 yili yuqoridagi ishlarga berildi. Orolni qutqarish fondi Nukus filiali tashkil etildi.

Ma'naviy qadriyatlarni qayta tiklashda Qoraqalpog'iston Respublikasi bayramlarini tashkil etish muhim rol o'ynadi: 21 mart – Navro'z, 1 yanvar – Yangi yil, 8 mart – Xotin-qizlar kuni, 9 aprel – Qoraqalpog'iston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, 9 may – Xotira kuni, 1 sentyabr – Mustaqil kuni, 1 oktyabr – Ustozlar kuni, 8 dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Ro'za hayiti, Qurbon hayiti.

Mustaqillik yillarida Nukus shahrining 60 va 70 yilligi, To'rtko'l shahrining 120 yilligi, Ajiniyoz Kosiboy o'g'li va Berdaq Kargabay o'g'lining 170 yilligi, Nukus pedagogik institutining 60 va 70 yilligi, Qoraqalpoq universitetining 25 yilligi, Allayor Do'stnazarovning 100 yilligi, Ernazar Alaqozning 200 yilligi, I.YUsupov va T.Kaipbergenovlarning 70 yilligi keng nishonlandi. Nukus pedagogik institutiga Ajiniyoz shoir nomi, Qoraqalpoq universitetiga Berdaq nomi berildi. Berdaq va Ajiniyoz, Ulug'bek haykallari o'rnatildi, Berdaq muzeyi, Amet va Aimxon Shamuratovlar muzeyi tashkil etildi.

1994 yili Qoraqalpog‘istonda Ma’naviy madaniyat va ma’rifat markazi tashkil etildi. Markaz raisi –Ibroxim YUsupov, hozir Ulmambet Xo‘janazarov. Shuningdek, “Oltin meros”, “Amir Temur”, “Nuroniy”, “Navro‘z” fondlari tashkil etildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasining fidoyi farzandlari Allaniyoz Uteniyo-zov, Agitoy Adilov, Onesya Saitova, Tulepbergen Kaipbergenov, Ibroxim Yusupovlar “O‘zbekiston Qahramoni” unvonini oldilar.

1993 yili respublika Ministrlar Kengashi qoraqalpoq tilida yangi lotin yozuviga o‘tish haqida qaror qabul qiladi. 1993 yili Nukusda turk-qoraqalpoq litseyi tashkil etildi. 1996 yili respublikada 743 ta umumta’lim maktabi faoliyat ko‘rsatdi. Hozir Qoraqalpog‘istonda 6 gimnaziya, 13 litsey, 19 kollej, 18 maktab-litsey, 6 bank-klass va biznes-maktablar faoliyat ko‘rsatmoqda. Respublikadagi 22 o‘rta maxsus o‘quv yurtlarining kunduzgi bo‘limlarida 11,8 ming o‘quvchi ta’lim olmoqda. 1990 yili Qoraqalpoq universiteti uchta fakulteti va ikkita bo‘limi asosida Nukus davlat pedagogik instituti qayta tashkil etildi. 1991 yili universitetning tibbiyot fakulteti asosida Toshkent pediatriya tibbiyot instituti Nukus filiali tashkil etildi. Unda talabalar soni 2001yili 1000 ga etdi. 1995 yili yanada universitetning qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyot fakultetlari asosida Toshkent agrar universiteti Nukus filiali, Toshkent arxitektura-qurilish instituti Nukus filiallari tashkil etildi. 2005 yili Toshkent informatsion texnologiyalar universiteti Nukus filiali tashkil etildi. Beshta oliy o‘quv yurtlarida 9 ming nafar talaba o‘qimoqda. 1991 yili O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog‘iston filiali bo‘lim statusiga ega bo‘ldi. Bo‘lim tarkibida Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Bioekologiya, Orol bo‘yi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar instituti tashkil etilib, mustaqillikdan avvalo uchta institut bo‘lsa, endi 6 ta institut tashkil etildi. Bulimni akademik S.Kamalovdan keyin akademiklar Ch.Abdirov, T.Eshanovlar boshqardilar. Hozirgi vaqtda bo‘lim raisi bo‘lib professor Nagmet Aimbetov ishlaydi.

Shuningdek, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ilmiy markazi Qoraqalpog‘iston bo‘limi tashkil etilib, tarkibiga Shamurat Musaev nomidagi Chimboy dehqonchilik instituti, “Sholi” uyushmasi, Oltinko‘l stansiyasi, molchilik, bog‘chilik, uzumchilik muassalari kirdi. Qishloq xo‘jaligi va iqtisodiyot sohalari bo‘yicha J.Mambetullaev va B.Mambetnazarov kabi akademiklarimiz mavjud. Bugungi kuni Qoraqalpog‘istonda 65 fan doktori, 600 dan ortiq fan nomzodi faoliyat ko‘rsatmoqda, shu jumladan 60 foiz fan doktori va 40 foiz fan nomzodlari mustaqillik davrida ilmiy unvonga ega bo‘ldi. Ilgari O‘zbekiston Fanlar akademiyasi haqiqiy a’zoliciga saylangan S.Kamalov (1979), Ch.Abdirovlar (1989) qatoriga 1994-2000 yillari J.Bazarbaev, A.Bakiev, T.Eshanov, A.Dauletov, X.Xamidov ham qabul qilindilar. 1997 yili esa ikki nafar rassom J.Izentaev va J.Kuttimuratov O‘zbekiston Respublikasi Badiiy akademiyasining akademikligiga saylandi. Tilshunos olimlar M.Kalenderov, R.Esemuratova, A.Turabaev, K.Dauletbaevlar, faylasuf Polat Seitov O‘zbekiston Respublikasi Beruniy

nomidagi davlat mukofotini oldilar. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Berdaq nomidagi davlat mukofotini A.Bakiev, R.Reimov, L.Konstantinova, J.Bazarbaev, K.Dauletova, M.Ametov, J.Saparniyazov, T.Eshanov, M.Ajibekov, S.Kamalov, K.Allambergenovlar oldilar. Ginekolog Oral Ataniyazova xalqaro “Goldman” nomidagi ekologik mukofot egasi bo‘ldi.

Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti olimlari Avstraliyaning Sidney universiteti olimlari va fransuz arxeologlari bilan birgalikda ekspeditsiyalar tashkil etmoqda. Tarixchilarimiz Qoraqalpog‘iston hududida turizmni targ‘ibot qilish maqsadida “Oltin marshrut”ni ishlab chiqib, unga Mizdaxkon, Elliqal’a yodgorliklarini kirgizdilar. 1997 yili sentyabrda Nukusda “Qirq-qiz” dostoni va turkiy folklorni tadqiq etish muammolariga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy anjuman bo‘lib o‘tdi

Mustaqil O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston dolzarb masalalari respublika shoir va yozuvchilari ijodida katta o‘rin egallaydi. O‘zbekiston qahramonlari, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq shoiri Ibrohim Yusupov, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq yozuvchisi To‘lepbergan Kaipbergenovlar qatoriga Tolıbay Kabulov, Xalmurat Saparov, Gulaysha Esemuratova, Kengesbay Raxmonov, Uzakbay Abduraxmanov, Murotbay Nizonov, Kengesbay Reimov, Saginbay Ibroximov, Kengesbay Karimov, Xalila Dauletnazarov, Jiyanbay Izbaskanov, Baktiyar Genjemuratov, Sharapatdin Ayapov, Gulistan Matyakupova, Nabiyra Toreshova, Munayxan Jumanazarova, Gulnara Nurlepesova, Abdimurat Atajanov, Xurliman Utemuratova, Sharigul Payzullaeva, Saylaubay Jumagulov, Bazarbay Kazakbaev va boshqalar kelib qo‘shildi. 1993 yili yanvarda Toshkentda Qoraqalpog‘iston madaniyati kunlari, noyabrda esa Qoraqalpog‘istonda Toshkent madaniyati kunlari o‘tkazildi. 1993 yili Toshkent konservatoriyasida milliy “Ajiniyoz” operasi ijro etildi. 1996 yili qoraqalpoq xoreografiyasi tarixida birinchi marta “Oyjamol” nomli balet sahnalashtirildi. Kompozitorlardan N.Muxammaddinov, K.Zaretdinov, G.Amaniyazov, Sh.Paxratdinov, T.Esirkepov va boshqalar mustaqillik yillari yaxshi faoliyat ko‘rsatmoqda. Muyassar Razzakova, Kegesbay Serjanov, Mirzagul Sapaeva, Gulxatiysha Aimbetova, Roza Kutekeeva, Makset Xujaniyozov, Makset Utemuratov, Gulnara Utepova, Eleonora Kutlypulatova, Anifa Artikova, Gulnara Allambergenova va boshqa qo‘shiqchilarimiz butun O‘zbekiston va Markaziy Osiyoga taniqli bo‘ldi. Jumabay jirov Bazarov, Baxtiyar jirov Esemuratov, baqshilar Turganbay Kurbanov, Ziyada Sharipova, Zulfiya Arzimbetova, Jarilkagan Eshanov, Tenel Kalliev va boshqalar Germaniya, Fransiya va boshqa davlatlarda qoraqalpoq dostonlari va she‘rlarini ijro etib, butun dunyoga belgili bo‘ldi. Qoraqalpoq universiteti “Xurliman” ansambli 2000 yili Toshkentda “O‘zbekiston – Vatanim manim” konkusida 1-o‘rinni egalladi.

Mustaqillik yillari Savitskiy nomidagi Qoraqalpoq milliy san’at muzeyi va Qoraqalpoq o‘lkashunoslik muzeyi, Berdaq muzeyi milliy o‘zligimizni targ‘ibot

qilishda katta faoliyat ko'rsatmoqda. 2002 yili may oyidan boshlab milliy televideniya "Assalom Qoraqalpog'iston" tongi ko'rsatuvi tashkil etildi. Shuningdek, "Maurit", "Tarix va taqdir", "Bayterek", "Shanarak", "Yoshlar kanali" ko'rsatuvlari tashkil etildi. Prezidentimiz Erkin Kutybaev, Alisher Auevbaev, Baxtiyar Nurullaev, Muratbay Baltaniyazov, F.Orazimbetov va boshqalarning sport sohasidagi mardliklarini tan oldi.

Mustahkamlash uchun savollar.

1. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning mazmuni haqida nimalar bilasiz ?
2. "Kadrlar tayyorlash Milliy Dasturi" da belgilangan vazifalar nimalardan iborat?
3. So'ngi yillarda O'zbekistonda kadrlar tayyorlash sohasidagi qanday o'zgarishlar yuz berdi ?
3. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy yangilanishi haqida nimalar bilasiz ?
4. Qoraqalpog'iston Respublikasida qishloq xo'jaligi sohasida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
5. Qoraqalpog'iston Respublikasida ma'naviy-madaniy sohadagi ishlar samaradorligi nimalarda ko'rindi ?

6-mavzu: O‘zbekiston va jahon hamjamiyati.
Yangilanayotgan O‘zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.

Reja:

1. O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy prinsiplari va jahon hamjamiyatidagi o‘ziga xos o‘rni.
2. O‘zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarining yo‘lga qo‘yilishi.
3. Mustaqil O‘zbekiston Milliy taraqqiyot modelining ishlab chiqilishi. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlarstrategiyasining ishlab chiqilishi, hayotga joriy etilishi va uning ahamiyati.

XXI asr bo‘lag‘asida xalqaro vaziyat. Mustaqil O‘zbekistonning tinchliksevar tashqi siyosati va jahon hamjamiyatiga qo‘shilishi. XX asrning 90 yillariga qadar dunyo ikki qutbli bo‘lib, bir-biriga qarama-qarshi bo‘lgan kuchlar nisbati ikki joyda – SSSR va AQSH etakchilik qilgan ikki ijtimoiy-siyosiy tuzum, ikki harbiy-siyosiy kuchlarning qo‘lida edi. Xalqaro vaziyatning tinchligi va xavfsizlik tizimi shu ikki tomonning o‘zaro muxoliflik muvozanatiga asoslangan edi. Dunyoda «sovuq urush» siyosati hukmronlik qilardi. Butun insoniyat yadro urushi xavfi ostida yashardi. Biroq sobiq Ittifoqning parchalanishi natijasida uning tarkibidagi 15 ta mustaqil davlat, jumladan mustaqil O‘zbekiston davlati vujudga keldi. «Sovuq urush» siyosati barham topdi. XXI asr bo‘lag‘asida xalqaro vaziyatning o‘zgarishi jahon tapaqqiyotininr holatini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Endi dunyo ko‘p qutbli bo‘lib qoldi. Dunyoning geosiyosiy holati yangi pallaga ko‘tarildi. Dunyo yangilanishi jarayonida har bir davlat o‘z taraqqiyot ko‘lami bilan jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olish uchun harakat boshladi. Shular qatori O‘zbekiston ham jahon hamjamiyatidan munosib o‘rin olishga kirishdi.

O‘zbekiston Respublikasi O‘rta Osiyodagi yirik suv yo‘llari bo‘lgan Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan. Mamlakat maydoni 447,4 ming km² tashkil qiladi. Bu Buyuk Britaniya, Belgiya, Daniya, Avstriya va Shveysariya hududlarini qo‘shib hisoblaganda ulardan ko‘pdir. Markaziy Osiyo mintaqasida muhim o‘rin tutgan O‘zbekiston qadimda ham, hozir va kelajakda ham Sharq va G‘arb, Shimol va Janub orasidagi aloqalarni bir-biri bilan bog‘lovchi mamlakatdir. 2005 yilgi ma‘lumotlarga ko‘ra, O‘zbekiston o‘zining ma‘muriy-hududiy tuzilishi jihatdan 12 viloyat, 164 ta tuman, viloyat va respublikaga bo‘ysunuvchi 51 shahar, tumanga bo‘ysunuvchi 91 ta shahar, 108 ta shaharchalar, 1451 tadan oshiq bo‘lgan qishloq va ovullarga ega. O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga xos geografik tuzilishi bilan O‘rta Osiyo mintaqasidagi davlatlar orasida alohida ajralib turadi. Bunday geografik joylashuvning qulay va noqulay tomonlari mavjud bo‘lib, ular

respublikaning geosiyosiy vaziyati va geostrategik manfaatlari hamda uning ichki va tashqi siyosatini tanlash va belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustaqil O'zbekistonning qulay geosiyosiy imkoniyatlari quyidagicha:

□ Uzoq o'tmishdan Sharq va G'arb o'rtasidagi qadimgi savdo-sotiq, tijorat, madaniy-ilmiy va diplomatik aloqalar yo'li bo'lgan Buyuk Ipak yo'li O'zbekiston hududidan o'tgan. Hozirda ham Evropa va Yaqin Sharqdan Osiyo – Tinch okeani mintaqasiga olib boradigan yo'llar O'rta Osiyodan, uning o'rtasida joylashgan O'zbekistondan o'tadi;

□ O'rta Osiyoning markazida joylashgan O'zbekiston o'zining geosiyosiy holatidan kelib chiqib, mazkur mintaqada kuchlar nisbati va muvozanatini saqlash, iqtisodiy integratsiya jarayonini rivojlantirish, barqarorlikni ta'minlash, hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatiga ega. O'zbekiston bugungi kunda qo'shni davlatlar – Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Afg'oniston o'rtasida bog'lovchi halqa vazifasini o'tab kelmoqda. Mintaqa doirasida manfaatli munosabatlar o'rnatish imkoniyati O'zbekiston orqali ochiladi. O'rta Osiyo mintaqasida tinchlik, barqarorlikni va kuchlar muvozanatini ta'minlash jarayonida O'zbekiston sezilarli rol o'ynash uchun hamma imkoniyatlarga ega;

□ O'zbekiston o'zining joylashuviga ko'ra O'rta Osiyoning transport, energetika, kommunikatsiya, suv tizimi markazida joylashgan. Respublikaning muhim xususiyati shundan iboratki, bu erda aholining o'sish sur'atlari yuqori. Mustahkam mehnat salohiyati, ilmiy-texnikaviy va boshqa imkoniyatlari jihatidan mintaqadagi boshqa davlatlardan ma'lum darajada ustun turadi;

□ Tabiiy-iqlim sharoiti qulay, ulkan mineral–xom ashyo zaxiralari va strategik materiallarga ega, dehqonchilik madaniyati rivojlangan, oziq-ovqat bilan o'zini ta'minlashga qodir. O'zbekistonda sanoatining bazaviy va zamonaviy tarmoqlari mavjud. O'zini neft, gaz, rangli metallar bilan ta'minlabgina qolmay, ularni eksport qilish imkoniyatiga ega. Bu ko'rsatkichlar quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasining er ostida amaldagi Mendeleev davriy tizimining barcha elementlar mavjud. Hozirga qadar davlatimiz hududida 2700 dan ortiq kon va foydali qazilmalarining istiqbolli ruda hosillari topilgan. Ular 100 ga yaqin mineral–xom ashyo turlarini o'z ichiga oladi. Shulardan 60 dan ortig'i ishlab chiqarishga jalb etilgan. Topilgan va ishlov berishga tayyorlangan 900 ta kondagi mineral–xom ashyoning zaxiralari 970 milliarddan ortiq AQSh dollari bilan, mamlakatning umumiy mineral–xom ashyo salohiyati 3,3 trillion AQSh dollari bilan baholanadi. O'zbekiston oltin zahirasi bo'yicha dunyoda 4-o'rinda, uni qazib chiqarish bo'yicha 7-o'rinda, mis zahirasi bo'yicha 10-11-o'rinda, uran zahirasi bo'yicha 7-8-o'rinda turadi. Markaziy Qizilqumda joylashgan Murontovdagi noyob kon Evroosiyo qit'asida ma'lum bo'lgan konlarning eng kattasi bo'lib, asr kashfiyoti deb atalgan. Hozir yiliga millionlab kub metr tog' jinsi chiqarilib, undan «to'rtta-to'qqizlik» sofligidagi oltin olinayotgan Murontov ochiq koni oltin qazib chiqarish sanoatida beqiyosdir. Respublikada marmarning 20 ta konlari aniqlangan

bo'lib, ularga ishlov berish yo'lga qo'yilgan. Mamlakatimizda 160 dan ortiq gaz, neft, ko'mir konlari qidirib topilgan va ochilgan, ularning ko'pi ishlatishga topshirilgan. O'zbekistonda Markaziy Osiyodagi yagona Angren kaolin-ko'mir koni joylashgan bo'lib, undan kaolion tuprog'i qazib olinadi. O'ta muhim strategik manbalar deb hisoblangan qimmatbaho metallar bo'yicha – 40 dan ortiq, rangli, nodir va radioaktiv metallar bo'yicha – 40, konchilik –kimyo xom ashyosi bo'yicha 15 ta kon qidirib topilgan. Mamlakatimiz katta gidroenergiya salohiyatiga ega. Chirchiq, G'azalkent, Farhod GESlari, jami 28 ta gidroelektroenergetik stansiyalari ishlamoqda;

□ O'zbekiston insoniyat sivilizatsiyasida salmoqli o'ringa ega. Yurtimizning dunyoga mashhur boy ma'naviy va tarixiy merosi bor, shu tufayli u dunyoning ma'naviy va siyosiy jarayonlariga ta'sir o'tkazib kelgan.

Mazkur imkoniyatlar orqali O'zbekiston geosiyosiy joylashuvining noqulayliklardan mustasno deb bo'lmaydi, bunday kamchiliklar barcha joyda mavjud. Geosiyosiy jihatdan O'zbekiston Respublikasiga qiyinchiliklar tug'diruvchi quyidagi omillar ham mavjud:

□ O'zbekiston o'zining geosiyosiy holati jihatidan kollektiv xavfsizlik tizimini o'rnatishga intilayotgan, lekin bu jarayon hali izchil yo'lga qo'yilmagan O'rta Osiyo mintaqasida joylashgan. Respublikamiz Fors ko'rfazi, Kaspiy dengizi havzasi va Tarim havzasining neft va gazga juda boy konlari joylashgan yarim halqaning strategik markazida joylashgan. Shuning uchun bu hududda butun dunyoda energiya taqchilligi sharoitida ko'pgina davlatlarning bir-biriga mos kelmaydigan manfaatlari o'zaro to'qnashmoqda. Dunyodagi kuchli davlatlar mazkur mintaqada o'z manfaatlarini izlamoqda;

□ O'rta Osiyoda joylashgan davlatlarning imkoniyatlari bir xil bo'lmay, ularning rivojlanish holati ham har xil. Ya'ni O'zbekistonni etnik, demografik, iqtisodiy va boshqa muammolar yuki ostida qolgan respublikalar qurshab turibdi. Shu bilan birga O'zbekiston mintaqadagi etnik murosasizlik, narkobiznes va har xil tashqi kuchlar tomonidan rag'batlantirilib kelinayotgan, ichki mojarolar xali ham tugatilmagan Afg'oniston kabi davlat bilan chegaradoshdir. Bu erda 2001 yilning oktyabr oyidan AQSh tomonidan diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi qaltis harbiy harakatlar olib borilishi natijasida Afg'onistondagi vaziyat qisman o'zgardi;

□ sobiq sovet hukumati davrida O'rta Osiyoda, jumladan O'zbekistonda kommunikatsiyalar nomaqbul ravishda shakllantirildi. Janubiy yo'nalishda transport kommunikatsiyalari amalda rivoj topmadi. Sobiq Ittifoq parchalangach, kommunikatsiyalar muammosi O'zbekiston uchun yanada keskinlashdi. O'zbekiston bevosita dengizga chiqa olmaydigan, buning ustiga dengiz portlaridan eng uzoqda joylashgan mamlakat hisoblanadi. Qora dengiz, Boltiq dengizi, Yapon dengizi va Shimoliy dengizlarga olib chiquvchi eng qisqa temir yo'li qariyb 3 ming kilometrni tashkil etadi. Bu masofani kesib o'tish uchun esa bir necha davlatlar hududidan o'tish lozim. Mazkur holat katta sarf-harajat talab qilib,

O'zbekistonning iqtisodiy aloqalarini cheklaydi, yuk tashishini qimmatlashtirib, mahsulotlarni raqobatga bardosh berolmaydigan qilib qo'yadi;

□ Mustaqil O'zbekistonning umuman hamma daryolari hamda respublika hududini kesib o'tadigan, uzunligi 150 va undan ko'p kilometrli daryolar 50 tadan oshgan bo'lishiga qaramasdan, uning suv resurslari cheklangan va ekologik muammolari ham bor. Orol fojiasi ham mamlakatimiz uchun noqulaylik omilidir. Uni saqlab qolish borasida amaliy tadbirlar o'tkazilgan bo'lishiga qaramasdan, so'nggi yillarda Orol dengizining sathi 12-15 metr pasayib ketdi. Uning maydoni ancha qisqarib, qirg'og'i o'nlab kilometr qochib ketgan.

O'tish davrida bu kiyinchiliklarni bartaraf etish, yurtimizning geosiyosiy imkoniyatlarini rivojlantirish borasida muhim tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini qo'lga kiritishi uning xalqining asriy orzu maqsadlarini to'la ma'noda ro'yobga chiqarish tomon keng ufqlar ochibgina qolmay, ayni paytda mustaqil yosh davlatimizning jahon hamjamiyatiga qo'shilishi uchun ham imkoniyat yaratdi. Shu boisdan mamlakatimiz rahbariyati istiqlolning ilk kunlaridan e'tiboran O'zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan puxta tashqi siyosiy yo'lni belgilash, jahon hamjamiyatiga qo'shilish, xorijiy davlatlar bilan siyosiy, diplomatik, iqtisodiy, ilmiy – texnikaviy, madaniy aloqalar o'rnatish masalalari dolzarb vazifa sifatida ko'ndalang bo'lib turardi. Yurtimiz mustaqilligini mustahkamlash, mamlakatimizning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti ko'p jihatdan ana shu vazifalarning hal etilishiga bog'liq bo'lib qolgan edi.

Ma'lumki, 130 yil davom etgan istibdod davrida mamlakatimiz to'la mustaqil ravishda tashqi siyosat va diplomatik faoliyat yuritish, xorijiy davlatlar va xalqaro nufuzli tashkilotlar bilan aloqalarni o'rnatish kabi huquqlaridan maxrum etilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «O'zbekiston Respublikasi uchun mustaqil tashqi siyosat yuritish – davlat faoliyatining yangi va amalda qo'llanilmagan yo'nalishlaridan biridir. Yakkahokimlik tizimi sharoitida O'zbekiston xalqaro maydonga to'g'ridan-to'g'ri va ochiq chiqish imkoniyatidan mahrum etilgan bo'lib, o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, etarlicha diplomatlariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi». Sobiq sovet davrida, Ittifoq konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston teng huquqli suveren davlat hisoblanib, mustaqil tashqi siyosat yurgizish, xorijiy mamlakatlar bilan shartnomalar tuzish va diplomatik vakolatlarini ayirboshlash va boshqa huquqlarga ega bo'lgan suveren respublika hisoblanardi. Ammo real hayotda esa buni aksini ko'rish mumkin edi. O'zbekiston o'zining tashqi siyosiy davlat idoralariga, etarlicha diplomatik vakillariga va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi mutaxassislariga ega emas edi. O'zbekistonda Markaz ko'rsatmasi bilan 1944 yil 27 sentyabrda Tashqi ishlar vazirligi ochilgan. Biroq u kichikkina bir idoracha bo'lib, hech qanday vakolatlarga ega emas edi. Bu vazirlik

markazning ko'rsatmalarini bajarar, chet ellardan kelgan mehmonlarni qabul qilish va ularga xizmat ko'rsatish bilan cheklanardi. Tashqi ishlar va diplomatik soha Markaziy Osiyo mintaqasi mahalliy millatlari, shu jumladan o'zbek millati, eng kamsitilgan tarmoqlardan biri edi. Sobiq SSSR Tashqi ishlar vazirligi tizimida rasmiy ravishda ishlaydiganlarning 92 % bir millatning vakillari edi. Ikkinchi jahon urushi tugagandan so'nggi 45 yil ichida (1945 – 1990 yillar) O'zbekistonning faqat 7 vakili SSSRning chet eldagi favqulodda va muxtor elchisi bo'lib ishlash imkoniyatiga ega bo'ldi (A. Abdullaev, Bahodir Abdurazzoqov, Sarvar Azimov, Latif Maqsudov, Nuriddin Muhiddinov, Rafiq Nishonov va Anvar Qo'chqorov). SHulardan faqat uchasi (A.Abdullaev, B.Abdurazzoqov va L. Maqsudov) maxsus diplomatik oliy ma'lumotga ega edilar xolos. Markaziy Osiyo respublikalari vakillari jahonning etakchi davlatlariga mas'ul lavozimlarda belgilanmas, ularni odatda, «o'rtacha» davlatlarga ishga belgilar edilar (Somali, Pokiston, Livan, SHri Lanka, Gabon, Suriya va boshqalar). Oqibatda o'zbek millatining farzandlari xalqaro munosabatlarning hal qiluvchi yo'nalishlaridan chetlatilgan edilar. Holbuki, ular jiddiy ahamiyatga ega qator takliflarni kiritib, tashqi ishlar va munosabatlarda asosli va mustaqil fikrlarni olg'a surganlar.

Bu holatga sobiq SSSRning parchalanishi bilan barham berildi. Tarixan o'ta qisqa davr ichida o'tmishdan qolgan «kamchiliklar»ni bartaraf etish borasida muhim islohotlar amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov o'zining «O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li» va boshqa asarlarida mustaqil tashqi siyosat yuritish qoidalarini nazariy va amaliy jihatdan puxta asoslab berdi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil tashqi siyosiy faoliyatining huquqiy asoslari, prinsiplari, mazmuni, maqsad va vazifalari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining IV bob 17-moddasida o'zining qonuniy aksini topdi. Konstitutsiya 17-moddasiga muvofiq, «O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli sub'ektidir. Uning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik qoidalariga va xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan boshqa qoidalari va normalariga asoslanadi.

Respublika davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi va ulardan ajralib chiqishi mumkin».Konstitutsiyaning boshqa bo'limlarida esa hukumat idoralari va davlat boshlig'ining (93-moddasida) tashqi siyosiy vakolati belgilangan. Mustaqillikning zafarli o'n yilligi ichida yurtimizda tashqi siyosat va diplomatiya sohasida ko'plab ishlar amalga oshirildi va davr talabi bilan konstitutsiya asosida bu sohaga oid bir necha hujjatlar qabul qilindi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»gi Qarori, 1992 yil 25 may.
2. «O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatiya vakolatxonalari boshliqlarini tayinlash va chaqirib olish tartibi to‘g‘risida»gi Qonun, 1992 yil 2 iyun.
3. «O‘zbekiston Respublikasining diplomatiya xodimlari uchun diplomatiya daraja va martabalarini belgilash to‘g‘risida»gi Qonun, 1992 yil 3 iyul.
4. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A. Karimovning «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Farmoni, 1994 yil 25 fevral.
5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida»gi Qarori, 1994 yil 16 mart.
6. «O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elga borishlari tartibini va O‘zbekiston Respublikasining diplomatik pasporti to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida»gi Qonun, 1995 yil 6 yanvar.
7. «O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari to‘g‘risida»gi Qonun, 1995 yil 22 dekabr.
8. «O‘zbekiston Respublikasining Konsullik Ustavini tasdiqlash to‘g‘risida»gi Qonun, 1996 yil 29 avgust.
9. «O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari to‘g‘risida»gi Qonun, 1996 yil 26 dekabr va boshqa qonunlar ana shular jumlasidandir.

Ushbu qonunlar mustaqil O‘zbekistonning xorijiy davlat va xalqaro tashkilotlar bilan teng huquqli asosda munosabat o‘rnatishida muhim ahamiyat kasb etdi. Xalqaro huquq normalarining ichki qonunlardan ustunligi respublika qonunchilik faoliyatida o‘z ifodasini topmoqda. O‘zbekiston xalqaro huquqning boshqa sub’ektlari bilan diplomatik aloqalarni amalga oshirib, ikki tomonlama va ko‘p tomonlama xalqaro shartnomalarni tuzib, bevosita davlatlararo munosabatlarda qatnashmoqda.

Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalarini ta‘minlab beruvchi davlat organlari shakllantirildi. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining funksiyalari va faoliyatining yo‘nalishlari tubdan o‘zgartirildi. 1991 yil 7 sentyabr O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning Farmoniga binoan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalarni yo‘lga qo‘yish maqsadida 1990 yil 12 iyulda tashkil etilgan O‘zbekiston SSR Tashqi savdo va xorijiy aloqalar davlat ko‘mitasi 1992 yil 12 fevralda Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligiga aylantirildi. 1992 yil 21 fevralda esa O‘zbekiston Respublikasi Birinchi

Prezidenti Islom Karimovning «O‘zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligini tashkil etish to‘g‘risida»gi Farmoni qabul qilindi. 2002 yil 21 oktyabrda «Tashqi iqtisodiy aloqalar sohasida boshqaruv tizimini yanada erkinlashtirish va takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonga asosan bu vazirlik O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi etib qayta tashkil qilindi. 2005 yil 21 iyuldagi «Tashqi iqtisodiy va savdo aloqalari, xorijiy investitsiyalar—ni jalb etish sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmonga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar agentligi O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi etib qayta tashkil qilindi.

O‘zbekistonda tashqi savdo bilan shug‘ullanuvchi firmalarning maxsus tizimi ham shakllantirildi. Respublikada diplomatik ishlar uchun, xalqaro huquq va tashqi iqtisodiy aloqalarda faoliyat yuritadigan mutaxassislar tayyorlashga katta e’tibor berildi. Shu maqsadda 1992 yil 23 sentyabr Respublika Birinchi Prezidentining Farmoniga ko‘ra Toshkentda Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti tashkil etildi. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi va boshqa universitetlarda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi uchun mutaxassis kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

O‘zbekiston tashqi siyosatida iqtisodiy omillarning xal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lishi muhimdir. Mamlakatimiz mana shu muhim sohani o‘zlashtira borib, o‘z mustaqilligini uning eng jiddiy yo‘nalishi bo‘lgan iqtisodiyotida mustahkamlanmoqda. O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishga, uning jahon hamjamiyati bilan integratsiyalashuviga xalqaro moliyaviy, iqtisodiy tashkilotlar – Xalqaro valyuta fondi, Jahon banki, Xalqaro moliya korporatsiyasi, Evropa tiklanish va taraqqiyot banki ham ko‘maklashmoqdalar. Xalqaro savdo markazi (UNKTAD), Tariflar va savdo Bosh bitimi (GATT) bilan hamkorlik qilinmoqda.

Istiqlolning ilk yillaridan boshlab tashqi aloqalar muassasalari tomonidan xorijiy davlatlar bilan xalqaro aloqalarning umum e’tirof etilgan qoida va normalari asosida respublikaning diplomatik faoliyati turli yo‘nalishlarda olib borildi. Bu birinchidan, siyosiy munosabat va iqtisodiy aloqalar; ikkinchidan, ilmiy-texnikaviy aloqalar; uchinchidan, madaniy aloqalar, turizm, sport va boshqa sohalaridagi xalqaro aloqalardir. Respublika tashqi siyosatiga tinchlik, barqarorlik, hamkorlik yo‘li asos qilib olindi.

O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosiy tamoyillari quyidagilardan iborat:

- ☐ mafkuraviy qarashlardan qati nazar hamkorlik uchun ochiqlik, umuminsoniy qadriyatlarga, tinchlik va xavfsizlikni saqlashga sodiqlik;
- ☐ davlatlarning suveren tengligi va chegaralar daxlsizligini hurmat qilish;
- ☐ boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- ☐ nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish;

- kuch ishlatmaslik va kuch bilan tahdid qilmaslik;
- inson huquqlari va erkinliklarini hurmatlash;
- ichki milliy qonunlar va huquqiy normalardan xalqaro huquqning umum e'tirof etilgan qoidalari va normalarining ustivorligi;
- davlatning, xalqning oliy manfaatlari, farovonligi va xavfsizligini ta'minlash maqsadida ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga kirish va ulardan ajralib chiqish;
- tajovuzkor harbiy bloklar va uyushmalarga kirmaslik;
- davlatlararo aloqalarda teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, davlat milliy manfaatlarining ustunligi;
- tashqi aloqalarni ham ikki tomonlama, ham ko'p tomonlama kelishuvlar asosida rivojlantirish, bir davlat bilan yaqinlashish xisobiga boshqasidan uzoqlashmaslik.

Mamlakatimizning jahon xalqlari tinchligi va xavfsizligiga mos bo'lib tushgan tinchliksevar tashqi siyosati, uni jahonda mustaqil davlat sifatida tezda tan olinishini ta'minladi. O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini 165 ta davlat tan oldi. 1991 yil 26 sentyabrda resspublikamizda birinchi diplomatik aloqalari yo'lga qo'yildi. Mazkur sanada mustaqil O'zbekiston bilan Avstraliya o'rtasida diplomatik aloqalar o'rnatildi. 1992 yildan boshlab O'zbekiston tashqi siyosati va diplomatiya sohasidagi faoliyati yanada kengayib birin-ketin Xitoy, Yaponiya, Angliya, AQSh, Fransiya, Turkiya, Germaniya singari jahonning rivojlangan etakchi davlatlari bilan diplomatik, iqtisodiy va madaniy aloqalar yo'lga qo'yildi. Ushbu davlatlar bilan hamkorlik aloqalarimiz hozirda yuqori darajaga ko'tarildi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi jahonning 142 davlati bilan diplomatik aloqalarni o'rnatdi. Toshkentda 43 mamlakatning elchixonalari, 3 ta savdo vakolatxonasi (Vengriya, Belgiya, AQSh savdo palatasi), 10 ta xalqaro tashkilotning vakolatxonasi ishlab turibdi. Mamlakatimizda 7 ta faxriy konsullar ishlab kelmoqda. O'zbekiston Respublikasining xorijiy davlatlardagi elchixonalarining soni esa 30 tani tashkil etadi. Shuningdek, 11 ta bosh konsulxonasi mavjud. Respublikada 88 ta xorijiy mamlakat vakolatxonalari akkreditatsiya qilingan. O'zbekiston 41 ta nufuzli xalqaro iqtisodiy va moliya tashkilotlarining teng huquqli a'zosi. Hozirda ulardan beshtasining vakolatxonasi respublikada faoliyat ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikaning mustaqil davlat sifatida xalqaro hamjamiyati doirasida munosib o'rin olishida xalqaro nufuzli tashkilotlarga a'zo bo'lishi va ular bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yishi katta ahamiyatga ega edi. 1992 yil 29 yanvarda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xavfsizlik Kengashi o'zining 737-sonli Qarorini ovozga qo'ymasdan qabul qildi va Bosh Assambleyaga O'zbekiston Respublikasini BMTga qabul qilishni tavsiya etdi.

1992 yil 2 martda BMT Bosh Assambleyasining 46-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi ovozga qo'yilmasdan, yakdillik bilan ma'qullash asosida Birlashgan Millatlar Tashkilotiga qabul qilindi. SHu kuni BMT Bosh Assambleyasi binosi

oldida O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i ko'tarildi. 1993 yil 24 avgustda BMTning Toshkentdagi vakolatxonasi ochildi. BMTda O'zbekiston Respublikasi vakolatxonasi ish boshladi. 2000 yil 8 sentyabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan «Mingyillik Deklaratsiyasi» qabul qilindi. Bu deklaratsiya 21 asrga mo'ljallangan Global kun tartibini belgilab berdi hamda Mingyillik Rivojlanish Maqsadlari (MRM) sifatida ma'lum bo'lgan sakkizta konkret maqsadga erishishga qaratilgan vazifalarni qo'ydi. SHunday qilib, «Mingyillik Deklaratsiyasi» jahon etakchilarining azmu qarorlarini aks ettiradi, 2015 yilgacha bo'lgan davrda rivojlanishning «yo'l xaritasi» hisoblanadi.

2010 yil 20 sentyabrda BMT Bosh Assambleyasining 65-sessiyasi bo'lib o'tdi. Ushbu sessiya mingyillik rivojlanish maqsadlariga bag'ishlandi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston bilan BMT o'rtasidagi hamkorlik aloqalari yaxshi yo'lga qo'yildi. O'zbekiston rahbariyati va BMT rahbarlarining sa'y-harakatlari natijasida O'zbekiston BMTning Xalqaro telekommunikatsiya uyushmasi, Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi, Qochoqlar ishi bo'yicha oliy ko'mitasi, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkiloti, Xalqaro atom energiyasi agentligi, Aholi joylashish jamg'armasi, Narkotik moddalarni nazorat qilish dasturi, Sanoat taraqqiyoti tashkiloti, Oziq-ovqat qishloq xo'jaligi tashkiloti singari ixtisoslashgan muassasalarga a'zo bo'ldi.

O'zbekistonning tashabbusi bilan va BMT rahnamoligida 1995 yil 15-16 sentyabr kunlari Markaziy Osiyoda xavfsizlik va hamkorlik masalalariga bag'ishlangan Toshkent kengash – seminari bo'lib o'tdi. Xalqaro kengashda ishtirok etgan 31 davlat va 6 xalqaro tashkilotdan kelgan muxtor vakillar mintaqa xavfsizligining, mojarolarning oldini olish, integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishning ishonchli tizimini barpo etish masalalari yuzasidan o'z fikrlarini, takliflarini aytdilar. Kengash yakunlari yuzasidan qabul qilingan Bayonot jahon xalqlarini, xususan Markaziy Osiyo xalqlarini, turli siyosiy kuchlarni mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlashga, iqtisodiy va ekologik hamkorlik tizimlarini barpo etishga chaqirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan Markaziy Osiyoning yadro qurolidan xoli hudud maqomini olishida ham BMT bilan hamkorlik alohida ahamiyat kasb etdi. Butun dunyoda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ko'maklashish, yadro quroli tarqalishining oldini olish yo'lida jahon hamjamiyatini birlashtirishga intilayotgan BMT bu xayrli g'oyani keng qo'llab-quvvatladi.

1997 yil 15-16 sentyabr kunlari Toshkentda «Markaziy Osiyo – yadro qurolidan xoli zona» mavzuida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Uning ishida 56 davlat va 16 xalqaro tashkilotdan vakillar ishtirok etdi. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo mamlakatlari tashqi ishlar vazirliklarining Bayonoti imzolandi. Markaziy Osiyo mintaqasining yadro qurolidan xoli zonaga aylanishi mazkur mintaqa xavfsizligini mustahkamlaydi.

2000 yil oktyabr oyida Toshkentda Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash, giyohvand moddalar tijorati, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurash mavzusida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. O'zbekiston Prezidenti tashabbusi bilan 2001 yilda BMT Xavfsizlik Kengashining terrorizmga qarshi kurash bo'yicha maxsus qo'mitasi ta'sis etildi. 2002 yil 18-20 oktyabr kunlari BMTning o'sha vaqtdagi Bosh kotibi Kofi Annan O'zbekistonga keldi. 2010 yilning aprel oyida amaldagi Bosh kotib Pan Gi Mun mamlakatimizga tashrif buyurdi. Ushbu tashrif asnosida BMT Bosh kotibi ilk bor Orolbo'yida bo'ldi va u erdagi butun dunyoga ta'sir ko'rsatayotgan ekologik bo'hron bilan bevosita tanishdi. Bu Markaziy Osiyodagi global ekologik muammoga jahon hamjamiyati e'tiborini yanada kuchaytirishda muhim omil bo'ldi.

Hozirgi kunda O'zbekiston BMT doirasidagi ixtisoslashgan muassasalar – Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon intellektual mulk tashkiloti, Xalqaro bolalar jamg'armasi (YUNISEF), Xalqaro pochta ittifoqi, Elektr aloqasi bo'yicha xalqaro ittifoq, Jahon meteorologiya tashkiloti, Xalqaro Olimpiada qo'mitasi, Xalqaro avtomobilchilar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning a'zosi, ular bilan hamkorlik qilmoqda.

O'zbekistonning BMT homiyligidagi ta'lim, fan va madaniyat bilan shug'ullanuvchi xalqaro tashkilot – YUNESKO bilan aloqalari tobora mustahkamlanib bormoqda. 1993 yil 29 oktyabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida O'zbekistonni YUNESKOga a'zolikka qabul qilish marosimi bo'ldi. O'sha kuni Ulug'bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994 yil oktyabrda Parijda Ulug'bek haftaligi tantana bilan o'tdi. Xiva va Buxoro YUNESKO ning jahon madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi. Bu ro'yxatda 411 ta ob'ekt bor. 1994 yil dekabrda respublikamizda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasi tashkil etildi, u idoralararo organ bo'lib, tarkibiga ta'lim, fan, madaniyat va axborot sohasidagi vazirliklar va idoralardan 49 kishi a'zo bo'ldi. YUNESKO Markaziy Osiyo taraqqiyotini o'rganish, tiklash va ommalashtirishga katta ahamiyat bermoqda. «Ipak yo'li – muloqot yo'li» deb nomlangan yirik tadqiqotda Markaziy Osiyoga birinchi darajali ahamiyat berildi. 1995 yil iyul oyida YUNESKO qaroriga binoan Samarqandda Markaziy Osiyo tadqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO Bosh direktori Federiko Mayorning O'zbekistondagi rasmiy tashrifi chog'ida 1995 yil iyul oyida mazkur institut ochildi.

YUNESKO Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qildi va 1996 yil oktyabrda Parijda Amir Temurga bag'ishlangan bir haftalik xalqaro anjuman bo'lib o'tdi. Amir Temur tavallud topgan SHahrisabz shahri YUNESKOning madaniy qadriyatlar ro'yxatiga kiritildi.

1997 yilda jahon madaniyatning durdonalaridan hisoblangan Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yillik muborak sanalari Parijda keng nishonlandi, xalqaro

anjuman va ko'rgazmalar o'tkazildi. Bu O'zbekiston bilan BMTning nufuzli xalqaro tashkiloti YUNESKO o'rtasidagi hamkorlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi. 1997 yil 19-20 oktyabr kunlari Vatanimizda Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligi munosabati bilan bo'lib o'tgan ulkan tantanalarda BMT, YUNESKO va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlar va xorijiy mamlakatlarning elchilari va vakillari, bir qator mehmonlar ishtirok etdilar.

2003 yil 28-29 may kunlari Moskvada bo'lib o'tgan sammitda ShHT oliy organlari: Davlat boshliqlari Kengashi, Hukumat boshliqlari Kengashi, Tashqi ishlar vazirlari Kengashi, Milliy muvofiqlashtiruvchilar Kengashi, vazirlik va (yoki) idoralar rahbarlari Yig'ilishi, Kotibiyat, shuningdek, MATT hamda ShHT kotibiyati qoshidagi a'zo davlatlarning doimiy vakillari haqidagi Nizomlar tasdiqlandi. SHu bilan birga tashkilotning gerbi va bayrog'i qabul qilinadi. ShHTning birinchi ijro etuvchi kotibi Xitoy Xalq Respublikasining Rossiyadagi elchisi Chjan Deguan saylangan.

2003 yil sentyabr oyida ShHTning Pekin sammit bo'lib o'tgan. Unda «ShHTga a'zo davlatlarning 20 yilga mo'ljallangan savdo-iqtisodiy hamkorlik dasturi» qabul qilinib, maxsulot, sarmoya, texnologiya va xizmatlar erkin aylanishi shartlari belgilab olinadi, tashkilotning moliyaviy byudjeti ko'riladi.

2004 yil 17 iyunda ShHTning Toshkent sammiti tashkilot faoliyatidagi muhim bosqich bo'ldi. ShHTning Toshkent sammitida savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor berildi.

Sammit yakunida Toshkent Deklaratsiyasi, ShHTning vakolatlari va immunitetlari to'g'risidagi konvensiya, «Narkotik vositalar va psixotrop moddalarning noqonuniy aylanishiga qarshi kurashda hamkorlik to'g'risida»gi Bitim, tashkilot va uning organlari faoliyatiga doir hujjatlar – jami o'nta hujjat imzolandi. 2005 yil 5 iyul ShHTning Ostona sammitida Eron, Pokiston, Hindiston va Mo'g'iliston kuzatuvchi maqomga ega bo'lib tashkilot tarkibiga kirdi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash masalalari, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish, uning iqtisodiy infratuzilmasini birgalikda tiklash yuzasidan fikr almashilgan.

2007 yil 1 yanvargacha ShHTning ijro etuvchi kotibi lavozimida Xitoy Xalq Respublikasi vakili Chjan Deguan turdi. 2007 yil 1 yanvaridan ShHTning bosh kotibi lavozimi joriy etildi. Bu lavozimni Qozog'iston Respublikasi vakili Bulat Nurgaliev egalladi.

O'zbekiston va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi. Hozirda halqaro tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha jahonda turli halqaro va mintaqaviy tashkilotlar mavjud bo'lib, ularning orasida «Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)» o'ziga hos ko'rinishga ega. MDH mintaqaviy tashkiloti – bir butun davlat yoki federatsiya emas, harbiy blok ham emas. Balki u o'zining mohiyatiga ko'ra ixtiyoriy iqtisodiy uyushma sifatida vujudga kelgan davlatlar hamdo'stligining yangicha shakli va ko'rinishidir.

1991 yil 8 dekabr Belorussiyaning poytaxti Minsk shahrida uch slavyan respublikasi – Rossiya, Ukraina, Belorus rahbarlari – B. Elsin, L. Kravchuk S. Shushkevichlarning uchrashuvi bo‘ldi. O‘sha kuni Minskga yaqin Belovejskoe Pushcheda uch slavyan davlatlari boshliqlari «Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH)ni tuzish to‘g‘risida»gi Shartnomani imzolashi asosida shakllandi. Shartnomada yagona iqtisodiy makon, yagona valyuta va moliya-bank sistemasi bo‘ladi, fan, ta‘lim, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik qilinadi, tashqi siyosat, armiya sohasidagi siyosat kelishilgan holda yuritiladi, deb belgilangan edi. Hujjatda SSSRning mavjudligi va SSSR Konstitutsiyasi to‘xtatiladi, deb e‘lon qilindi.

Ukraina, Belorussiya, Rossiya parlamentlari MDHni tuzish haqidagi shartnomani ratifikatsiya qildilar va 1922 yil 30 dekabrda SSSRni tuzish to‘g‘risidagi shartnomani bekor etdilar. 1991 yil 21 dekabrda Almatida 11 davlat – Rossiya (B.Elsin), Ukraina (L.Kravchuk), Belorussiya (S.Shushkevich), Qozog‘iston (N.Nazarboev), O‘zbekiston (I.Karimov), Qirg‘iziston (A.Akaev), Tojikiston (R.Nabiev), Turkmaniston (S.Niyazov), Ozarbayjon (A.Mutalibov), Armaniston (Ter-Petrosyan), Moldaviya (M.Snegur) davlat boshliqlarining Kengashi bo‘lib o‘tdi. O‘sha kuni ular Belovejskoe Pushche shartnomasi yuzasidan protokol imzolab, «Teng huquqli va ahdlashayotgan oliy tomonlar» maqomida MDH muassisi bo‘ldilar.

Milliy tiklanishning yangi bosqichi mamlakatimiz uchun oson bo‘lmagan geosiyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sharoitlarda sodir bo‘ldi. Ko‘pgina milliy va xorijiy ekspertlar ta‘kidlaganidek, O‘zbekiston o‘zining zamonaviy tarixining ushbu muhim o‘tish bosqichida haqiqiy ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor mexanizmlarini joriy etish, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, eng muhimi, haqiqiy xalq demokratiyasini tiklash uchun hal qiluvchi qadamlarga juda muhtoj edi. Fuqarolarning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy faolligini uyg‘otish ham o‘ta muhim edi.

Mamlakatning yangi rahbari Sh.Mirziyoev yillar davomida to‘planib kelgan muammolarning mohiyatini chuqur va batafsil bilgan holda xalqqa va dunyoga O‘zbekistonni tiklash va rivojlantirishning yangi siyosiy modelini taklif qildi. Mamlakat Prezidenti jamoat konsensusiga, konstruktivizm va pozitivizm tamoyillariga asoslangan holda mamlakatni rivojlantirishning yangi bosqichidagi milliy g‘oyani shakllantirdi. O‘zbekiston Prezidenti murakkab va noaniq zamonaviy haqiqatning o‘sib borayotgan muammolariga o‘z vaqtida va samarali javob topishga muvaffaq bo‘ldi. Qisqa tarixiy davrda ushbu kursning asosiy natijasiga erishildi - xalq bunga ishondi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan barcha yutuqlarni, yangiliklarni tahlil qilar ekanmiz, yangi siyosiy kursning muvaffaqiyati haqida bimalol gapirishimiz mumkin.

Bugun, bizda, buni katta g'urur bilan e'lon qilish uchun barcha asoslar bor: bizning jasur va qat'iyatli xalqimiz, eng og'ir sinovlarga qaramay, egilmas iroda ko'rsatdi va tanlangan mustaqillik yo'liga sodiq qoldi. Hozirda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. Mamlakatni modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklari, qonun ustuvorligini ta'minlash jarayonida O'zbekistonning yangi, demokratik qiyofasi yaratilmoqda.

Bunda bizni harakatga keltiruvchi kuch - Harakatlar strategiyasi asosida qo'yilgan - "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" ustuvor g'oyasidir. Prezident Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek: «Bugun qanday islohotlarni, qanday yangi loyihalarni amalga oshirishimizdan qat'i nazar, ularning barchasi biz uchun yagona, eng muhim maqsadga erishishga qaratilgan. Bu - ezgu va mehnatkash xalqimiz uchun munosib turmush sharoitlarini ta'minlash, vatandoshlar ishonchini oqlash, ularning barcha dolzarb muammolarini izchil hal qilishdan iboratdir. "Mahalliy parlamentarizm asoslarining shakllanishi va rivojlanishi, Oliy Majlis, uning institutlarining an'anaviy faoliyatini takomillashtirish, eng muhimi, parlament nazorati samaradorligini kuchaytirish O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida tan olingan. Mamlakat Prezidentining siyosiy kursi mamlakat parlamenti faoliyatida yangi bilan nafas oldi. Aynan Prezidentning o'z saylov okruglarida deputatlar faoliyatini kuchaytirish bo'yicha tashabbuslarini amalga oshirish, deputat va saylovchilar o'rtasida yaqin aloqalarni o'rnatish mexanizmlarini joriy etish mamlakat parlamentiga fuqarolarni tashvishga solayotgan muammolar mohiyatini chuqur o'rganishga, mamlakatning milliy manfaatlarini himoya qilish va ilgari surish asosida xalq manfaatlarining samarali o'tkazuvchisi bo'lishiga imkon berdi.

"Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi qonunni, "Parlament nazorati to'g'risida" gi qonunni, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini qabul qilish zahirida va undagi ustuvor yo'nalishlarning birida Oliy Majlisning rolini yanada kuchaytirish vazifasi yotadi. Bu, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda qonun ijodkorligi va parlament nazorati sohasidagi keng ko'lamli islohotlarning mantiqiy davomi bo'ldi.

Ayniqsa, 2017 yil 12 iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning parlament a'zolari bilan uchrashuvdagi nutqida mamlakat parlamentini haqiqiy demokratiya maktabiga, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisiga aylantirish zarurligi va Prezidentning 2017 yil 22 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlangan mamlakatning ijtimoiy va siyosiy hayotidagi katta o'zgarishlarga va yangiliklarga keng yo'l ochib bergan parlamentning bugungi kun nuqtai nazaridan eng muhim vazifalari ta'kidlab o'tildi.

2017 yil 12 iyuldagi Oliy Majlis palatalari a'zolari va xalq deputatlari mahalliy Kengashlari vakillari bilan uchrashuvi chog'ida O'zbekiston Prezidenti: "Mamlakatimiz parlamenti haqiqiy demokratiya maktabiga, islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisiga aylanishi kerak", dedi. Bu, parlamentimiz va davlat organlari vakillarining Qonunchilik palatasi faoliyatidagi keng ko'lamli islohotlarda burilish nuqtasi bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti xalq va ularning saylangan vakillari bilan muloqotning prinsipial jihatdan yangi mexanizmini taklif qildi. 2017 yildan boshlab mamlakatning siyosiy hayotiga yangi demokratik institut - Prezidentning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi kiritildi. Ushbu muassasa yuqori siyosiy va huquqiy ma'noga ega bo'lgan samarali protseduraga aylandi, bu parlamentning mamlakat hayotidagi o'rni va ahamiyatining chinakam o'sishi uchun, O'zbekistonni rivojlantirishning yangi siyosiy yo'nalishining eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risida jamoatchilik fikrini rivojlantirish uchun yangi imkoniyatlar yaratdi.

Aynan mamlakat Prezidentining Oliy Majlisga yillik xabarlarida belgilangan vazifalar milliy parlament, mamlakatning barcha deputatlik korpusi faoliyatini tubdan modernizatsiya qilish uchun asos bo'ldi. Ushbu vazifalarga muvofiq, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida qisqa vaqt ichida qonun chiqaruvchi, nazorat qiluvchi va tahliliy faoliyat sohasidagi ishlarni tashkil etishning sifat jihatidan yangi shakllari va usullari qayta ko'rib chiqildi va joriy etildi.

Oliy Majlisning parlament faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha ish samaradorligini oshirishga qaratilgan yangi tarkibiy bo'linmalari tuzildi. Demak, Oliy Majlis huzurida Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti tashkil etilib, u deputatlik korpusi faoliyatini axborot-tahliliy qo'llab-quvvatlash, mamlakat parlamenti faoliyati samaradorligini oshirishga hissa qo'shadigan yangi ilg'or texnika va texnologiyalarni joriy etishga ko'maklashish uchun joriy etildi.

Parlament faoliyatini modernizatsiyalashga qaratilgan ushbu va boshqa chora-tadbirlar O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini amalga oshirishda uning rolini sezilarli darajada kuchaytirdi. Ushbu dasturiy hujjatni amalga oshirishda Oliy Majlis deputatlarining faol ishtirok etishi parlamentga xalq irodasining namoyandasi sifatida saylovchilarning tashvishlantirayotgan masalalarni, dolzarb loyihalarni amalga oshirishni ta'minlashga imkon berdi.

Shunday qilib, parlament va mahalliy hokimiyat organlari davlat rahbari tomonidan ishlab chiqilgan "Davlat organlariga odamlar emas, davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan tezisni amalga oshirmoqda. Ushbu tezis qonun ijodkorligi faoliyatining butun tizimini modernizatsiya qilish asosida yotadi. So'nggi uch yil davomida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar davlat apparati faoliyatining yangi ustuvor yo'nalishlarini bevosita o'z ichiga oladi va

odamlar oldida hisobot berish, barcha boshqaruv faoliyatining, birinchi navbatda, odamlarni tashvishga solayotgan dolzarb muammolarni hal qilishga qaratilgan.

Oliy Majlis vakolatlarini kengaytirish yoʻlidagi yana bir muhim qadam - bu Qonunchilik palatasi tomonidan davlat lavozimlariga nomzodlarni koʻrib chiqish va tasdiqlash institutining joriy etilishi boʻldi. Parlament faoliyatining bunday shakllarining joriy etilishi hukumatning ochiqqligi va hisobdorligini, fuqarolarning ijro hokimiyati organlari faoliyati toʻgʻrisida xabardorlik darajasini sezilarli darajada oshirdi.

Bugungi kunda parlamentning quyi palatasidagi siyosiy partiyalar fraksiyalari respublika hukumati, vazirlar va boshqa davlat organlari rahbarlariga murojaat qilish huquqiga ega. Oliy Majlisning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb masalalari boʻyicha Bosh vazirning hisobotlarini tinglash va muhokama qilish vakolatlarini konstitutsiyaviy ravishda mustahkamlanishi, shuningdek, vakillik parlamenti demokratiyasi tizimida siyosiy partiyalarning rolini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega edi.

Natijada, soʻnggi besh yil ichida mamlakat Oliy Majlisi faoliyati sezilarli darajada faollashdi, 540 ta qonun loyihalari koʻrib chiqildi. Bu 2010-2014 yillar davriga nisbatan 2 baravar koʻp. Agar 2015 yilda atigi 11 ta yangi qonun qabul qilingan boʻlsa, 2019 yilda 35 ta, yaʼni, bu koʻrsatkich uch baravar oshdi.

Fuqarolarni tashvishga soladigan muammolarni aniqlash uchun uyma-uy yurish amaliyoti joriy etildi. Shunday qilib, faqat 2019 yilda deputatlar 8 mingdan ziyod uy xoʻjaliklarida, 3 mingdan ziyod ijtimoiy obʼektlarda va 2 mingga yaqin ishlab chiqarish obʼektlarida boʻlib, deyarli 150 ming fuqarolar bilan uchrashuvlar oʻtkazdilar. Aholining muammolarini hal qilish maqsadida har oyning soʻnggi haftasida deputatlar oʻz saylov okruglariga tashrif buyuradigan tartib oʻrnatildi. Joylardagi ishlar holatini oʻrganish natijalari boʻyicha ijro etuvchi hokimiyat organlari bilan birgalikda aniqlangan muammolarni bartaraf etish boʻyicha tizimli ishlar yoʻlga qoʻyildi.

Samarali xalqaro munosabatlar siyosatini amalga oshirib, mamlakat parlamenti qisqa vaqt ichida koʻplab nufuzli parlamentlararo tashkilotlarning faol ishtirokchisiga aylandi, masalan, parlamentlararo Ittifoq, MDHga aʼzo davlatlarning parlamentlararo Assambleyasida Oʻzbekiston parlamenti vakillari yuqori lavozimlarga tayinlandi.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Respublikasi 2017 yildan beri EXHT Parlamentlararo Assambleyasining ishidagi ishtirokini qayta tikladi. Quyi palataning xalqaro aloqalari sezilarli darajada kengaytirildi. Shunday qilib, agar 2015 yilda boshqa davlatlarning parlamentlari bilan hamkorlik qilish boʻyicha 9 ta parlamentlararo guruhlar mavjud boʻlsa, 2019 yilda ularning soni 28 taga etdi (shu jumladan, Senat bilan birgalikda 24 ta guruh). Samarali xalqaro faoliyat tufayli oʻtgan davrda parlamentda 248 xorijiy delegatsiya qabul qilindi.

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va o'zgartirishlar izchil va samarali. Ushbu o'zgarishlarning dunyodagi, shu jumladan, jahon iqtisodiyoti kon'yunkturasidagi vaziyatning turli xil o'zgarishlariga moslashishi katta ahamiyatga ega. Tanlangan taraqqiyot yo'li haqiqatan ham jahon iqtisodiyotidagi inqirozdan keyingi sharoitda barqarorligi va hayotiyligini, rivojlanishining sustlashishini isbotladi, bu uning strategik asoslanishidan dalolat beradi. 2017-2021 yillarda 40 milliard dollarlik jami 649 investitsiya loyihasini taqdim etadigan tarmoq dasturlarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Natijada, so'nggi 5 yil ichida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,5 baravarga o'sdi va uning YAIMdagi ulushi - 33,6 foizdan 36 foizgacha, qayta ishlash sanoatining ulushi - 80 foizdan 85 foizgacha ko'tarildi. Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish maqsadida mamlakat Prezidenti tomonidan 20 dan ortiq normativ hujjatlar qabul qilindi, tegishli qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritildi, tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi.

Mamlakatimiz hududlarida xorijiy investitsiyalarning faol oqimi, eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi. Qisqa vaqt ichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Xorazm, Jizzax, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida jami 11 ta erkin iqtisodiy zonalar tashkil etildi, bu hududlarning ishlab chiqarish va resurs salohiyatidan foydalanish geografiyasining kengayganligidan dalolat beradi.

Hozirda O'zbekiston mahsulotlari "Made in Uzbekistan" savdo markalari ostida eksport qilinmoqda. Eksport geografiyasi doimiy ravishda kengayib bormoqda. Shunday qilib, faqatgina 2019 yilda eksport hajmi 9 milliard dollarni tashkil etdi. Yaponiya, Koreya, Kuvayt, Ummon kabi bir qator mamlakatlarda savdo uylarini ochish bo'yicha ishlar faol olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, Afg'oniston bilan "tahdidlar manbai" emas, balki imkoniyatlar manbai sifatida qaraladigan savdo aloqalari rivojlanib borayotganini ta'kidlash lozim. Biz mahalliy mahsulotlarning jahon bozorlariga chiqishini ta'minlash bo'yicha rejalarimizni amalga oshirmoqdamiz.

Bugungi kunda O'zbekistonda yaratilgan ilmiy-texnik salohiyatdan keng va samarali foydalanish, fundamental va amaliy ilm-fan yutuqlarini, ilm-fanni talab qiladigan texnologiyalarni keng tatbiq etish, yuqori malakali iqtidorli ilmiy kadrlar sonini ko'paytirish asosida zamonaviy rivojlanish modelining o'tish uchun zarur bo'lgan barcha narsalar mavjud. Muvozanatli investitsiya siyosati tufayli mamlakat 2019 yilda – "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili"da sezilarli natijalarga erishdi. Natijada, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 4,2 milliard dollarni tashkil etdi, bu 2018 yilga nisbatan 3,7 baravar ko'p. Yalpi ichki mahsulotga investitsiyalar ulushi esa 37 foizga etdi.

Mamlakatimiz birinchi marta xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarni muvaffaqiyatli joylashtirdi. So‘nggi 10 yil ichida birinchi marta Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining kredit xatarlari reytingida O‘zbekistonning mavqei yaxshilandi. Energetika, neft va gaz sanoati, geologiya, transport, yo‘l qurilishi, qishloq va suv xo‘jaligi, ichimlik suvi ta‘minoti, issiqlik ta‘minoti va boshqa bir qator sohalarda chuqur tarkibiy o‘zgarishlar yuz berdi. Zamonaviylashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish dasturlari 12 ta etakchi sanoat tarmoqlarida amalga oshirilmoqda. Natijada 2019 yilda iqtisodiy o‘sish sur‘ati 5,6 foizni tashkil etdi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 6,6 foizga, eksport 28 foizga o‘tdi. Oltin-valyuta zaxiralari 2,2 milliard dollarga oshdi va 28,6 milliard dollarga etdi.

Qishloq xo‘jaligida dehqonlarning qiziqishini oshirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish va klasterli ishlab chiqarish tizimiga o‘tish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ushbu yo‘nalishdagi ishlar davom etmoqda. 2019 yilda amalga oshirilgan islohotlar natijasida 93 mingta yangi tadbirkorlik sub‘ektlari tashkil etildi, bu 2018 yilga nisbatan deyarli 2 baravar ko‘p demakdir. Jahon bankining "Biznesni yuritish" reytingida biz 7 pog‘onaga ko‘tarilib, biznesni ro‘yxatdan o‘tkazish bo‘yicha 190 mamlakat orasida 8-o‘rinni egalladik va eng yaxshi islohotchilar qatoriga kirdik. 2020 yilda 206 ta yangi yirik ishlab chiqarish quvvatlarini foydalanishga topshirish bilan 23 milliard dollar miqdoridagi investitsiyalar o‘zlashtirildi. Xususan, Sho‘rtan gaz-kimyoy majmuasi asosida suyuq sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarish quvvatlari, "Navoiyazot" aksiyadorlik jamiyatida azot kislotasi, ammiak va karbamid ishga tushiriladi. Toshkent metallurgiya zavodi, Toshkent metropolitenining Sirg‘ali filiali foydalanishga topshirildi, er usti halqa metrosining birinchi bosqichi qurilishi yakunlandi. 2020 yilda respublikada birgina sanoat sohasida umumiy qiymati 11 milliard dollar bo‘lgan loyihalar amalga oshirildi. Bunday yirik loyihalar haqida gapirganda, yangi qurilgan Toshkent metallurgiya zavodini alohida ta‘kidlash lozim. Germaniya va Italiyaning zamonaviy texnologiyalari bilan jihozlangan va ekologik jihatdan qulay bo‘lgan ushbu korxona yiliga 500 ming tonna prokat ishlab chiqaradi.

O‘zbekistonda investorlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida soliqlarni qismlarga bo‘lib to‘lash, infratuzilmani yaratish xarajatlarini davlat tomonidan qisman qoplash mexanizmlari joriy etilmoqda. Shu bilan birga, daromad solig‘ini hisoblashda yangi texnologik uskunalarni sotib olish, yangi ob‘ektlarni qurish va modernizatsiya qilish uchun xarajatlarni kamaytirish amaliyoti kengaytirildi.

Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari kabi strategik korxonalarda yangi investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda va shu bilan birga, ushbu korxonalarni xalqaro moliya bozorining to‘laqonli ishtirokchilariga aylantirish ishlari olib borilmoqda. "Navoiyazot" korxonasida yiliga 500 ming tonna nitrat kislota va 100 ming tonna polivinilxlorid ishlab chiqarish quvvatiga ega zavodlar, 2020 yil oxiriga qadar bu erda har yili 660 ming tonna ammiak va 577 ming tonna

karbamid ishlab chiqaradigan zavodlar ishga tushiriladi. "Uzbekistan GTL" qurilayotgan zavod Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi tomonidan ishlab chiqarilgan metan asosida yiliga 1,5 million tonna sintetik yoqilg'i ishlab chiqarishni tashkil etmoqda.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida rangli va qimmatbaho metallarni ishlab chiqarishni uch baravar ko'paytirish bo'yicha loyihalar, shuningdek, neft, kimyo, elektrotexnika, qurilish materiallari, farmatsevtika, to'qimachilik, charm va poyabzal va boshqa sohalarda boshqa o'nlab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy sohadagi bunday keng ko'lamli islohotlar natijasida bizning xalqaro valyuta zaxiralarimiz qariyb 5,5 milliard dollarga oshdi va bugungi kunda ular 34 milliard dollarni tashkil etmoqda. Shubhasiz, bu bizning katta yutuqimiz.

Kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish O'zbekiston milliy siyosatining eng muhim tamoyilidir. Bozor islohotlarining barcha bosqichlarida O'zbekistonda davlatining ijtimoiy siyosati etarlicha keng doiradagi masalalarni, shu jumladan, aholi daromadlarini tartibga solish, ish bilan ta'minlash va yangi mehnat munosabatlarini shakllantirish, aholining ayrim toifalari va guruhlarini ijtimoiy himoya qilish va qo'llab-quvvatlash, sog'liqni saqlashni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sport, ta'lim kabilarni qamrab oladi. Mamlakatimizda noyob ijtimoiy rivojlanish tizimi yaratilgan. "Obod qishloq" va "Obod mahalla", "Yoshlar - bizning kelajagimiz", "Besh tashabbus" kabi dasturlarni amalga oshirishda faol ishtirok etib, xalqimiz yangicha fikrlay va ishlay boshlaydi. Shu tufayli yuzlab tuman, shahar va qishloqlarning qiyofasi tubdan o'zgarib bormoqda.

Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalar, shuningdek, fuqarolarning xalq bilan mul'iqotini davomida kelib tushgan takliflari asosida ijtimoiy sohada biz quyidagi asosiy masalalarni hal qilishimiz kerak.

Birinchidan, O'zbekistonda amal qilayotgan ijtimoiy himoya modeli umume'tirof etilgan xalqaro standartlarga va zamonaviy talablarga muvofiqligini ta'minlash kerak. Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda boquvchisini yo'qotgan nogironlarni, ijtimoiy zaif va kam ta'minlangan oilalarni qo'llab-quvvatlash, xususan, ularni arzon uy-joy bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Faqatgina 2019 yilda 21,500 dan ortiq oila arzon uy-joy oldi. "Obod qishloq" va "Obod mahalla" dasturlari doirasida 479 ta qishloq va ovullarda, shuningdek, 1,6 milliondan ziyod aholisi bo'lgan 116 shahar mahallalarida keng ko'lamli qurilish va obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi. Ushbu maqsadlar uchun 6,1 trillion so'm ajratildi, bu 2018 yilga nisbatan 1,5 trillion so'mga ko'pdir. Qurilgan arzon va shinam uylarning soni - yakka tartibdagi uylar va ko'p qavatli uylardagi kvartiralarining soni - 34700 tashkil etdi, shu jumladan, qishloq joylarda 17100, shaharlarda 17600, bu 2016 yilga nisbatan deyarli 3 baravar ko'pdir. 214,2 ming yakka tartibdagi, 1182 ta ko'p qavatli uylar ta'mirlanib, 378 ta ko'p qavatli uylar obodonlashtirildi. Xususiy qurilish kompaniyalari tomonidan viloyatlar va Toshkent shaharlarida 18 mingga yaqin uylar, shuningdek, qishloq joylarda 4

mingta uylar qurilgan. 5000 ta kam ta'minlangan fuqarolar va uy-joy sharoitlarini yaxshilashga muhtoj oilalarni, shu jumladan, nogiron ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida 2019 yilda ipoteka kreditlari bo'yicha uy-joy sotib olish uchun dastlabki to'lovlarni to'lash uchun 116 milliard so'mdan ortiq mablag' ajratildi. 2020 yilda esa shaharlardagi 16 mingta muhtoj oilalarga uy-joy uchun boshlang'ich to'lovni va ipoteka foizlarini to'lash uchun esa byudjetdan 1 trillion so'mga yaqin subsidiya ajratildi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar xalqaro hamjamiyat tomonidan munosib baholanmoqda. Xususan, dunyodagi eng nufuzli nashrlardan biri bo'lgan "Economist" jurnali O'zbekistonni 2019 yilgi islohotlar eng yuqori sur'atlarda amalga oshirgan yil davlati deb tan oldi.

Mustahkamlash uchun savollar:

1. "Yangilanayotgan O'zbekiston" iborasini tushintirib bering?
2. "Uchinchi Renessans davri" deganda nimani tasavvur qilasiz?
3. "Sharq uyg'onish davri" deganda nimani tasavvur qilasiz?
4. Tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasida qanday tadbirlar amalga oshirilmoqda?
5. "Investitsion joziba" tushunchasini ta'riflab bering?
6. "Obod qishloq", "Obod mahalla" dashturlari haqida nimalarni bilasiz?
7. "Milliy tiklanishdan –milliy yuksalish sari" g'oyasini tushuntirib bering?
8. Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyotining belgilaydigan omillar?
9. Ta'lim sohasida so'nggi uch yilda qanday o'zgarishlar yuz berdi?
10. Yangilanayotgan O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlariga nimalar kiradi?

GLOSSARIY

AVTONOMIYA (yunon.Autos – o‘zim, nomos- qonun), muxtoriyat –mamlakat tarkibidagi biror hududning Konstitutsiya bilan kafolatlangan o‘z-o‘zini boshqarish huquqi.

AVTORITARIZM - (lot.auktoritas - hokimiyat) – davlatni idora qilish usuli. Avtoritarizm siyosiy hokimiyat hukmdor shaxsning yoki etakchining siyosiy irodasi va qarorlari asosida amalga oshiriladi. Avtoritarizm siyosiy hokimiyat shakli sifatida avtokariya va diktatura bilan uyg‘unlashib ketadi. Atama Frankfurt maktabi vakillari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Avtoritarizm haqiqiy demokratiyaning yo‘qligini anglatadi.

AGRAR SIYOSAT- davlatning qishloq xo‘jalik sohasidagi faoliyati bo‘lib, u qishloq xo‘jaligini, yer mulkchiligini va h. rivojlantirish yo‘llari masalalarini hal qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosatning bir turi.

AGRASANOAT INFRATUZILMASI – bevosita qishloq xo‘jaligi va uning mahsulotlarini qayta ishlovchi sanoat korxonalariga xizmat ko‘rsatuvchi sohalar

AGRASANOAT MAJMUASI - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish, saqlash, qayta ishlash va iste‘molchilarga etkazish bilan Shug‘ullanuvchi xo‘jaliklar yaxlitligi.

AN‘ANALAR – jamiyat hayoti turli sohalarining, moddiy va ma‘naviy faoliyat shakllarining, kishilar o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlarning avloddan-avlodga o‘tishi, ajdodlar hayoti, belgilari va xususiyatlarining takrorlanish tarzi. An‘analar xalqlarning tarixiy rivojlanishi jarayonida shakllanadi va sayqallanadi. Davr talabiga javob bergan an‘analar unitilmaydi, avlodlarga meros bo‘lib qoladi, xalq hayotining tarkibiy qismiga aylanadi.

ASR - (arab. – davr, vaqt) – yuz taqvim yili (kalendar yil)ga teng vaqt oralig‘i; mas., XX1asr 2001- yil 1-yanvardan 2100 -yil 31-dekabrgacha davrni o‘z ichiga oladi.

BAYNALMILALCHILIK – (internatsionalizm; arabcha «baynalmilal» – millatlararo) – jahondagi barcha millat va elatlarning tengligi, hamjihatligi nazariyasi va amaliyoti. Xalqlar, millatlar, elatlar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarning har bir inson, har bir ijtimoiy guruh yoki tabaqaning manfaatlariga monandligiga erishish – umumbashariy vazifalardan biridir.

BARQARORLIK – (ijtimoiy jamiyatdagi) – tinchlik, osoyishtalik va ijtimoiy mehnat muhiti qat‘iy, uzil-kesil hamda mustahkam o‘rnatilgan muhim sharoit. Barqarorlik har qanday bunyodkorlik faoliyatining zamini va zaruriy shartidir. Insoniyatning shu kunlargacha kechirgan tarixi – barqarorlik va beqarorlikdan (ya‘ni sinfiy, harbiy, qabilaviy va guruhiy qarashlar, to‘qnashuvlar, shafqatsiz urushlar sahifalaridan) tarkib topgan.

BOZOR IQTISODIYOTI – jamiyat taraqqiyotini tezlashtiruvchi iqtisodiy aloqalar majmui. Bozor iqtisodiyotining mohiyati shundan iboratki, u barcha jamiyat a‘zolarini ishlab chiqarish va iste‘mol orqali doimiy hamda to‘xtovsiz

musobaqaning ishtirokchilariga aylantiradi, shu boisdan bozor iqtisodiyoti ishlab chiqarishning kun sayin takomillashuviga, mahsulot sifatining yaxshilanib borishiga, miqdorining esa ko'payishiga sababchi bo'ladi. Bozor iqtisodiyoti xalqning, ommaning ijodiy va mehnat imkoniyatlarini yuzaga chiqarib, tadbirkorlik va ishbilarmonlikka yo'l ochadi, mulkka egalik qilish qoidalarini takomillashtiradi, unga turtki beradi. Bozor sharoitida talab va takliflarning miqdori va tarkibi bir-biriga muvofiq kelishi ta'minlanadi. Ishlab chiqarishning iste'molchi ustidan hukmronlik qilishiga chek qo'yiladi, buning uchun fan yutuqlari hayotga va ishlab chiqarishga tatbiq etiladi, texnikaviy va texnologik yangilanishning eng zamonaviy usullaridan foydalaniladi.

BOZOR IQTISODIYOTIGA BOSQICHMA-BOSQICH O'TISH - ma'muriy buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiyonitini xo'jalik faoliyatining markazlaShuvini yo'kotish, narxlar va tashqi iqtisodiy aloqalarni bosqichma-bosqich urkinlashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar asosida isloh qilish.

BOZOR INFRATUZILMASI - tovar va xizmatlarning ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga etkazib berilishini ta'minlashga qaratilgan tarmoqlar va faoliyat sohalari yig'indisidan iborat. Bozor infrastrukturasining rivojlanishi mablag'larning iqtisodiyotda aylanishining tezlashuviga, yangidan yaratilgan mahsulotlar realizatsiyasini tezroq amalga oshirilishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bozor infratuzilmasi vujudga kelishi bilan bozor munosabatlarining rivojlanishi, jamiyatda bozor iqtisodiyotining karar topishiga kulay sharoit vujudga keladi.

VATAN – (arabcha «vatan»-ona yurt)-inson yashab turgan, unib o'sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakat. Insonning kindik qoni to'kilgan tuproq, uni kamol toptiradigan, hayotiga ma'no-mazmun baxsh etadigan tabarruk maskandir. U ajdodlardan avlodlarga qoladigan buyuk meros, eng aziz xotira.

VATANPARVARLIK – kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lgan mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir

VILOYAT- 1.Mamlakatning poytaxtdan yiroqdagi cheka o'lkasi; 2.Yirik ma'muriy-hududiy bo'linma.

VODIY-1. daryo bo'ylab cho'zilgan yoki tog'lar orasidagi keng tekislik; 2. Umuman ekin ekiladigan, obod yer. VOXA-sahro bilan o'ralgan obod, suvli o'lka.

GEOSIYOSAT - davlatlar tashqi siyosatni amalga oshirishga geografik omillar (davlat egallab turgan hududning qulayligi yoki noqulayligi, katta yoki kichik ekanligi, dengizga yaqinligi, tuproqining serhosilligi, tog' va dasht-cho'llarning ko'p-kamligi va hakovolar) alohida urg'u berish. Geosiyosat nazariyasiga binoan, millat va davlatning tabiati, fe'l-atvori ularning geografik joylashganligiga bog'liq. Bu fikrlarni inkor etib bolmaydi. Ammo geosiyosat g'oyalaridan foydalanib XVIII-XIX asrlarda mustamlakachi davlatlar o'z bosqinchilik siyosatlarini amalga oshirdilar va geosiyosat nuqtai nazaridan o'zlariga eng qulay sharoitlarni

yaratishga harakat qildilar. XX asrda fashist Germaniyasi, Yaponiya va soet istibdod davlati geopolitik ekspansiya siyosatini amalga oshirdi.

GERB –(pol. herb,nem. Erbe – meros so‘zidan) – biron-bir mamlakat yoki hududning siyosiy va tarixiy xarakterdagi g‘oyalari majmuasini, o‘ziga xos tabiiy va xo‘jalik xususiyatlari, tabaqaviy tafovutlarini, shaxs, urug‘ va b.ning shajaralarini ifodalovchi alohida ramziy belgi. Gerblar quyidagi tur va toifalarga bo‘linadi: davlat Gerblari, shahar, viloyat, guberniya va boshqalarning Gerblari va x.z.

GIMN – (yunon. hymnos) – tantanavor qo‘shiq, she‘r. Yunonistonda davstlab afsonaviy xalq qahramonlari, xudolar sha’niga maqtoqlar (hamdlar) tarzida vujudga kelgan. Keyinchalik shaxslar, davlatlar, voqea va hodisalarga ham bag‘ishlangan Gimnlar paydo bo‘lgan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Davlat Gimni.

GLOBALLASHUV (GLOBALIZATSIYA) – 1) davlatlar va mintaqalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikning chuqurlashuvi, yagona umumjahon iqtisodiy , madaniy va axborot makonlarining shakllanishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayondir; 2) jahon xo‘jaligining butun makonini qamrab oluvchi iqtisodiy munosabatlar yagona tarmog‘ining tashkil topishi va rivojlanishi; 3) nisbatan yangi so‘z bo‘lib, dunyo miqyosida ro‘y berayotgan turli-tuman jarayonlarni tavsiflash uchun qo‘llaniladi. U jahon yaxlit bozor bo‘lib borayotganini tavsiflaydi. Bu g‘oyaga ko‘ra insonlar orasida bir lahzada aloqa o‘rnatish imkonini beradigan zamonaviy axborot uzatish texnologiyalarini qo‘llanilishi natijasida vaqt va masofa qisqarmoqda;turli madaniyatlar bir-biri bilan aralashib ketmoqda va Shimol madaniyatlari va qadriyatlari janubliklar t omonidan o‘zlashtirib olinmoqda, biroq bir vaqtning o‘zida etnik farqlar va tengsizliklar kuchaymoqda. Globallashuv g‘oyasiga ko‘ra yer sayyorasi alohida qit‘alar yoki maeriklar emas, balki yaxlit hisoblanadi va umumiy uyimiz deb qaraladi, Shunga ko‘ra insoniyat ta’sirining ba’zi turlari manbadan uzoqdagi odamlar va muhitga salbiy ta’sir etish yoki butun sayyora uchun salbiy ta’sirga ega bo‘lishi mumkin; 4) jaxon iqtisodiyotining integratsiyalashuv, transmilliylashuv va baynalmillashuv jarayonlari.

DAVLAT-Hokimiyat organlari va siyosiy tashkilotlar tizimiga ega bo‘lgan mamlakat. Jamiyatning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy sohalarini, ulardagi jarayonlarni shakllantiradigan, rivojlantiradigan, boshqaradigan va millatni taraqqiyotning yuqori bosqichiga o‘sib o‘tishini ta’minlaydigan siyosiy tashkilotidir.

DAVLATCHILIK – bosh siyosiy hokimiyat va unga bo‘ysinuvchi boshqaruv tizimi bo‘lib, bu tizim jamiyatning barcha, ya’ni siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini o‘z ichiga oladi. Davlatchilik azaliy va abadiy mavjudlik emas.

DEMOKRATIYA – (yunon. Demos – xalq, vakratiya) – fuqarolar erkinligi va tengligi qonunlarda mustahkamlangan, xalq hokimiyatchiligining vosita va shakllari amalda o‘rnatilgan va yuzaga chiqarilgan siyosiy tuzum. Demokratiya

davlat bilan inson munosabatlarini belgilaydi. Demokratiyaning asosiy talablari: ko'pchilik hokimiyati, fuqarolar teng huquqliligi, ular huquq va erkinliklari himoyalanganligi, konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi, hokimiyatning bo'linish, davlat boshlig'i va vakolatli organlarning saylab qo'yilishi. Demokratiyaning bevosita Demokratiya (asosiy qarorlar yig'ilishlarda bevosita barcha fuqarolar tomonidan yoki referendumlar yo'li bilan qabul qilinadi) va vakillik Demokratiyasi (qarorlar saylab qo'yiladigan organlar tomonidan qabul qilinadi) shakllari bor. Kishilik jamiyati paydo bo'lganidan oq Demokratiyaning kurtaklar bor edi va u hozir eng taraqqiy etgan mamlakatlarda ham o'zining so'nggi cho'qqisiga erishgani yo'q.

DEMOKRATIYA – qadimiy yunon tilida «demos» – xalq va «kratos» – hokimiyat, ya'ni «xalq hokimiyati», - degan ma'noni anglatadi. Demokratiya shaxs bilan jamiyat, jamiyatda mavjud manfaatlar, munosabatlarning uyg'unligini, shaxs erkinligini ta'minlovchi va uni tartibga soluvchi omildir. Umuman, barchaning manfaatlari yo'lida ko'pchilikning hokimiyati va ozchilikning irodasini hurmat qilish.

DIN – (arabcha «din»-e'tiqod, ishonch)- ijtimoiy hayotni, voqelikni, uning hodisalarini o'ziga xos tarzda in'ikos ettiruvchi ijtimoiy ong shakllaridan biri. Din ibtidoiy jamoa tuzumi davrida vujudga kelgan va o'sha davrda yashagan insonlarning dunyoqarashini aks ettirgan. Din dunyo, inson, mavjudotlarning kelib chiqishini, hayotning mazmuni va ma'nosi, insonning yashashdan maqsadlari kabi savollarga o'zicha javob beruvchi dunyoqarash shakli bo'lib kelgan. Hozirgi davrda ham insoniyatning talay qismi uchun din ushbu vazifani bajarib kelmoqda.

DIKTATURA- (lot. diktatura – cheklanmagan hokimiyat) – davlat xokimiyatini nodemokratik usullar bilan amalga oshirish tizimini ifodalovchi tushuncha, avtoritar yoki totalitar rejim. Diktaturaga asoslangan siyosiy rejimda hokimiyat bir shaxs – diktator yoki bir necha shaxslarning qo'lida markazlashadi, siyosatda zo'rovonlik va terror kuchayadi. Diktatura o'rnatilgan ligi diktatorlik hokimiyatining cheklanmaganligi va nazoratsizligi, konstitutsiya e'lon qilgan demokratik huquqlar va erkinliklar toptalishi, vakillik organlarining huquqlari cheklanishi bilan ajralib turadi. Hokimiyat to'g'ridan-to'g'ri zo'rovonlikka tayanadi. Odatda, yirik ijtimoiy guruhlar Diktaturani ifoda etuvchi kuch sifatida namoyon bo'lsada, u bir shaxs yoki bir guruh shaxslarda mujassamlashadi (qadimgi Rimda harbiy boshliqlar Diktaturasi va triumviratlar, iutloq monarxlar, hozirgi avtoritar tuzumlar, xuntalar va h.k.). biron – bir davlatda Diktatura o'rnatilishi, odatda, ichki o'zaro kurash g'oyat keskin tus olgan davrlar bilan bog'liq bo'lgan (mas., Ispaniyada Franko Diktaturasi, natsistlar Germaniyasida fashistlar Diktaturasi, sobiq sho'rolar davrida Stalin Diktaturasi va b.).

YORDAMCHI TARIX FANLARI –tarixiy manbalarning ma'lum bir tulari yoki ularning alohida shakllari va tarkibini o'rganiuvchi fanlar (geneologiya, geraldika,

diplomatika, tarixiy metrologiya, numizmatika, paleografiya, sfragistika, xronologiya, epigrafika va b.).

JADID-jadidchilik tarafdori, jadidchilik harakatining qatnashchisi. Usuli jadid eski maktabdagi tartib va o'qitish usullari o'rniga jadidlar joriy qilgan yangi tartib va ta'lim-tarbiya usulini joriy qilgan; bu usul jumladan, xat-savod chiqarishda hijl tizimi o'rniga tovush tizimini kiritgan.

JADID MAKTABLARI - eski musulmon diniy maktablarini isloh qilib, yangicha usulda ta'lim bergan va jadidchilik g'oyalarini ilgari surgan maktablar. Bu maktablarda diniy darslar bilan bir qatorda dunyoviy ilmlar ham o'qitilar edi. Bunday maktablar dastlab 1893 yili Samarqandda, so'ng Farg'ona vodiysida, Toshkentda mahalliy o'zbek boylarining paxta zavodlari qoshida ochilgan.

ISLOM- dunyoda eng ko'plardan tarqalgan dinlardan biri bo'lib, unga e'tiqodda bo'lganlar musulmonlar deb ataladi. Islom dini yagona xudo-Oллоhga e'tiqod qiladi.

IJTIMOIIY SIYOSAT–1) daromadlarni taqsimlashda iqtisodiyot qatnashuvchilari o'rtasida tengsizlik natijasida vujudga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan davlatning chora-tadbirlaridan iborat; 2) bu davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashuvchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat; 3) davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni yumshatishga va bozor iqtisodiyoti qatnashuvchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlari.

IJTIMOIIY TARAQQIYOT- 1) jamiyat (individlari emas), balki barcha a'zolari)ning taraqqiyoti; 2) jamiyat sohalaridan biri (ijtimoiy-iqtisodiy birlikning bir tomoni) taraqqiyoti.

IMPERIYA– (lot.imperium - hokimiyat) – 1)imperator boshqargan monarxiya davlatning nomi; ba'zi qadimgi zamon (Rim imperiyasi), o'rta asr ("Muqaddas Rim imperiyasi") yirik monarxiya davlatlari ham imperiya deb atalgan. Podsho Rossiya Pyotr1 davri(1721)dan Romanovlar hokimiyati ag'darilguniga qadar (1917), Fransiya Napoleon 1 (1-imperiya) va Napoleon 111(2-imperiya) davrida, Avstriya 1804-1914-yillarda (1868 yildan Avstriya-Vengriya), Germaniya (1871-yildan 1918 - yil inqilobiga qadar) imperiyabo'lgan; 2) mustamlakalari bo'lgan yirik davlatlar. Masalan, Buyuk Britaniya dominion va mustamlakalari bilan birga Britaniya imperiyasini tashkil etgan.

INAUGURATSIYA – (lot. inaugro - bag'ishlayman) – davlat boshlig'ining shu oliy lavozimni bajarishga kirishishi munosabati bilan o'tkaziladigan tantanali marosim.

INTEGRATSIYA – (lot. integratio, integer – butun so'zidan olingan) – biror-bir qism va elementlarni bir butunga birlashtirish, iqtisodda xo'jalik hayotini internatsionalizatsiyalashning oliy formasi bo'lib, bunga xalqaro mehnat taqsimotini chuqurlashtirish ob'ektiv ravishda sabab bo'ladi. U turli mamlakatlarning o'zaro yaqinlashuvida va ularning koxonalari, tarmoqlari vam

hatto milliy iqtisodning yagona xo‘jalik organizmiga birlashuvida ifodalanadi hamda bu jarayon tartibga solib turuvchi iqtisodiy siyosatdir.

INNOVATSIYA LOYIHALARI - bunday loyihalarning asosiy maqsadi, yangi texnologiyalar, nau-xay va korxonalarning rivojlanishini ta‘minlab beruvchi boshqa ishlab chiqish vaboshqalardan iborat.

INNOVATSION SIYOSAT- mahalliy mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish barqaror, iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, aholining turmush sifati va darajasini oshirish, texnologik va ekologik havfsizligini ta‘minlash uchun innovatsion faoliyat ustuvorliklarini tan olishdan kelib shakllantiriladi va amalga oshiriladi.

INSON OMILI-ishlab chiqarish, uni rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha mehnatkashlarning ko‘p qirrali faoliyati inson ishlab chiqarish vositalarini yaratadi va jonlantiradi, ularni ishlab chiqaruvchi kuchlarning elementiga aylantiradi, Shu bilan bir qatorda jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchidir. Ayni paytda inson ishlab chiqaruvchi munosabatlarning va barcha ijtimoiy munosabatlarning sub‘ektidir. Ko‘pgina omillar, ayniqsa, fang‘texnika taraqqiyoti ta‘sirida insonning o‘zi ham takomillashib boradi va ishlab chiqarishning birdan-bir maqsadi sifatida har doim bosh omil bo‘lib xizmat qiladi..

INSONPARVARLIK – («inson»-arabcha; «parvar»- fors-tojikcha; «lik» - o‘zbekcha – kishiga g‘amxo‘rlik, gumanizm)-odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo‘lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta‘min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma‘nosini anglatadi.

IRODA – arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy jihatdan xohish, istak, maqsad ma‘nolarini bildiradi. O‘zini tuta bilishlik, dadillik, qat‘iylilik, chidam, toqat, izchillik va shu kabi fazilatlar irodaning muhim sifatlaridir.

INSON HUQUQLARI-har bir insonning huquqlar va imtiyozlari ta‘minlash. BMT inson huquqlari Deklaratsiyasi 1948 - yilda qabul qilingan. U insonlar yashash, erkinlik va o‘qish huquqiga ega ekanligini, barcha millatlar teng ekanligini va qonun oldida barcha barobar ekanligini e‘lon qildi.

INSON KAPITALI-shaxsning ma‘lumoti, kasb mahorati, tajribasi , sog‘lig‘i bilan bog‘liq bo‘lgan qobiliyatlari majmui.

IQTISODIY ISLOHOTLAR- iqtisodiy munosabatlarda tub yoki qisman o‘zgarishlarni amalga oshirishga mo‘ljallangan tadbirlar.

IQTISODIY JARAYONLAR-kishilarning inson sifatida yashamoqlari uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish maqsadida yashash vositalarini, ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste‘mol qilish faoliyatlarining namoyon bolishi.

IQTISODIY MANFAAT-1) bu iqtisodiy ehtiyojlarni aks etish shakli; 2) bu iqtisodiy ehtiyojlarning namoyon etish shaklidir.

ISTIQLOL – o‘zaro hurmat, bir-birini tan olish, bir-birini qadrlash asosida mamlakat fuqarolari, o‘zaro munosabatida ham, jahon davlatlari o‘rtasidagi aloqalarda ham ana shu umuminsoniy qadriyatlarga tayanish, ana shu umumiy

mezonlar asosida yashash demakdir. Mustaqillik – jamiyatdan ajralmagan holda dunyo muammolari va o‘z taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan istiqbol haqida o‘ylashdir. Istiqbol – erkin dunyoqarash, erkin tafakkurga suyanib yashash salohiyatidir.

KADRLAR DESANTI – Respublikaning o‘zida ko‘plab malakali va salohiyatli kadrlar bo‘lishiga qaramasdan, sobiq markaz 80-yillarda SSSRning turli mintaqalaridan O‘zbekistonga ishni bilmaydigan, faqat bu yerdagi imkoniyatlardan foydalanib, davru davron surishni o‘ylaydigan odamlarni yubordi. Ular xalqimiz o‘rtasida «desantchi»lar, deb nom oldi

KOMIL INSON – dunyoviy va diniy bilimlarning ilg‘or namoyondalari qarashlariga ko‘ra insondagi komillik aqliy, ma‘naviy, ruhiy, axloqiy etuklik bo‘lib, komillikka erishishning yo‘li – ilmu-ma‘rifatga, fazlu kamol kasb etishga, salbiy xislatlar, nuqsonlardan xalos bo‘lishga va o‘zgalarga yordam berishga intilishdir.

KOALITSIYA– (lot. coalition - ittifoq) – 1) xalqaro munosabatlarning ayrim masalalarida birganlikda ish ko‘rish haqida o‘zaro ahdlashgan davlatlarning siyosiy yoki harbiy ittifoqi (mas., davlatlarning 2-jahon urushidagi gitlerchilarga qarshi koalitsiyasi), 2) bir necha siyosiy partiyalarning shu partiyalar vakillaridan iborat hukumat tuzish to‘g‘risidagi kelishuvi. 3) 2001 yil 11-sentyabr voqealaridan keyin Afg‘onistondagi tolibonlarga qarshi AQSH boshchiligidagi tuzilgan koalitsiya, unda O‘zbekiston Respublikasi ham ishtirok etgan.

KONSTITUTSIYA– (lot.constitutio – tuzilish, tuzuk) – davlatning asosiy qonuni. U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, shuningdek, sud tizimini belgilab beradi. Konstitutsiya barcha joriy qonunlarning asosi hisoblanadi. Davlat faoliyatining turli sohalarida Konstitutsiyaga rioya qilinishini nazorat etish oliy sud yoki Konstitutsiyaviy sud zimmasiga yuklanadi. Konstitutsiya atamasi qad.Rimdayoq bor edi(imperator Konstitutsiyasi deb atalgan qonun). Evropadagi tarixiy taraqqiyot hozirgi kunda amalda bo‘lgan Konstitutsiyalarning 2 guruhini vujudga keltirdi. 1-guruh – hozirgi zamon sharoitlaridan keskin farq qiluvchi sharoitlarda qabul qilingan eski Konstitutsiyalar. Bu xildagi Konstitutsiyalarga 1787-yilgi AQSh Konstitutsiyasi, 1831 yilgi Belgiya Konstitutsiyasi, 1874 yilgi Shveysariya Konstitutsiyasi misol bo‘la oladi. 2-guruhga XX asrning 2-yarmida qabul qilingan “yangi avlod” Konstitutsiyalari kiradi. Ular dastlabki Konstitutsiyalardan huquq va erkinliklar institutining; Konstitutsiyaning himoya qilish mexanizmlari va ijtimoiy muammolariga murojaat etish mexanizmlarining kengayishi natijasida konstitutsiyaviy tartibga solish hajmining ko‘payishi bilan farq qiladi.

MADANIY MEROS- o‘tmish davrlardan insoniyatga qolgan moddiy va ma‘naviy madaniyat boyliklari mavjud.

MADANIYAT – (arabcha «madina» - so‘zidan olingan bo‘lib, ma‘nosi shahar degani. «Madaniyat» shahar turmush tarzini bildiradi. Shahar aholisining turmush

tarzi patriarxal, qabilaviy hayot kechirayotgan badaviy arablar umrguzoronligidan yuqori bo'lgani bois madaniyat yuqori saviyadagi hayotni bildiradi. Madaniyatning yuqori darajasi "tamaddun" – sivilizatsiyani bildiradi.

MAFKURA – (arabcha «mafura») – fikrlar, nuqtai nazarlar va e'tiqodlar tizimi, majmui) muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatning tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, go'zallikka doir, badiiy qarashlarning butun bir tizimi.

MA'NAVIYAT – (arabcha «ma'naviyat»-ma'nolar majmui)-kishilarning falsafiy, huquqiy, estetik, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui. Ma'naviyat mafkura, tafakkur tushunchalariga yaqin va ular bir-birlarini taqazo etadi.

MILLAT – (arabcha «millat» - xalq) – kishilarning yagona tilda so'zlashishi, yaxlit hududda istiqomat qilishi, mushtarak iqtisodiy hayot kechirishi, umumiy madaniyat va ruhiyatga ega bo'lishi asosida tarixan tashkil topgan barqaror birligi.

MILLIY ONG – har bir millat yoki elatning bevosita uzoq tarixiy etnogenez davri, turmush tarzi, iqtisodiy ishlab chiqarish usuli, diniy e'tiqodlari, madaniyati, boshqa xalqlarning bevosita ta'siri tufayli shakllangan dunyoqarashi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'naviy sohalarida faollik darajasi.

MILLIY O'Z - O'ZINI ANGLASH - har bir millat (elat)ning o'zini haqiqiy mavjud sub'ekt, muayyan moddiy va ma'naviy boyliklarni ifodalovchi ekanligini, yagona til, urf-odatlar, an'analar, qadriyatlar va davlatga mansubligini, manfaatlar hamda ehtiyojlar umumiylikini tushunib etishiga milliy o'z-o'zini anglash deyiladi.

MODERNIZATSIYALASH - (frantsuzcha «moderne» - eng yangi zamonaviy) – biror narsani yangilash, unga zamonaviy tus berish, uni zamonaviy talablarga muvofiq o'zgartirish. Modernizatsiyalashda mashina apparat, turli texnologik qurilmalar, muxim kashfiyotlar texnika taraqqiyoti talablariga muvofiq qayta ishlanadi.

MARKETING XIZMATI-marketing faoliyatini amalga oshiruvchi boshqarishning tuzilma shakli. Korxonani boshqarishdagi muhim funksional bo'g'in bo'lib , u boshqa xizmatlar bo'linmalar (ishlab chiqarish, moliyaviy, texnologik va h.k) bilan hamkorlikda bozor talabini qondirish va Shu asosda foyda olishga yo'naltirilgan yagona integratsion jarayonni tuzadi.

MASOFAVIY TA'LIM-1) o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri, shaxsiy aloqasiz "masofadan o'qitish" imkonini yaratib beruvchi zamonaviy axborot telekommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga asoslangan o'qitish jarayonini amalga oshirishning yangi uslubi. 2) bu asosiy ishdan uzilmagan holda ta'lim muassasasidan masofada ta'lim va kasb-xunar dasturlarini o'zlashtirishdir. Masofaviy ta'lim zamonaviy axborot texnologiyalari va telekommunikatsiya vositalaridan foydalanishga asoslanadi.

MUSTAQILLIK - davlatning ichki va tashqi ishlarida boshqa davlatlarga qaram bo'lmay faoliyat ko'rsatishi. Mustaqillik tamoyillariga rioya etish davlatlararo

o‘zaro munosabatlarda etakchi, hukmron qoidadir. Har bir davlatning mustaqilligini tan olish - qzaro tinch-totuv yashashning prinsiplaridan biri. U BMT Ustavi va xalqaro shartnoma va deklaratsiyalarda mustahkamlab qo‘yilgan. PALEOGRAFIYA- qadimgi qo‘lyozmalar yozuvini va ularning tashqi ko‘rinishini o‘rganadigan fan.

PUL KREDITI SIYOSATI- davlat tomonidan iqtisodiy o‘rishni ta‘minlash maqsadid pul muomalasini tashkil etish barqarorligini uchun amalga oshiriladigan barcha chorag‘tadbirlar majmui.

PROGRESS – (lotincha progressus – oldinga harakatlanish) – rivojlanishning quyidan yuqoriga boradigan yo‘nalishi. Progress tushunchasi butun bir sistemaga, uning ayrim elementlariga nisbatan ham qo‘llaniladi. Progress regresning aksi. “Progress” tushunchasi dastlab, asosan, jamiyat tarixiga nisbatan qo‘llanilgan. qadimgi dunyoda ko‘pchilik olimlar jamiyat tarixini voqealarning shunchaki oddiy takrorlanishi, davra bo‘ylab (Platon, Aristotel) hatto “oltin davr”dan quyiga qarab harakatdan iborat deb bilganlar. Uyg‘onish davrida ijtimoiy munosabatlar va fanning nisbatan tez rivojlanishi bilan Progressning ilm sohasida mavjudligi haqida fikrlar mavjud bo‘la boshladi (F.Bekon, R.Dekart). Keyinchalik progress tushunchasi ijtimoiy munosabatlarga nisbatan ham tatbiq etila boshlandi.

PROFILAKTIKA - turli xil xavflar, ya‘ni texnogen, epidemologik, tibbiy, diniy- ekstremistik taxdidlardan odamlarni muhofaza etish choralari ko‘rish, ekstremistik, ya‘ni yot g‘oyalardan muhofazalanishning eng samarali choralaridan biri - bu odamlarning bandligini kafolatli ta‘minlash, dunyoqarashini boyitib o‘zgartirish, hamkorlik qilish, pozitiv baholovchilik fazilatini shakllantirish orkali ularni ijtimoiy foydali hayotga integratsiya kilishdir.

PORTAL - lotincha “eshik”, “darvoza” degan ma‘nolarni ifoda etadi. YAna bir ma‘nosi - yopiqlik emas, hamisha ochiklik ma‘nosini, ya‘ni ochik turuvchi eshiklar ma‘nosini ham anglatadi. SHuningdek, “portal” so‘zi Vatanimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli isloxotlarning hozirgi davrida aholining muammolari, ariza va shikoyatlari, taklif va murojaatlarini doimiy ravishda qabul qilib oluvchi hamda munosabat bildiruvchi muassasa ma‘nosini xam bildiradi. Portal so‘zi, xalkimiz ma‘naviyati, muloqot tizimida adolatni muqarrar o‘rnatishga qodir bo‘lgan qadrli atamaga aylandi.

OMMAVIY MADANIYAT – hozirgi globallashuv davrida insoniyatga, ayniqsa yoshlarga ma‘naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘zida mujassamlashtirgan, axloqiy buzuqlik va zo‘ravonlik, individualizm, egotsentrizm g‘oyalarini tarqatish va shuning hisobidan boylik orttirishga qaratilgan «ommaviy madaniyat» tahdid solmoqda. «Ommaviy madaniyat» – xalqning o‘zligi va madaniyatini yo‘qotishga, uni xalqni xalq, millatni millat qilib turgan asoslardan, ya‘ni ming yilliklar mobaynida shakllanib, rivojlanib kelayotgan madaniy, ma‘naviy, ma‘rifiy, axloqiy va ruhiy an‘analar, qadriyatlar hamda tamoyillardan begonalashtirishga qaratilgan xurujdir.

RESPUBLIKA – (Lotincha “res” - ish va “publikus” - ijtimoiy: umumxalq ishi) davlatni boshqarishning asosiy shakllaridan biri. Boshqarishning respublika shakli oʻrnatilgan mamlakatlarda davlat hokimiyatining oliy organlari muayyan muddatga saylanib qoʻyiladi. Tarixda respublikaning har xil turlari boʻlgan. Qadimgi Yunoniston va oʻrta asrlar davridayoq, ayrim davlatlar, boshqarish shakliga koʻra, aristokratik yoki demokratik respublika shaklida boʻlganlar. Hozirgi davrda respublikaning uchta asosiy turi mavjud. Prezidentlik respublikasi (AQSh, Argentina, Braziliya, Keniya, Venesuela, Gvatemala, Zambiya, Kolumbiya, Meksika, Paragvay, Peru, Salvador) ning oʻziga xos xususiyatlari: unchalik rivojlanmagan yoki rivojlanmagan koʻppartiyaviylik tizimining tarkib topganligi: prezident bir vaqtining oʻzida davlat va xukumat boshligʻi ekanligi: prezidentning bevosita xalq yoki mahsus tashkil etilgan kollegial organ tomonidan saylanishi: prezidentning parlamentdan mustaqilligi: bosh vazir lavozimining yoʻligi; hukumatning prezident tuzilishi. Parlamentar respublikasida (Germaniya, Italiya, Hindiston, Avstriya, Albaniya, Bangladesh, Isroil, Polsha, Ruminiya Turkiya) koʻppartiyaviylik tizim rivojlangan boʻlib, mamlakat aholisi davlat hokimiyatining oliy qonun chiqaruvchi organi – parlament deputatlarini muayyan muddatga saylaydi: parlament saylovlarida gʻalaba qozongan partiya rahbarlari hukumatni tuzadilar, agar hech bir partiya vakillari parlamentda koʻpchilik oʻrinlarni ololmasa, koalitsion (aralash) hukumat tashkil qilinadi: davlat boshligʻi prezident parlament tomonidan saylanadi: hukumat boshligʻi bosh vazir boʻlib, real hokimiyat uning qoʻlida toʻplanadi: hukumat parlament oldida javob beradi; hukumat tarkibini parlament belgilaydi, hukumat qarorlariga oʻz taʼsirini koʻrsatadi, butun xukumatini yoki uning ayrim aʼzolarini isteʼfoga joʻnatadi.

Aralash respublikada (Frantsiya, Rossiya) prezidentlik va parlamentar respublikalarning asosiy xususiyatlari birgalashib oʻz aksini topadi. Uning xususiyatlaridan biri shundaki, prezident bilan xukumat oʻrtasida toʻgʻrisida toʻgʻri yuridik aloqa zaifdir. Prezident bevosita xalq tomonidan muayyan muddatga saylanadi. U bevosita xukumatga rahbarlik qilmaydi. Hukumatni bosh vazir boshqaradi. Parlament va hukumat oʻrtasida kelishtirib boʻlmaydigan nizo kelib chiqqanda, prezident konstitutsiyaga binoan, parlamentni yoki uning quyi palatasini tarqatib yuborish huquqiga ega. Qonun bilan belgilangan muddat oʻtgandan soʻng, xalq tomonidan saylangan hokimiyat organlarining vakolati tugatiladi va ularga qaytadan saylov oʻtkaziladi. Oʻzbekiston ijodiy ravishda respublikaviy boshqarishning shunday shakli tanlab olindiki, u Prezident respublikasi, parlamentar respublika va aralash respublikaga xos tomonlar va jihatlarini oʻzida mujasamlashtiradi. Bu mustaqil Oʻzbekistonni hozirgi zamonning murakkab vaziyatida talab darajasida boshqarish imkoniyatini beradi.

REGISTON- Oʻrta Sharq shaharlaridagi maydon. Samarqand va Buxorodagi registonlar shahar arxitekturasida tutgan oʻrni va tarixiy ahamiyati bilan ajralib

turadi. Ayniqsa, Samarqanddagi Registon ansambli yirik me'morchilik inshooti sifatida hozirgi kungacha butun dunyoga mashhur.

SO'M- O'zbekistodagi pul birligi nomi

STRATEGIYA - ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy isloxlarni amalga oshirishning bosh yunalishi, barcha sa'y-harakatlarning poydevori, davlat va jamiyat hayotidagi tub burilish davri uchun xos bo'lgan boshkaruv san'ati mazmunini ifoda etadi. Strategiyaning bugungi kun uchun xos bo'lgan ma'nosi hozirgi murakkab davrda O'zbekistonning erkin va farovon davlat bo'lishiga erishish, odamlar hayotini tubdan yaxshilash, baxtli turmushini, kafolatli tinchligini ta'minlash, har bir insonning ertangi kuniga bo'lgan ishonchini mustahkamlashdan iborat.

SUVERENITET – (fransuzcha «souverainite» - mustaqillik; oliy hokimiyat) – quyidagi mazmunlarda ishlatiladi: 1. Davlat suvereniteti-hozirgi davlatshunoslik fanida davlatning ichki va tashqi siyosatdagi to'la mustaqilligi sifatida talqin qilinadi. 2. Xalq suvereniteti xalqning to'la hukmronligi, xalq hokimiyati, xalq boshqaruvi ma'nolarini anglatadi.

244

TADBIRKORLIK- bu muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va ayirboshlashni tashkil etish bo'yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir.

TADRIJIY - tadrijan (arab tilidan olingan) izchillik, asta – sekinlik bilan.

TARBIYA – ta'lim tizimining tarkibiy qismi bo'lib, 1.Yangi (yosh) avlodga katta avlodning ijtimoiy - tarixiy tajribasini singdirish orqali uning rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy vazifa. 2. Ijtimoiy institutlar ta'siri ostida insonning shaxsiy va ma'naviy dunyosini shakllantirish, rivojlantirish, boyitish va takomillashtirib borishning aniq maqsadga yo'naltirilgan, tizimlashtirilgan ongli jarayoni.

TARIX – 1. Tabiat va jamiyatdagi har qanday rivojlanish jarayoni. Masalan, Koinot tarixi, Yer tarixi, fanlar tarixi va boshqalar tushuniladi. 2. Insoniyatning o'tmishi va taraqqiyoti, jamiyatlar, davlatlar, tuzumlar, sivilizatsiyalarning vujudga kelishi, rivojlanishi hamda inqirozi jarayonini o'rganuvchi fan.

TARIX FANI – xalqning o'tmishdagi hayoti, qanday voqea-qodislarni boshdan kechirganligi, insonlar hayoti qanday va nima uchun o'zgarib borganligi, etnik shakllanishi, davlatchiligi, ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti, turmush tarzi hamda hozirgi rivojlanish darajasiga qanday erishganligini o'rgatadi. Ya'ni, xalqning o'tmishi, hoziri va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida yondoshib, o'tmish hozirgi zamonni, hozirgi davr esa kelajakni yaratadi, - degan qarashni shakllantiruvchi fan.

TARIXIY XOTIRA – hozirgi kundagi mustaqillik, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyot, tinch-osuda hayotning ta'mal toshini qo'ygan barcha insonlar, buyuk ajdodlarimizni yod etish, mustaqillikni saqlab qolish, asrab-avaylash va

mustahkamlash, o'zbek xalqining kim ekanligi, qanday zotlarning avlodi, qanday merosning vorisi ekanligini bilish, o'zlikni anglash omili.

TA'LIM – shaxsning ma'rifiy hamda tarbiyaviy darajasini o'stirish orqali uning rivojlanishini ta'minlash maqsadida o'rgatuvchi bilan o'rganuvchilar o'zaro birgalikda amalga oshiradigan didaktik faoliyat. Shaxsning har tomonlama taraqqiyotini ta'minlash maqsadida ko'riladigan didaktik chora-tadbirlar tizimi.

TOTALITARIZM – (lotincha «totalitare» - yaxlit, to'liq)-bir shaxs, ijtimoiy sinf yoki guruhning (masalan, harbiylar guruhi) yakkahokimligiga so'zsiz bo'ysunishga asoslangan, vaqtincha va o'tkinchi siyosiy tartib, davlatni boshqarish shakllaridan biri. Totalitar davlat boshqaruv shakli joriy qilingan mamlakatlardan jamiyat hayotining barcha sohalarida davlatning to'la hukmronligi o'rnatiladi. Oshkora ijtimoiy-siyosiy tashkilotlarning faoliyati ustidan qattiq nazorat olib boriladi. Demokratik tashkilotlar faoliyati cheklab qo'yiladi. Totalitarizm vakillari o'ta markazlashgan hokimiyat tizimi o'rnatilgan kuchli davlatni tashkil qilish, mamlakatni boshqarishda yakka-yu yagona partiyaning hukmronligini ta'minlash, davlat organlaridagi asosiy mansablarni shu partiya a'zolari o'rtasida taqsimlash, barcha davlat organlari, mansabdor shaxslar va omma hayoti ustidan partiya nazoratini o'rnatish, davlat ichki va tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlarini partiya markaziy tashkiloti tomonidan belgilab berilishi davlat va partiya rahbarlik qilishni yakka shaxs – dohiy qo'lida to'plash kabi g'oyalarni ilgari suradilar.

245

FUQAROLIK – shaxsning muayyan davlat qaramog'ida bo'lishi, shu davlatga, mamlakat ichida ham, uning tashqarisida ham mansub ekanligi, shu mansublikning huquqiy hujjatlar yordamida tasdiqlanganligi. Fuqarolik deganda, insonni huquqiy yoki siyosiy-huquqiy tomondan himoyalaniishi va qonuniy manfaatlarining ushbu davlat ichida va uning tashqarisida himoyalaniishi tushuniladi.

XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR- rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi xo'jalik munosabatlari

XALQARO IQTISODIYOT-turli mamlakatlarga tegishli xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganuvchi bozor iqtisodiyoti nazariyasi.

E'TIQOD ERKINLIGI – bu o'z fikr va qarashlariga mahkam, sobitqadamlik bilan ishonish va o'zgalarni ham o'zidek hisoblab, ularning lafziga samimiyat bilan ishonishdir.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 89-moddasida qayd qilinganidek, «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti davlat boshlig'idir va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta'minlaydi», Konstitutsiyaning 90-moddasiga ko'ra, Prezident «O'zbekiston Respublikasining Prezidenti lavozimiga o'ttiz besh yoshdan kichik bo'lmagan, davlat tilini yaxshi biladigan, bevosita saylovga

kamida 10 yil O'zbekiston hududida muqim yashayotgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi saylanishi mumkin. Ayni bir shaxs surunkasiga ikki muddatdan ortiq O'zbekiston Respublikasining Prezidenti bo'lishi mumkin emas.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti O'zbekiston Respublikasining fuqarolari tomonidan umumiy, teng va to'g'ridan-to'g'ri saylov huquqi asosida yashirin ovoz berish yo'li bilan besh yil muddatga saylanadi. Prezidentni saylash tartibi O'zbekiston Respublikasining qonuni bilan belgilanadi.

QADRIYATLAR – borliq, jamiyat, narsalar, voqealar, hodisalar, inson hayoti, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyatini ko'rsatish uchun qo'llaniladigan tushuncha. Qadriyatlar tarixiy va zamonaviy bo'lishi mumkin. Qadriyatlarning xilma-xil shakllari bor: moddiy, ma'naviy, umumbashariy, mintaqaviy, umuminsoniy; jamiyat hayotining sohaları bo'yicha iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy qadriyatlar; ijtimoiy ong shakllariga mos keladigan axloqiy, diniy, huquqiy, ilmiy; hayotning ijtimoiy tuzilishiga mos keladigan, milliy, sinfiy, partiyaviy va boshqalar. Qadriyatlar dunyoni bilishning maqsadi, bilimlarimizning haqiqatga mos kelish darajasini aniqlash mezoni yoki biror ideal tarzida ham namoyon bo'ladi.

QARAMLIK - mamlakat va hududlarni bosib olish yoki boshqa xil yo'llar bilan ularning ustidan boshqa davlat va guruhlarining hukmronligi o'rnatilishi oqibatida davlat hokimiyatining oliylik va suverenlik belgilaridan mahrum bo'lishi. Qaram davlatlar metropoliya davlatlariga siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan qaramlik zanjirlari bilan bog'langan bo'ladilar; qaramlikning huquqiy shakllari 2 asosiy guruhdan iborat: 1) xalqaro-huquqiy bog'liqlik – prorektorat (homiyluk), vavasiyluk, kondomium va mandatli hudud; 2) davlat huquqiy aloqalari.

QAYTA QURISH – XX asrning 80-yillari o'rtalarida keng iste'molga kirgan tushuncha. SSSRda totalitar tizimni isloh yo'li bilan o'zgartirishga qaratilgan harakatni anglatgan. Qayta qurish siyosatining maqsadi va vazifasi mamlakatda to'planib qolgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy va mafkuraviy sohalaridagi muammolarni «qayta qurish» yo'li bilan hal etishdan iborat bo'lgan. M.S. Gorbachev boshchiligidagi KPSS rahbariyatining bir qismi tomonidan boshlangan bu siyosat mamlakat hayoti va umuman jahonda ma'lum o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keldi (oshkoralik, siyosiy plyuralizm, «sovuq urush»ning tugashi va h.k.). Qayta qurishni amalga oshirishdagi qarama-qarshilik va noizchiliklar natijasida 80 – yillarning oxiri 90 – yillarning boshidan mamlakat hayotining barcha sohalarida bo'hronlar kuchayib ketdi. Bunga shu davrda turli respublikalarda bo'lib o'tgan siyosiy voqealar, milliy nizolarning ayrim joylarda ixtilofli tus olishi misol bo'ladi.

G'OYA – (arabchada-o'y) – atrofdagi voqealarni fikran o'zlashtirish asosida shakllangan va amaliy harakatga chorlaydigan fikr, niyat, maqsad.

G'oyaning mazmuni insonlar o'z bilimlarini qaysi sohasi to'g'risida mulohaza olib borilayotganiga bog'liq. Masalan, g'oyalar siyosiy, iqtisodiy, diniy, tibbiy,

texnikaviy, badiiy, axloqqa tegishli bo'lishi mumkin. Ular jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta'sir ko'rsatadi. G'oyalar jamiyat rivojlanishini jadallashtiradi yoki susaytiradi.

HURRIYAT – (arabcha) siyosiy va iqtisodiy zulmdan xalos bo'lganlik, erkinlik, ozodlik.

HUQUQIY DEMOKRATIK DAVLAT – jamiyat taraqqiyoti va davlat shakllarining rivojlanishi jarayonida yuzaga kelgan, davlatni tashkil qilishning eng mukammal shakli va mazmuni. Huquqiy demokratik davlat uchun kurash bundan to'rt – besh asr muqaddam boshlanib, faqat XX asrning ikkinchi yarmida haqiqatga aylana boshladi.

XALQARO IQTISODIY MUNOSABATLAR- rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi xo'jalik munosabatlari

XALQARO IQTISODIYOT-turli mamlakatlarga tegishli xo'jalik sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq qonuniyatlarni o'rganuvchi bozor iqtisodiyoti nazariyasi.

XUSUSIY SEKTOR-mamlakatdagi uy xo'jaliklari va firmalarining yig'indisi.

HUNARMANDCHILIK - yuridik shaxs bo'lmagan jismoniy shaxslarning hunarmandchilik buyurtmalari yoki tovarlari (ishlari, xizmatlari)ni ishlab chiqarish bo'yicha faoliyati.

MUNDARIJA

1-mavzu. Kirish. “ O’zbekistonning eng yangi tarixi” o’quv fanining predmeti, maqsadi va vazifalari, nazariy-metodologik tamoyillari. Mustaqillikka erishish arafasida O’zbekistondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar.....	3
2-mavzu. Mustaqil O’zbekiston Respublikasining tashkil topishi va uning tarixiy ahamiyati. O’zbekistonning o’ziga xos istiqlol va taraqqiyot yo’li.....	21
3-mavzu. O’zbekistonda demokratik, fuqarolik jamiyati asoslarining shakllanishi, amalga oshirilgan siyosiy islohotlar. Iqtisodiy islohotlar, xususiy mulkchilikning shakllanishi. O’zbekistonda bozor munosabatlarining rivojlanishi.....	31
4-mavzu. O’zbekiston Respublikasidagi ijtimoiy o’zgarishlar. Mustaqillik yillarida O’zbekistondagi ma’naviy va madaniy taraqqiyot.....	52
5-mavzu. O’zbekiston Respublikasida ta’lim sohasida amalga oshirilgan islohotlar. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog’iston Respublikasi.....	73
6- mavzu. O’zbekiston va jahon hamjamiyati. Yangilanayotgan O’zbekiston: milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari.....	86
Glossariy.	105

O'ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI
(Barcha sirtqi agrar ta'lim yo'nalishlari uchun o'quv qullanma)

Bosishga ruxsat etildi 20.02.2023.
Bichimi 60x84^{1/16}. Times New Roman
garniturada raqamli bosma usulida chop etildi.
Shartli bosma tabog'i 7.5.
Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 34-01.
Tel: (99) 832-99-279; (99) 817-44-54

«IMPRESS MEDIYA» MCHJ bosmaxonasida chop etildi
Manzil: Toshkent sh., Qushbegi ko'chasi, 6-uy.